

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK**

RAHIMOVA DILNOZA ABDIQODIR QIZI

**QODIR BAXSHI RAHIMOV IJODIDA ODOB-AXLOQ
TALQINI**

5A 111201 – o'zbek tili va adabiyoti

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:
f. f. n., Sh. QAHHOROVA**

Qarshi-2013

MUNDARIJA

Kirish.....3-7

I BOB. Qodir baxshi Rahimov hayoti, ijodi va o'rganilishi.....8-23

**II BOB. Qodir baxshi termalarida ahloqiy qadriyatlar
talqini.....24-62**

III BOB. “ZAYDINOY” DOSTONIDA AHLOQ-ODOB TALQINI....63-115

Umumiy xulosa.....116

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....117-119

KIRISH

1.Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Uzoq asrlar silsilasida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan o'zbek dostonchilik san'ati bugungi kunda ham jonli jarayonda davom etayotgani, xalqimiz baxti, o'tmish tariximizni anglash asosi, bugunimizni kuylash imkoni va kelajak avlodni milliy qadriyatlar ruhida kamolga yetkazish zaminidir. Chunki dostonlar qatida hamisha yaratuvchi xalqimizning adolatparvarlik, insonga muhabbat, e'tiqod, ixlos, tabiatni sevish, ardoqlash, o'n sakkiz ming olamni yaxlit tasavvur qilgan, o'zaro aloqada bo'lgan holda qadrlash, e'zozlash, umrni behuda o'tkazmaslik, axloqiy, ruhiy munosabatlardagi go'zallik haqida umumbashariy g'oyalar bilan birgalikda ma'lum xalqning o'zigagina xos milliy qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, irm-sirimlar ham saqlanib qolgan. Eposning ulug' kuychilari esa hamisha ziyraklik, zukkolik, aql-idrok, iste'dod, hayotiy tajribalari bilan uni mukammallashtirgan, sayqallashtirgan, o'z davri unsurlari bilan boyitgan. Xalq dostonlarining xuddi shu xususiyatini yurtboshimiz alohida qayd etib quyidagilarni yozadi: «Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xo surf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»¹.

O'zbek xalq dostonchiligining shu va shu kabi qator xususiyatlari haqida o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab folklorshunoslar G'. O. Yunusov, H. Zarifov, M. Afzalov, M. Alaviya, T. Mirzaev, M. Saidov, M. Murodov, B. Sarimsoqov, A. Qahhorov, O. Sobirov, K. Ochilov, K. Imomov, M. Jo'raev, A. Musaqulov singari kabilar tadqiqotlar olib borishgan. Aynan shu olimlar respublikamizning Janubiy viloyatlar Qashqadaryo-Surxondaryoda yashovchi baxshi-shoirlar repertuarini o'rganish, yozib olish, va o'ziga xos jihatlarini tahlil

¹Karimov I.A. yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. . –T.:ma'naviyat, 2008. - B. 29-30.

etishda karvonboshilik qilganlar. Biroq Janubiy O'zbekistonning iqtidorli, o'nlab shogirdlar yetishtirgan ustoz dostonchilar mahoratini monografik tarzda radqiq etish, ularning o'ziga xos jihatlarini yoritish sohasida ilmiy ishlarni yetarli deb bo'lmaydi.

Mustaqillik tufayli xalqimiz uzoq asrlar davomida yaratgan va bizgacha etib kelgan moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida barkamol inson qilib kamol toptirishga xizmat qildirish hamda kelgusi avlodlarga meros qoldirish ma'naviyatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab tariximizni xolisona chuqur o'rganish, moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash, xalqchil an'analarni davom ettirish va rivojlantirish to'g'risida, maqollarida, asarlarida izchil yo'l-yo'riq ko'rsatib, shu sohada o'nlab farmonlar, qarorlar chiqardi.

Nomoddiy madaniy merosning birgina folklor sohasini, ya'ni xalq og'zaki ijodini saqlash, o'rganish, tadqiq etish va rivojlantirish borasidagi vazifalar naqadar serqirra, zarur va yoshlar tarbiyasida asosiy omil, yurtimizni, millatimizni dunyoga tanitishdagi ahamiyati katta ekanligi Prezident I.Karimovning har bir asarida, hukumatimizning 1998 yil 13 yanvarda qabul qilingan "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida"gi tarixiy qarori va qahramonlik eposimizning yubileyidagi tantanali marosimida Yurtboshimiz so'zlagan nutqda, "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" kitobida belgilab berildi.

Yurtboshimizning ma'naviy merosni asrash va yuksaltirish haqidagi, fikrlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrda qabul qilingan "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va shu qaror asosida qabul qilingan Davlat dasturida ham o'z ifodasini topdi.

Davlat dasturida yirik tadbirlarning o'ntasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining o'zga bir necha vazirliklar va qator nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda bajarilishi belgilangan.

Respublikamizdagi yirik o'quv yurtlaridan biri Qarshi Davlat Universitetida ham Prezidentimiz va hukumatimizning nomoddiy madaniy meros, milliy va umumbashariy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni milliy mafkuramizni yuksaltirish hamda yosh avlodni yurtsevarlik, xalqparvarlik, o'tmishda yashagan ajdodlarga hurmat-e'tibor, bugungi kundan faxrlanish, kelajakka ishonch ruhida barkamol avlod qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan qaror va ko'rsatmalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Belgilangan bu vazifalarni bajarish uchun mustahkam zamin va yillar sinovidan o'tgan va o'tayotgan tajribalar bor. Avvalo Qashqadaryo moddiy boyliklarga qanchalik boy zamin bo'lsa, nomoddiy madaniy merosga, xususan, betakror xalq og'zaki badiiy ijodiga shunchalik boy voha. O'zbek folklorining ajralmas bir qismi bo'lgan Qashqa vohasi aholining og'zaki ijodini o'rganish o'tgan asrning 20-yillari oxiridan boshlangan. 1929 yildan voha folklorini yozib olish va tadqiq qilishni ustoz folklorshunos Hodi Zarifov boshlab bergan. Keyinchalik bu ishni M.Afzalov, M.Alaviya, A.Qahhorov, Ch.Hamro, T.Murzaev, M.Murodov, K.Ochilov, O.Sobirov, Z.Husainova, B.Sarimsoqov, A.Ergashev singari taniqli olimlar, yosh fol'klorshunoslar D. Xalilova, N. Ochilov, S. Qahhorova kabilar davom ettirdi. Ayniqsa xalqimizning mashhur baxshisi Qodir Rahimovning ijodini o'rganishda nomi ko'rsatilgan olimlar alohida xizmat qildi va 2012-yil noyabr oyida Respublika miqyosida Qodir baxshi Rahimovning 75 yilligi Qarshi Davlat universitetida nishonlanishi, ilmiy-nazariy konfrensiya o'tkazilishi va unda ellikga yaqin olimlar, tadqiqotchilarning ilmiy-uslubiy maqolalari tinglanishi va shu materiallar asosida "Qodir baxshi abadiyati" nomli to'plamning, folklorshunos A. Ergashevning "Qodir baxshi termalari", "Qodir baxshi o'g'itlari", "Qodir baxshi o'tdi denglar", "Qodir baxshi Rahimov", "El ardoqlagan baxshi" nomli risolalari, o'quv qo'llanmalari,

monoografiyalari va ilmiy jurnallarda vaqtli matbuatda chop etilgan o'nlab maqolalar Qashqadaryo-Surxondaryo epik ijodiyotini o'rganishda va uning umum o'zbek va umumturkiy epos taraqqiyotidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xolbuki, o'nlab epos na'munalarini bizgacha yetkazib kelgan baxshi-shoirlar xizmatini munosib baholash, ular nomini avlodlarga etkazish burchimiz bo'lib, bu haqda Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda xalqimizning buyuk ijodkorlari haqida gapirib shular qatorida Qodir baxshi nomini ham e'tirof etgan va xalq baxshilariga bo'lgan hurmatini shunday izohlagan edi: "Bugun biz ming yillar davomida, bu dostonni kuylab, gavharday asrab-avaylab, boyitib kelgan, nomlari bizga noma'lum bo'lgan yuzlab xalq baxshilarining iste'dodi qarshisida ta'zim qilamiz. Agar iloji bo'lsa men ana shu insonlarning nomlarini ma'naviyatimiz tarixiga oltin harflar bilan yozgan bo'lur edim".

Yurboshimiz ta'kidlaganidek, ma'naviyatimiz tarixiga oltin xarflar bilan yoziladigan baxshilardan biri Qodir baxshi Rahimov (1937-1986)dir. Qodir baxshi ijodida ham umumo'zbek baxshilari kabi axloqiy qadriyatlar, miilliy udumlar, odob axloq mavzusi alohida o'rin egallaydi. Ushbu bitiruv ishimizda Qodir baxshi Rahimovdan yozib olingan doston va ayrim termalar misolida odob-axloq mavzusining aks etishini yoritishga intildik.

2.Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqot manbai Qodir baxshi Rahimov kuylagan xalq hayotining ma'lum davrlarini aks ettirgan dostonlar va termalari tashkiletadi.

3.Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Xalqning mashhur baxshi-shoiri Qodir Rahimov hayoti va ijodi misolida eposning so'nish jarayonida epik an'analarning saqlanishi va unda xalqona odob-axloq talqinining yoritilishini tahlil qilish ishning asosiy maqsadinitashkil etadi.

4. Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Tadqiqot obyekti va predmeti: Qodir baxshi hayoti, ijodda epik an'analarni qanday davom

ettirgani va dostonchilik rivojiga qo'shgan hissasi, mahoratini undan yozib olingan termalar va dostonlar misolida yoritish.

5. Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ma'naviy meros, milliy madaniyatning rivojlanishi, o'zlikni anglash haqidagi falsafiy fikrlari, o'zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligida olib borilgan tadqiqotlar metodologik asos qilib olindi.

6. Tadqiqot usullari. Qiyosiy-tarixiy usullar.

7. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: Eposning so'nish jarayoni davom etayotgan davrda yashab ijod qilgan yuksak iqtidorli Qodir baxshi Rahimov mahorati, badihago'ylik qobiliyati, kuylagan asarlarida xalq an'analari, axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlarning saqlanishi ilk bor monografik aspektda tadqiq etish.

8. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: Dissertatsiya materiallari xalq ijodkorlari hayoti va badiiy mahoratini tadqiq etuvchi, xalq epik ijodiyotidagi axloqiy qarashlarni tahlil qiluvchi risolalar, monografiyalar, maqolalar yaratishda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalaridan maktablar, o'rta va oiliy ta'lim tizimida dasturlar, darsliklar, o'quv-uslubiy va o'quv qo'llanmalar tuzishda tadbiqu qilinadi.

9. Natijalarning joriy va e'lon qilinishi. Mavzu 2011 yil dekabr oyida kafedra yig'ilishida tasdiqlandi. Mavzu yuzasidan konferensiyalarda ma'ruzalar o'qildi. Mavzu bo'yicha 4 ta maqola va tezislar e'lon qilindi (1."Yusuf va Zulayxo" qissasining dastlabki manbalari. QarDU xabarlar. 2013 №1 74-77 bet. 2. "Yusuf va Zulayxo" dostonida adolat talqini. "Fan, taraqqiyot va yoshlar" 2012. 207-210 b. 3. Xolisning "Yusuf va Zulayxo" dostonida Zulayxo tasviri. Ilm, fan va innovatsion texnologiyalar. 4.

Xolisning “Yusuf va Zulayxo” dostoni. Adabiy manba: o‘rganishning zamonaviy tamoyillari va nashr muammolari. 2013. 81-84 betlar).

Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ish yuzasidan ikki doston matni, beshta maqola e‘lon qilingan.

9. Bajarilgan ishning asosiy natijalari: xalqning atoqli baxshisi Qodir Rahimovning ijodiy labaratriyasi, imperivizatsiya qobiliyati, termalari tematikasi va bir doston misolida eposda odob-axloq motivining ishlanishi o‘rganildi.

10. Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:Qodir baxshi XX asrning ikkinchi yarmida yashagan, uzoq asrlik epik an‘analarni muvoffaqiyatli davom ettiribgina qolmay, uning rivojiga ham munosib hisssa qo‘shgan , eposda so‘nish jarayonini sekinlatishga erishgan va o‘ttizdan ziyod shogird yetishtirgan buyuk ijodkordir. Baxshi ijodini g‘oyaviy badiiy, tematik, til xususiyatlari jihatdan o‘rganish navbatdagi yirik ilmiy tadqiqotlarni taqazo etadi.

I BOB . QODIR BAXSHI RAHIMOV HAYOTI VA IJODIGA DOIR

Buxoro amirining ag‘darilishi, uning chekka muzofotlaridan bo‘lgan G‘uzor to‘raligiga qarashli Tangixaram qishloqlarida ham ijtimoiy turmushni alg‘ov-dalg‘ov qilib yubordi. 20-yillarning ikkinchi yarmida tarixda “bosmachilik” deb ta‘riflangan milliy ozodlik kurashi, ayniqsa, tog‘li hududlarda avj oldi. Chorvador oilada tug‘ilib yoshlikdanoq etimlik azoblarini tortgan Rahim Jabbor o‘g‘li yangi maktabda savod chiqardi, bir necha muddat Buxoroda tahsil olib, Xo‘jamahmudga o‘qituvchi bo‘lib qaytdi. O‘sha vaqtda

murabbiylarning nufuzi baland edi. Zero, xalqimiz hamish o'qimishli, ilmiy donishmand kishilarni qadrlagan, alohida mehr-muhabbat ko'rsatishgan. Qo'ng'irot urug'ining Qo'shtamg'ali shajarasiga tegishli Kal shahobchasidan bo'lgan Rahim, garchi mashhur baxshi bo'lmasa-da, do'mbirani yaxshi chertar, uning sehrli ohanglaridan ruhan quvvat olar, goho termalar ham aytib turar ekan. Xalq san'atiga havas, baxshichilikka ishtiyoq uning qonida bo'lgan g'rsa-da o'z davrining mashhur baxshisi Turdi shoirning qizi Norxolga uylanishi, qaynotasi, qaynog'alari Rajab baxshi Normurod o'g'li va Hazratqul baxshilarning bu xonadonda tez-tez bo'lishi, tunni tongga ulab aytgan dostonlari tufayli yanada kuchaydi.

Yosh oilada dastlab ikki qiz dunyoga keldi. 1937 yili o'g'il ko'rishdi. Shu o'rinda ayrim tadqiqodchilarning bu sanani goh 1940, goh 1941, goh 1942 yil deb xato ko'rsatishlarini ta'kidlaymiz. 1937 yilning 16 aprelida tug'ilgan bola keyinchalik Qodir baxshi nomi bilan yarim dunyoga tanilgan Abdi Rahim o'g'lidir. Qodir baxshi 1937 yil tug'ilgan degan qat'iy fikrga kelishimizga ikki sabab bor. Birinchisi va asosiysi shuki, baxshining onasi: "Abdiqodirjon sigir yili kirganda, bahorda tug'ilgan edi", deydi. Sigir yili esa 1937 yilga to'g'ri keladi. Darvoqe, baxshining hujjatlarida ham 1937 yil 16-aprel qayd etilgan. Demak, boshqa sanalarga o'rin qolmaydi. Baxshining hujjatda Abdi, hayotda Qodir atalishiga kelsak, o'zbeklarning ko'pchiligida ikki ism bor. Oilada birinchi ismini aytishmaydi-da, ikkinchisidan foydalanishadi. Bu yomon ko'zlardan, ofatlardan saqlash irimi sifatida ongli holda yuz beradi.

Yosh Abdiqodirning ona tomindan etti pushti xalq sevgan baxshilar, sozandalar bo'lishgan. Onasi ham zuvalasi zo'r san'ati, xalq qo'shiq va dostonlari bilan yo'g'rilganlardan. Qodir ikki yoshga kirganda otasi Rahim Jabborov harbiy xizmatga chaqiriladi. G'ndigina shirin-shirin gapira boshlagan bola shu bilan ota mehridan benasib qolishidan behabar edi. Fashistlarga qarshi kurashda jasurlik ko'rsatgan Rahim Jabborov jangda mardlarcha halok bo'ladi. Voyaga etmagan uch qizi bir o'g'lining tarbiyasi Norxol zimmasiga qoladi.

Qodir esini taniy boshlagandan so'ngi nafasiga "ota" so'zi armon bo'lib qolaverdi. O'sha og'ir yillarda shharu qishloqda ocharchilik, yo'qchilik hukmron edi. Norxol ona farzandlarini xor zar qilmaslik uchun qanchalar azob tortdi. To'rt besh echkinining suti, goho eti go'daklar joniga oro kirdi. Yozda terilgan boshoqni eplab qishni o'tkazish, bolalarga qarshgina emas, o'sha bir necha molni ham ayozlardan omon asrash oson kechmadi. O'sha yillarda Norxol odamlar sadoqatini sinadi. Bu oilaga yaqin bo'lgan ba'zi kimsalar beva ayolning moliga ham ko'z olaytirishdi. Ammo u haqini bermadi. Go'daklarini xor qilmaslik uchun boshqa turmushga chiqmadi.

O'sha azobli yillarda qorni arpa nonga goh to'yib, goh to'ymagan, goh och, yalong'och bo'lgan Qodirning ko'zlarida mung qoldi. O'sh yillarda bir parcha non, bir og'iz shirin so'z Qodir ongiga armo bo'lib bitildi, yoshi ulg'aygan sari armonlar bo'y cho'zib bordi, otasizlik azob-uqubatidan to'kilgan ko'z yoshi bilan o'sib ulg'ayib bordi. Ehtimol, o'sha bolalik davridagi ushbu satrlar uning ongiga o'rnashgandir:

Otalining ayqiradi yuragi,
Otasizning bo'lmas ekan keragi,
Men bo'zlayman bo'tadayin chirqirab,
Nega bo'lmas aziz padar daragi?

Bu dard hamisha uni qiynaydi. Farzand sifatida o'rtanib, keyinchalik otasi bo'lgan, jang qilgan vas hahid bo'lgan joylarni kezdi. Axir...

Orqa tov deb suyangani,
Yiqilganda tayangali,

Ko'krak kerib so'z aytgali,
Oldidan dushman qaytgali,

Ota ham kerak yigitga.

Ushbu satrlarni qayta-qayta aytarkan, yuragida jo bo'lgan qayg'u-alamni, hayotda ota mehrisiz, otadek suyanchsiz yashash nechoElik og'ir bo'lganini his etish qiyinmas. Bu judolik bola qabidan qanchalik joy olgan bo'lsa, yaxshilarning bir og'iz shirin so'zi, tasallisi, bergan bir burda noni, tabiatning go'zalligi ham shu qadar o'rnashdi. Shu boiski, o'zbek dostonchiligida hali hech kim tabiat va inson ruhiyatidagi bog'lanishni, aloqani, yaqinlik va zaruriyatni Qodir baxshi qadar yaxlitlikda berolgan emaski, bu haqda keyinroq to'xtalamiz.

Do'mbiraga mehr ruhimda bo'lgan,
Eli yurtim dardi ohimda bo'lgan,
Alpomish, Go'ro'g'li jangga otlansa,
Do'stlar shod, dushmanlar vahimada bo'lgan.

Rivoyat qilishlaricha, Luqmon hakimning birgina o'g'li bo'lgan ekan. Avaylagan ko'zga cho'p tushar deganlaridek, shu yolg'iz farzand xastalanib qolibdi. Minglarning dardiga darmon topgan Luqmon o'g'lini har qancha urinsa ham uni davolay olmabdi. Yolg'izi vafot etgach, tabib xastalik boisini bilmoq uchun uning ko'ksini yorib ko'ribdi. Qarasaki, birgina qil yuragiga o'ralib, qon oqishini to'xtatib qo'ygan ekan. Shunda Luqmon afsuslanib: "G' voh, o'g'limga shuncha hunar va ilm o'rgatibmanu na do'mbira chertishni, na otda chopish-chavandozlikni o'rgatmabman", debdi. Boisini so'rashganda: "Har ikki holda do'mbira chalganda ham , ko'pkarida ham zavqlanishdan yurak kengayar, kuchliroq harakatga kelar va qil uzilib ketgan bo'lardi", debdi. Bu rivoyat uzoq zamonlardan qolgan bo'sa-da, undagi haqiqat bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan. Ushbu rivoyatni eshitganmi yo'qmi, ammo Surxondaryoda, Qashqadaryoning bir qismida, xususan, tog'li Dehqonobod tumanida yashovchi qo'ng'irotlar hamon shu ikki narsadan zavq oladi, ruhlanadi. Qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, do'mbirani qoyilmaqom cherta olmasa-da, uni

tinglashni, ko'pkarini chopmasa-da, tomosha qilishni xush ko'rishadi. Har oilada bir do'mbira, bir ot bo'lishi odat bo'lgan. Shu bois ham bu vohalarda mashhur bo'lgan Umir shoir Safarov (1894-1966) to'ylarda do'mbira ko'tarib bormagan. Xonadondagi do'mbirani olib, aytib ketavergan.

Qodir unib o'sayotgan oilada esa ota bu sozni sayratgan, boboyu tog'alar ohangiga so'zni qo'shib el ko'nglini yayratgandi. Demak, "do'mbiraga ishtiyoq ruhimda bo'lgan" deganida Qodir baxshi ming bor haq edi. Bugungi kunda ham faqat o'g'li haqidagi yorqin xotiralar bilan nafas olayotgan Norxol momo eri Rahim Jabborov frontdan yozgan maktublarida o'g'lining tarbiyasiga e'tibor berishni, do'mbiraga baxshichilikka ixlos uyg'otishni qayta-qayta takrorlaganini hikoya qiladi:

-Abdiqodirjon to'rt yoshlarida uyga akam Rajab baxshi keldi. U termalar, dostonlardan parchalar aytib ko'nglimni ko'tardi. Abdiqodirjon akamning qo'shiqlarini berilib tinglab turganini ko'rgach, otasining o'g'lim bobolari, tog'alaridek baxshi bo'lsin deb yozganlari yodimga tushdi-yu, akamga do'mbira yasab berishni iltimos qildim. Ikki uch kundan keyin akam kichkina do'mbira olib keldi. Hali yosh bola emasmi, bir-ikki kun chalib sindirib qo'ydi. So'ng ikkinchisini yasattirdim. Bu ham ko'pga bormadi, uchinchi, to'rtinchisini... (Do'mbiraning sinaverishi yosh Qodirga ko'p ham bog'liq bo'lavermagani, bu erda qandaydir ilohiy kuchar ta'siri borligiga keyinroq qaytamiz – M.M., A. G'.)

-Men, - deb eslaydi Qodir baxshi, - 7 yoshlarimda qishlog'imizda to'y bo'ldi. Biz hali barcha bolalar kabi o'yin-kulgu bilan mashg'ul edik. Shunda odamlar: "Baxshi keldi, baxshi keldi", deb qolishdi va uydan gilam poyondoz chiqarishdi. Qorabayir otdan qora soqolli, chaqnoq ko'zli, chiroyli, qorin qo'yga etdor odam tushib, hurjundan do'mbirasini olishi bilan odamlar oyog'i ostiga poyondoz to'shab, uygacha oyog'ini quruq erga bostirmay olib kirdi. Baxshining atrofdagilar bilan salomlashib, ko'rishishiga ham ko'nishmadi, poyondoz to'shashga qarshiligiga ham qarashmadi. Shu erdayoq murg'ak

qalbimga bunchalik izzat-hurmat boisi nima, katta bo'lsam men ham shunday e'tiborli bo'larmikanman, degan o'y keldi. Bir zumda vujudimga ichkaridan taralayotgan do'mbira ohanglari kira boshladi. Ammo biz bolalarni Qora uy (o'tov)ga kiritmagani sababli eshikdan quloq solardik. Yoshu qari, erkagu ayol shunchalik ko'payib ketdiki, o'tovning chiylarini olib tashlashga to'g'ri keldi. Baxshi kuylar, kuylay-kuylay oldinga siljib borardi. Nimani aytayotgani yodimda yo'g'u, ammo sadolar, goh guldurosli jaranglagan ovoz biz go'daklarning ko'ziga uyqu endirmadi. Tong payti doston tugaganda uyqu g'olib kelib uyga etmay yaqindagi handak (loy olingan chuqurcha)da uxlab qolibman. Onam topib olib, ichkari kiritib yotqizib qo'yibdi. Uyqudan uyg'onsam boshimda chiroyli tufak taqilgan do'mbira turibdi. So'rab balsam, kechagi baxshi dongdor dostonchi Umir shoir Safarov bo'lib, tongda biznikiga qo'noq bo'lgan va sozi qolib ketgan ekan. Turdim-u, uni chala boshladim.

Qodir baxshi bir zum o'yga toldi-yu, do'mbirani olib, o'zicha cherta boshladi. Biz yana nima ta'sir qilganini so'rayveramiz.

-Bunisiga siz, olimlar, ishonmaysizlar, - dedi baxshi. - G'shitganini aytayapti yoki ichidan to'qiyapti deysizlar. Ha mayli, ko'p qo'ymadilaring, aytayin. O'sha kunlarning birida odatdagidek to'rt-besh echki, qo'yni haydab o'tlatgani olib ketdim. Huv, Sarg'yota darasida o'tlatib, toshdan-toshga sakrab, u archadan bu archaga osilib charchab xorib uxlab qolibman. Bir mahal oppoq soqolli, oq kiyingan, ikki beti qip-qizil bobo keldi. Salom berdim, alik oldida erkalab: "Qani bolam ayt, tanglayingga beraymi, manglayingga?", deb so'zradi. Sag'irligimning azobini ko'rib, bir parcha nonga zor bo'lib och yurgan emasmanmi, tanglayimga bering desam biror egulik berar, qornim to'yar deb: "Bobo, tanglayimga bering, tanglayimga", dedim. Shunda bobo: "Ikkisini ham so'ramadingda", deb og'zimga tufladi. Achchig'lanib joyimdan sakrab tursam bobo ham, qo'y-echkilar ham yo'q. Mollar hu pastda ketyapti, mening esa nuqul do'mbira chalgim, qo'shiq aytgim kelyapti. Tayog'imni olib, do'mbira qilib

qishloqqa qo'shiq aytib kirib keldim, O'shanda nimani aytdim, qanday aytdim bilmayman. Lekin shu do'mbira tulporimga aylandi.

Baxshidan bu xotiralarni yozib olganimizda 70-yillar edi. O'zi aytgandek, xalq baxshilaridan shu kabi deyarli bir xil voqeani eshitib, biz ham unchalik ishonmagan, ishonsak-da, fikrimizni asoslay olmas edik. Baxshilar hayotiga chuqurroq nazar solish, ularning ruhiy dunyosini anglashga intilish, Qodir baxshi yonida qariyb yigirma yil birga bo'lish, nihoyat zamonning o'zgarib qadriyatlarimizning qaytishi, o'tmish madaniy merosimizga chuqurroq nazar tashlash, koinot sirlarini anglashga intilish tufayli baxshilar aldamaganiga, ular ilohiy bir kuch ta'sirida yashashlariga, ijod qilishlariga ishonch hosil qildik.

Yuqorida Qodir etti yoshgacha bir necha do'mbirani sindirgani aytilgandi. Ammo, u yoshi ulg'ayib, hatto shuhrat qozonib borganda ham do'mbira sinishi barham topmadi. Ehtimolki, hech kim Qodir baxshichalik do'mbirani xilma-xil maqomda sayrata olmaganidek, u kabi ko'p do'mbirani "qurbon" ham qilmagan. Bu, bir tomondan, do'mbira-tulporning, chavandoz-baxshining chertish mahoratiga, jarangdor ovozigga bas kela olmaganidan bo'lsa, ikkinchidan ilohiy kuchlarga, biz bilmagan sir-sinoatga bog'liqligidir. Baxshi etmishinchi yillarning oxirida Dehqonobodning Yangiqishloq qishlog'ida kuylar edi. O'ng qo'l do'mbiraning bosh qismini aylantirib ushlagan holda, barnoqlar torni chertar, chap qo'l do'mbira dastasini ushlagan tarzda, u yon-bu yon o'ynoqlardi. Shunda, ikki qo'lda sayrab turgan do'mbira to'satdan otilib ketdi-yu, ikki metr chamasi erga borib chanog'idan tars yorildi. Qanday kuch, qay holatda otib yubordi? Hamma hayron, baxshining so'zi og'zida qoldi. "Urdi-ya, ukag'ar", deb homushlanib o'yga toldi. Sozni olib chuqur xo'rsindi. Bu do'mbiraga achinish boisi shunda ediki, uning yasalganiga yuz yildan oshgan bo'lib, baxshi ovozini yanada ochar, kecha-kunduzning istagan vaqtida soz ovozi "bo'g'ilmas", buzilmas, uning baxshi mulkiga aylanishi ham qiziq tasodif bilan ro'y bergan edi.

Qodir baxshi Chorjuy viloyatidagi Kuhiytangda kuylayotganda XIX asrda yashab o'tgan Alim baxshining (bu biz yuqorida aytgan Surxondaryolik Alim baxshi emas-M.M;A. G'.) nabirasi bo'lgan qariya unga bobosidan qolgan do'mbirani chertib ko'rishni taklif etadi. Baxshi yuz yoshdan oshgan sozni chertganda nihoyatda jarangdor ovoz chiqaradi. Soz qadrini yaxshi bilgan do'mbirani sotishni so'raydi. Ammo bobo rozi bo'lmaydi. Qodir baxshi do'mbiraning narxi nari borsa 20-30 so'm bo'lgan o'sha vaqtda o'nta qo'y, bitta ot, ming so'm pul berganda ham bobo rozi bo'lmay: "Baxshi bolam, har qancha molu dunyo bersang ham bu dombirani bermayman, bobomdan qolgan xotira", deydi. Shunda baxshi bir zum to'xtab, tashqariga chiqib ketdi, o'ylanib, "bir do'mbiraga kuchim etmasa, baxshiligim qayoqqa ketdi?", dedi-da, qayytib kelib o'sha do'mbirani qo'lga oldi. Aytayotgan "Go'ro'g'li" dostonini davom ettirmasdan, "Kuntug'mish" dostonidagi Kuntug'mishning yoridan, ikki farzandidan ajralishi, yaratganga munajatini kuylay ketdi. Avval davradagilarning bir-ikkisi, so'ngra deyarli barchasi sho'rq-sho'rq yiElashga tushdi.

Baxshisevar yoridan ,ham dilquvonchi, tayanchi umrining davomchisi qo'sh bolasidan ayrilgan Kuntug'mish bo'lib nola chekayotgan paytda, o'zining ko'zidan ham yosh sizayotganda, Alim baxshining nabirasi: "To'xtat-a, bolam, yuraklarni se qilib ezib yubording, do'mbira seniki, yuz yildan so'ng egasini topdi", deb do'mbirani ushlatdi. Mol-dunyoga bermagan sozni sovg'a qilib, o'rniga baxshining do'mbirasini oldi. Qodir baxshi o'sha aytishni eslaganda: "O'shanda bir kelgan ekan-da, "Kuntug'mish"ni ming aytsam ham shunday chiqmadi", deb yurardi. Singan, ko'z tegib singan do'mbira o'sha Alim baxshidan meros qolgan soz bo'lib, baxshi shunga achingan edi.

Etti yoshdan mehr qo'yib chertgan, yuragida bir dardu hasratini, quvonchu shodligini u orqali bayon etgan baxshi an'anaga ko'ra "sozni", tulporini ko'p bora madh etdi. Mana u minglab ijro etgan do'mbiraga murojatlardan biri:

Seni chertsam ko'nglim gulday yayraydi,
Bulbuldayin sayrab chiqqan, do'mbiram,
Qo'shsha troing qo'shilganda sayraydi,
Ko'ksing ochib yayrab chiqqin, do'mbiram.

Qahramonniko'rganingda maqtaysan,
Dangasaga duch kelganda to'xtaysan,
Ohanglarga o'zing kuylarga boysan,
Tovushingni soz chiqargin, do'mbiram.

Maqtay-maqtay qo'rqog'ini marda qilgan,
Turta-turta eshagini ot qilgan,
Cherta bersam el ko'nglini shod qilgan,
Mayin tordan noz chiqargan, do'mbiram.

Qo'shsha toring bir-biriga eshilar,
Tovushingga qo'sh bulbullar qo'shilar,
Seni bilan buloq ko'zi ochilar,
Bo'lsa qishdan yoz chiqargan, do'mbiram.

Sozlar bilan sen hamisha barobar,
Sen kirgan honada suhbat, kulgi bor,
O'zing chertib Qodir bo'ldi baxtiyor,
Ozod yurtda quloch chiqar, do'mbiram.

Do'mbira chertishni, kichik-kichik termalar aytishni, baxshichilik san'atiga bo'lgan qiziqishni ko'rgan bobosi Turdi baxshi keksaygan bo'lishiga qaramay nevara bilan jiddiyroq shug'ullana boshladi. Asta-sekin kuylar

qo'shiqlara, termalarga, dostonlardan parchalarga kamarbasta bo'la bordi. Havas, ishtiyoqni zga soladigan, avlodlar qoni orqali o'tgan dostonchilikni shakllantiradigann ustozga ehtiyoj tug'ildi. Ustozlar esa bor edi. O'sha ustozlar tarbiyasida va Xudo bergan istedod tufayli Qodir baxshi 80 ga yaqin dostonlarni o'zlashtirib, mahorat bilan aytishga muyassar bo'ldiki, bu dostonlarni folklorshunos A. Ergashev quyidagicha keltiradi:

1. Alpomish.
2. Beva Barchin.
3. Yodgor.
4. Kuntug'mish
5. Shirin bilan Shakar.
6. Rustamxon.
7. Murodxon.
8. Yusuf va Uzro.
9. Vomi va Uzro.
10. Berdiyor
11. Oychinor.
12. Gavharoyim.
13. Go'ro'g'lining tug'ilishi.
14. Zaydinoy.
15. Go'ro'g'li va Yunus pari.
16. Qasamyod.
17. Rayhonning Chambil kelishi.
18. Qo'ng'irboy.
19. Avazxon va Uzumkuz.
20. Hasanxon.
21. Bolxuvon.
22. Malikai ayyor.
23. Parilarning qochishi

- 24.Sanamgavhar.
- 25.Mozondara.
- 26.Malla savdogar (1- versiya)
- 27.Malla savdogar (2-versiya).
- 28.Nuralining tug'ilishi.
- 29.Jorxun maston
- 30.Nuralining yutilishi.
- 31.Soibulbul.
- 32.Sherali.
- 33.Jahongir.
- 34.O'tov-Cho'tov.
- 35.Jahongir Temur.
- 36.Maxtumduli.
- 37.Yozi bilan Zebo.
- 38.Bozirgon.
- 39.Yusuf va Zulayho.
- 40.Oshi Zargar.
- 41.Qambarpolvon.
- 42.Uzumkuz.
- 43.Yaman dev
- 44.Malikai Xubbon.
- 45.Oltin qaboq.
- 46.Xumoroy.
- 47.Ota duosi.
- 48.Mahmudxon.
- 49.Suluvxon.
- 50.Xon Dalli.
- 51.Shahidnoma.
- 52.Tarkiston.

- 53.Bektosharab.
- 54.Tohir va Zuhro.
- 55.Ollonazar Olchinbek.
- 56.Balogardon.
- 57.Misol pari.
- 58.Oyparcha.
- 59.Shoniyoz.
- 60.Nurali va 500 mullabachcha.
- 61.Avazning ota-onasini kurib kelishi.
- 62.Qundiz bilan Sundiz poygasi.
- 63.Avazning Xunxorga yurishi
- 64.Intizorning Chambil kelishi.
- 65.Ravshanxon.
- 66.Ayritog'.
- 67.G'upponoy.
- 68.Qoraman bilan Olaman.
- 69.Norguloy yoki Kelinoy.
- 70.Oysha.
- 71.Eshora bilan Dustora .
- 72.Leninni ko'rdim do'stlar-ay.
- 73.Davrim farzandi.
- 74.Otibad polvon.
- 75.Shohsuvor.
- 76.Sohibiron va Sohibjamol.

Ro'yxat 1982 yil Qodir baxshi bilan hamkorlikda tuzilgan. Bu dostonlarning 71 tasi an'anaviy va beshtasi zamonaviydir. An'anaviy dostonlarning uchtasi "Alpomish" turkumiga, ir to'qqiztasi "Go'ro'gli" silsilasiga (Bu silsila bir necha katta va kichik turkumlarga ajraladi.) mansub. Bu hada

A.Ergashevning «Qashqadaryo Surxandaryo dostonchiligi» monografiyasi (T-FAN 2008)da mufassal fikr yuritilgan. Qolganlari boshqa turkum yo turkum bo'lolmagan dostonlarni tashkil etadi. Shulardan uchitasi tarixiy (Jaxongir Temur», «Oychinor», «Maxtumquli») dostonlardir.

Baxshi yaratgan beshta zamonaviy doston «Oysha», «Leninnikurdimdustlar-ay», «Davrim farzandi», «Otibad polvon », «Eshora bilan Dustora» sho'roviy mafkura ta'sirida, ziyolilarning ko'rsatmasi bilan yaratilgan.Ammo ularda ham ilmiy -badiiy qimmatga ega o'rinlar, parchalar saqlanib qolgan.

Qodir baxshi do'mbira chertishda ham o'ta iste'dodli bo'lib quyidagi do'mbira kuylari uning repertuarida qayd etilgan:

«Oh-voh», «hala tuyam», «Qo'y qaytarish», «Qo'y sug'orish», «Kelinoy nag'masi», «Izzatoy nag'masi», «Kelmadi», «Ot haydash», «Ayriliq», «Sherna kuyi », «Umir kuyi», «Turdi shoir kuyi», «Xushva nag'masi», «Qora baxshi sozi», «Rajab shoir sozi », «Sarvinoz », «G'aribnoma», «Kelinoyning o'tovga kirishi», «Oxuva», «Safarnoma», «Turg'aynoma», «Jangnoma», «Cho'poncha», «Qo'ng'iroti», «Laqayi», «Laqay yig'lash», «Davra chertish», «Dumbirani sinash kuyi», «Ot choptirish », «Shoto'ra kuyi»,«Omanniyozi jugi kuyi», «Qilich bobo kuyi»,«Alixon kuyi», «Alim baxshi kuyi », «Bekmurod» Soat kuyi», «Hayim baxshi usuli», «Usta Malik kuyi», «Qo'ldosh do'mbirakash kuyi», «Yig'i yuqlov», «Kaklik ovlash», «Bedana sayrash», «Xonimoy».

Izoh: Bu ro'yxat baxshi bilgan do'mbira ohanglarining barchasi emas. Baxshi yuzga yaqin kuy bilishini e'tirof etardi. Ammo ularni maxsus o'rganish, yozib olish bilan hech kim maxsus shug'ullangan emas. . —

Qodir baxshi Rahimov hayoti va ijodi ko'pgina tadqiqotlarda monografiyalar va risolalarda qayd etilgan bo'lib, ulardan ayrimlarini keltirishni lozim topdik:

1. Qahhorov A. Yangi dostonlar T.:FAN, 1985
2. Murodov M. Sarchashmadan tomchilar T.:1982

3. Murodov M. Ergashev A. “Alpomishnoma” 1-kitob T-1999
4. Murodov M. Ergashev A. “Alpomishnoma ”2- kitob T-2000
5. Murodov M. Hakimov N. Ergashev A “Qadriyatnoma” 1-kitob T-2001
6. Ergashev A Janubiy Uzbekiston baxshilari badiiy mahorati: Qarshi, Nasaf 1998
7. Ergashev A. Alpomishni alp bilar, Qarshi Nasaf 1998
8. Ergashev A. Omonova G. Dostonlarda urf odatlar va ayrim qadriyatlar “Nasaf”, 2000
9. Ergashev A. Uzoqov B. Dostonlar odobnoma darsligi “Nasaf” 2004
10. Ergashev A. Xalq ijodining xazinadori, T:-2006
11. Ergashev A.Jumanazarova D. Xalq dostonlari tarbiya qomusi Jizzax 2006
12. Ergashev A. Xalilova D. Yozi bilan Zebo ish dostoni, “Nasaf”, 2000
13. Ergashev A. Jumanazarav U. Xalq pedagogikasi va qadriyatlari.Jizzax 2007
14. Ergashev A. El ardoqlagan baxshi “Nasaf” -2012
15. Ergashev A. Qodir baxshi o'tdi denglar “Nasaf”-2012
16. Ergashev A, Qahhorov Janubiy O'zbekiston dotonchilar shajarasi “Nasaf”-2011
17. Ergashev A. Qashqadaryo Surxandaryo dotonchiligiT.: FAN-2008
18. Utaev O'.O'tayor. Dunyoga tengdosh xazina. T.1975
19. Utaev U “Baxshilar sardori ” “Nasaf”, 1998
20. Yuldoshev B. Nasaf nafasi “Nasaf”1992
21. Ergashev A. Qora baxshi Umirov mahorati T-2008
22. Ergashev A. Ochilov K . Shunqor bolam, huy-yo huy “Nasaf”, 2003
23. Ergashev A. “Xalq Temurnomasi ”, “Nasaf”,2004
24. Ochilov N. “Xalq eposida zamonaviylik” “Nasaf”-2010

25. Ergashev A. “Qodir baxshi termalari” “Nasaf” 2012

26. Ergashev A. Rahimova D. “Qodir baxshi o’gitalari” “Nasaf” 2012

27. Ergashev A. Jumayeva F. “Qodir baxshi Rahimov” “Nasaf” 2012

Izoh: bulardan tashari Qodir baxshi hayoti va ijodi haida 150dan ziyod maqolalar chop etilgan.

Qodir baxshi Rahimov xalq termalarining mohir ijrochisi va badihago’y baxshi shoir ekanligi tubandagi termalar nomida ham ko’rinadi:

1. Do'mbiram.
2. Nima aytay.
3. Na foyda.
4. Ne dersan.
5. Ne yomon.
6. Qolmadi.
7. Bo'lmadi.
8. Bo'lmasin.
9. Ayrilsa.
10. Yigitga.
11. Tabib va giyoh.
12. Ayrilma.
13. Yaxshidir.
14. Ohu voh.
15. Dehonobodsan.
16. Qashqadaryom.
17. Qarshi cho'li.
18. O'zbekistonimsan.
19. Nurli O'zbekiston.
20. Yig'lamagin, onajon.
21. Ziyorat.
22. Bo'zlab kelar.

- 23.Ustozdir.
- 24.Ustozimga
- 25.Qaynarbuloq bulbuli.
- 26.Jambil bilan Abay ikkovi.
- 27.Oy Kamola, Kamola.
- 28.Uttiz ikki turtlik.
- 29.Keladi.
- 30.Yomon qaynona.
- 31.Stilyak.
- 32.Dangasalarga salom.
- 33.Qizmisan yo og'limisan.
- 34.Toshkentim.
- 35.Samarqandim qandimsan.
- 36.Qashqadaryo.
- 37.Vatanim.
- 38.Mehmondir.
- 39.Oy pari.
- 40.Oltmish yoshing muborak.
- 41.Qutlug'lardan qutlug'miz.
- 42.Cho'ponlar.
- 43.Farzandim.
- 44.Teshib chiqdi.
- 45.Olamga tinchlik.
- 46.Moskvada buldim.
- 47.Qardoshlik qabristonidan.
- 48.Mitti masallar.

Izoh: Yuqoridagi termalarni muallifdan biri (A.E) yozib olgani, OAVda e'lon qilingani bois, ularning qay holatda, nima sababdan yaratilganini, tarixini yaxshi bilamiz. Turli yo'llar bilan bizdagi qo'lyozma nusxasidan ko'chirma olib,

gazetadan ko'chirib, Qodir baxshi ijodi, xususan termalari atrofida “afsonalar to'qish” baxshi tirik paytida boshlangan edi. Ammo so'ngi 26 yilda ham ahyonda ro'y berib turibdi. Biz esa hozircha odob yuzasidan o'sha tadqiqotchi, yo jurnalist, yo ijodkor, yo baxshi-shoir nomini e'lon qilmayotirmiz

Bulardan tashqari baxshidan yozib olingan 15 ertakdan oltitasini professor M. Murodov nashr ettirgan, 20 dan ortiq rivoyatlar turli to'plam va risolalarda chop etilgan.

II BOB.Qodir baxshi termalarida ahloqiy qadriyatlar talqini

Qodir baxshi an'anaviy termalarning mohir kuychisi bo'lish bilan birga zamonaviy termalarni mahorat bilan yaratuvchi ijodkor edi. Biz Qodir baxshidan folklorshunos A. Ergashev yozib olgani yoxud ayrimlarini o'zi yozib bergan termalar haqida to'xtalishni lozim topdik.

Qodir baxshi da qo'lyozma tarzida 80ga yaqin termalar, o'ttiz ikkita to'rtlik, uchta sakkizlik yozib olingan va ularning kattagina qismini gazeta jurnallarda A. Ergashev chop ettirgan. An'anaviy termalarning bir qismini baxshining o'zi yozib bergan. Zamonaviy termalarnig ko'pi ijro paytida qog'ozga muhrlangan.

Baxshidan yozib olingan “Do'mbiram”, “nima aytay?”, “Na foyda”, “Ne yomon”, “qolmadi”, “Mehmondir”, “Bo'lmasin”, “Bo'lmaydi”, “Ayrilsa”, “Yigitga”, “Rivoyat”, “Tabib va giyoh”, “Ayrilma”, “Yaxshidir”, “Anglab ol”, “Ohuva”, “So'ng” kabi an'anaviy termalarida odob-axloq mavzusi , baxshichilik san'atini ulug'lash etakchilik qiladi.

Zamonaviy termalarida tug'ilgan zamini, ona yurtni , xalq irodasini madh etish "Dehqonobodsan", "qashqadaryo", "qashqadaryomsan", "qarshi cho'lin cho'l demanglar", "O'zbekiston", "O'zbekistonimsan", "Nurli O'zbekiston", "Oltmish yoshing muborak", "Ziyorat", "Bo'zlab kelar", "Toshkent ona shahrim", "Samarqandim - qandimsan", "Buxoroi sharif", "Vatanim" asarlarida ko'rinadi.

Ustozlar qadri, ularning sifatlari "Ustozimga", "Ustozdir", "qaynarbuloq bulbuli", "Jambul bilan Obay ikov", "Chinor yo Zulfiya opaga" termalarida sharaflansa , chorvadorlar , dehqonlar mehnati, ularning zahmatli mehnati "Suruv-suruv qo'ylaring", "Salom Assalom". "Suvning qadri", "Paxta plani to'lsin" kabi termalrda aks etadi.

Qodir baxshi ijodida hajviy termalar ham kata o'rin egallaydi. Shu o'rinda insondagi salbiy xislatlarni fosh etuvchi : "Stilyak", "Yomon qaynona", "Ymon keliin", "Dangasalarga salom", "Shafyor", "qizmisan yo o'g'ilmisan?". "Sho'ring qurg'ur chiroqlar", "Boshim deb", "qo'ylar shikoyati", "Ishdan qochar", "YUlg'uchlaR", "Obro'yingdan ayrilma", "Aroq", "Teshib chiqdi" termalarini ta'kidlash lozim.

Yoshlik vaqtida yaratgan "Sen benzinimsan", "Yor-yor", "Yorim meni qaratding", "Kelin qizlar kulishaylik" termalarida beg'ubor sevgi taronali xalq qo'shiqlariga hamohang tarzda yangraydi,

"Ona o'giti", "Onajonim yig'lama" termalarida Onaga bo'lgan hurmat e'tibor, e'zoz va ehtirom aks etsa, "Oy Kamola, Kamolaga" yosh boalalarga mehr, "Keladi", "Keltirar" termalari va to'rtliklarda axloqiy falsafiy fikrlar o'z ifodasini topadi.

Baxshining yana sakkiz termasida sho'ro mafkurasining ta'siri, g'oyalari, o'sha tuzum rahbarlari madh etilganki, ularning nomini keltirmadik. Ammo o'sha davrda o'z siyosatini aks ettiruvchi madhu sano tarzida yaratilgan shu termalardan qo'shilmasa hatto an'anaviy termalar ham gazeta-jurnallarda chop eTilmasdi. Shu bois baxshi istamasa ham , biz folklorshunoslar baxshilarni

zamonaviy terma yaratishga undayvergan. Busiz baxshi repertuarida an'anaviy termalar va epos na'munalarini matbuot orqali almashtirish iloji yo'q edi.

Janubiy O'zbekiston xalq og'zaki ijodkorlaridan qora baxshi Umirovning "Suluv ko'rsatar", Chori baxshi o'g'lining "Surxondanman surxondan", Abdimurod baxshi qodri baxshi o'g'lining "Ohuva" nomli termalar majmuasi A. Ergashev tomonidan yozib olib nashrga tayyorlangan va chop etilgan bo'lsa-da, Qodir baxshi termalarini o'rganishda o'zgacharoq yo'l tanlangan.

Ya'ni baxshi mahoratini o'rganishda termalar haqida fikr yuritgan , yuritayotgan ayrim tadqiqotchilar yoxud ziyolilar ma'lum bir terma atrofida tavakkal fikr yuritayotgani uchn, ayrim termalarning yaratilishi jarayoni va sabablarini yoritishga intildik. Chunki ko'proq zamonaviy termalarning dunyoga kelishiga jonli guvoh va yozib oluvchi A. Ergashevning o'zi bo'lgan.

Ayni vaqtda Qodir baxshi bir termani (doston matnini ham) o'n joyda kuylagan bo'lsa o'n xil o'zgarishga uchragan xolda (yo qisqartirib, yo cho'zib, yo termadagi ruhiyatni saqlagan holda matnni yangilab) aytgani o'ta badihago'y baxshi uchun muqarrar bo'lganini e'tirof etiladi. U yodkash baxshi bo'lmaganidan har ijroda yangilanishlar yuz berishini , bu an'anaviy termalarga ham xosligini ""Bo'lmasin termasining quyidagi ikki variantida ham ko'rish mumkin

Ayo do'stlar aql bilan ish qilgin,
Gul deb eksang o'sib tikan bo'lmasin.
Gar g'iybaatchi oshga aytsa tez borgin,
El ishida noming qora bo'lmasin.

Til degani bilsang shirin ham zaxar,
Sen deganman siz deganing farqi bor.
Tilingdan baloga bo'lma giriftor,

Shirin so'zing elga achchiq bo'lmasin.

Agar aytsang o'z labzingdan qaytmagin,
Uyingni behabar qilib ketmagin,
Siringni sinamay do'stga aytmagin,
Do'st deb tutinganing dushman bo'lmasin.

Itga ber, yomonga berma oshingni,
Musht qO'ysa itarma qarindoshingni,
Avlodin bilmayin egam boshingni,
Mard deb brogan kishing nomard bo'lmasin.

Endi shu termaning baxshi davrasida emas, uydaerkin holatda aytgan variantga etibor qilsangiz oradagi farqni, badiha qobiliyatini anglab olasiz.

(2-variant)

Ayo do'stlar aql bilan ish qiling,
Yaxshi deb yurganing yomon bo'lmasin.
Qilar ishni etti o'lchab bir kesgin,
Oltin deb yurganing somn bo'lmsin.

Ulug'ga atagin doim to'ringni,
Hurmat ayla na bo'lsada qaringni.
Sinamayin do'stga aytma siringni,
Do'stim deb yurganing dushman bo'lmasin.

Nomardga to'kmagin ko'zga yoshingni,
Yig'lasangda zaxarlaydi oshingni,
YOmon deb itarma qarindoshingni,
Yomon deb yurganing orqa bo'lmasin.

Bemehnat bo'lmaydi hech joyda hayot,
Bilsang bu dunyoying azaldan sayyod,
Yoshlikdan farzanding ayla tarbiyat
Ishyoqmas dangasa, morqa bo'lmasin.

Egri qib solmagin aslo yo'lingni,
Odobag o'rgatgin ha dam tilingni,
Yig'ishga o'rganma topgan molingni,
Vaqti kelib boshga balo bo'lmasin.

Aslo sotma nomusingni oringni,
O'rtaqa qo'y harna topgan molingni,
Xo'rlamagin sevib olgan yoringni,
O'ttizingda boshing ola bo'lmasin.

Hayotda izlangin aslo tik turma,
Birovning haqini yo'lidan Burma,
Yomonnni yaxshi deb zinxor lof urma,
Yorug'bo'lgan yuzing qaro bo'lmasin.

Biz Qodir baxshi dan ayrim termalarni o'n martagacha goh qo'lyozmada, goh magnitafonda har birida shunday o'zgarishlardan ko'p bor hayratlanganmiz. Ammo haligacha bir baxshi aqalli Qodir baxshi dan bir nomdagi termaning bir necha variantini qiyoslab, eng mukammalini aniqlashga ham imkon topmadik.

Qodir baxshi ning 80-yillardan buyon mashhur bo'lgan zamonaviygina emas, hamma zamonlar uchun ahamiyatini yo'qotmaydigan termalaridan biri "Yig'lamagin, onajon" deb yuritaladi. Respublika oynai jahonida ilk bor

yangragan bu terma taqlid qilib , aksariyat baxshilar “Yig’lamagin ,onajon”, “Ona yig’isi”, “ Ona yig’laganda” kabi nomlarda terma yaratishag urinib ko’rdi, biroq hech qaysi Qodir baxshi dek ma'noli, badiiy yuksak darajada kuylay olmadi.

Ayrim adabiyotshunoslar, shoirlar , jurnalistlar, termaning g’oyaviy maqsadi, yatatilishi, badiiyligi haqida maqolalar yozishga urindi, ammo xatoliklarga yo’l qO’yishdagina eamas, hayoliga kelgan fijrni dalil sifatida o’quvchilarga havola etaverishdi. Shu o’rinda ikkita misol keltirsak(Kitob mualliflari nomini keltirmaslikni lozim topdik)

Birinchisi. “Dunyoga tengdosh xazina”(-T: “Yozuvchi” nashriyoti. 1993) kitobi mualliflari yozadi: “Otasi urushda mardlarcha jon olib jon berayotgan paytda qoraxat kelgan edi. (O’lmay turib ham qoraxat keladimi – D. R.) Endi do’mbira jo’rligida doston, termalar aytishni o’rganayotgan Qodir baxshi mung’ayib qolgan onsiga ilk bor shunday dala bergan edi:

Onajon, qo’y, sadqa bo’lay boshingdan,
Gullar yig’lasa ham sen yig’lamagin.
Posbon bo’lay seni ko’zu qoshingdan,
Cho’llar yig’lasa ham sen yig’lamagin.

Sen yig’lasang ona tog’lar bo’shaydi,
Tosh yurak ham suvday shovshaydi,
Sen yig’lasang qora toshlar qaqshaydi,
Toshlar yig’lasa ham sen yig’lamagin.

Nahotki otasidan qOra xat kelganda olti yoshda bo’lgan bola, ya'ni yosh qodir onasiga shunday dalda bera olgan? Siz ishonasizmi, otani bilmagan, uning mehrini hls etmagan sag’ir bola shunday qUyma misralar bilan onani yupatishiga? Albatta yo’q.

Ikkinchisi. Yirik bir adabiyotshunosning “qashqadaryo bulbuli” maqolasida o’qiymiz: “Baxshi “Tog’lar yig’lasayam sen yig’lamagin onajon” degan termasida o’ziga oq sut bergan onasini ulug’laydi. Terma matnida Dehqonobod farzandi sifatida ko’rkam Oqtosh va Chak-chak baland tog’larini , keng yaylov qo’y qo’zilarini , tiniq buloqsuvlarin madh etib , jo’shib kuylaydi. yuqori ilmiy darajali adabiyotshunos olimning adabiy badiiy tahlili birgina ko’chirmada namoyon bo’layotgan imlo va uslubiy xatolarmmi yo matnni eshitmagan, o’qimagan, mazmunini bilmagan holda bir badiiy asar haqida hayolga kelgan ma'lumotlar berish ? Siz quyiroqda “Yig’lamagin , onajon” termasining asl, to’liq ma'lumot bilan tanishganda javob topishingizga ishonamiz.

Aslida “Yig’lamagin oanjon” termasi O’zbekiston telestudiayasida 1984 yil aprel oyida qiyin qistov bilan yuzaga kelgani haqida folklorshunos A. Ergashev shunday yozadi: “Baxshilarning har bir chiqishi ham to’g’ridan to’g’ri ko’rsatilar, ammo kamida bir kun oldin nima aytish, qaysi dostonidan, qanday o’rinni ijro etish aniqlanar, kuzatilar , ko’rib chiqilar edi. Bu sohada ko’rsatuvni tayyorlovchilar , ayniqsa journalist va adabuiyotshunos O’rol O’taev (u dunyosi obod bo’lsin) va jurnalistu yozuvchi Normurod Norqobilov o’ta hushyor , talabchan edi. Chunki har bir ko’rsatuv sho’roviy mafkura nazoratida bo’lardi. Bu mafkura an’anaviy eposdagi diniy o’rinlarni kuylashga yo’l qo’ymas , baxshilar imkon qadar zamonaviy madhiyabozlikni targ’ib etardi. Ayni shu paytda Qodir baxshi madhiyabozlikdan toliqqan, xalq uning ijrosiadagi an’anaviy dostonlaru termalar uchun ko’proq olqIshlashini, qadrlashini , e’zozlashiani anglab etgandi. Su bois ikkinchi jahon urushidagi g’alaba oldidan tayyorlanayotgan ko’rsatuvda zamonaviy mavzuda terma aytishni bir kun oldin rad etdi. Professor M. Murodov, men, Boborayim baxshi va Husan do’mBbirkashlarning ham zamonaviy teram aytishi haqidagi fikrlariga qo’shilmadi. TElestudiyada ko’rsatuv boshlanishidan avval boshlovchilar zamonaviy mavzudagi (Leninni, yo partiyani, yo SSSRni madh etuvchi) termani

so'rayvergach, do'mbirasini ohista chertib mashq qilib turgan Qodir baxshi
"qo'ymadingizlar, qo'ymadingizlar" deb, do'mbira kuyini bir necha bor
almashtirdi, o'ziga ma'qul kuyni topdi chog'i , chetga chiqib yoniga chaqirdi,
asta-asta, past ovozda kuylay boshladi(biz matnni qog'ozga yozib bordik):

Onajon, qo'y oppoq qorday sochingadan
Gular yig'lasa ham sen yig'lamagin
Posbon bo'lay doim ko'zi qoshingdan
Cho'llar yig'lasa ham sen yig'lamagin.

Otamni eslading bag'ring titilib,
Ko'zda yoshing oqar selday otilib,
Xolsiraysan yurk-bag'ring sitilib,
Qushlar yig'lasa ham sn yig'lamagin.

Sen yig'lasang ona tog'lar bo'shaydi,
Po'lat yurak suvday bo'lib shovshaydi.
Sen yig'lasang qora toshlar qaqshaydi
Toshlar yig'lasa ham sen yig'lamagin.

Otam Vatan uchun to'kkan qonini,
Milion sherlar bilan bergan jonini,
Eshitmasin yorning yig'laganini,
Bahor yig'lasa ham sen yig'l;amagin.

Urush qursaina bitmas yara sob ketdi,
Har yurakda uning dog'i qob ketdi,
Qonxo'rlarni er qa'riga ob ketdi,
Daryo yig'lasa ham sen yig'lamagin.

...Ona joydan turdi sochi eshilib,
Duo qildi ikki qo'lin qo'shirib,
Tinchlik bo'lsin dedi borliq bosh egib
Bog'lar yig'lasa ham sen yig'lamagin.

Onajon sen zamin, sen oyu oftob,
Urush hech qahringa berolmaydi tob,
XalqImiz bor ekan tinchlik barqaror,
Qodir aytar ona, sen yig'lamagin.

Ana shu terma ko'rsatuv boshlanishiga o'n minutlar qOlganda do'mbiraning xazin ohanglari asosida yaratildi va ko'rsatuvdan so'ng favqulotda keng shuhrat topdi. Ikkinchi jahon urushida farzandi, eri xalok bo'lgan onalar hali bor edi. Ayni shu paytda bemaqsad, bemani tarzda avg'on urushida xalok bo'lganlar tobuti oqimi to'xtovsiz kelib turgandi.

Ko'z o'ngimizda, qIstovlar bilan bo'lsa-da to'qilagan bu terma , telekaran orqali millionlar qalbiga etib bordi. Urush judoligi, jafosi, jabrini o'z boshidan kechirgan onaizorning ko'z yoshlarini ko'p kuzatgan afg'on urishi oqibatlariniko'rib turgan baxshi bu termani o'ta tinchliksevarlik ruhi bilan , samimiy yuraklarni sel qilib eritadigan darajada ijro etgani bois butun Markaziy Osiyo respublikalaridan ko'rsatuv haqida, baxshi mahorati to'g'risida muxlisalr xati oqib kela boshladi. Xat mualliflarining aksariyati farzandidan , eri, aka-ukasidan ajralgan, urush kulfatlarini boshdan kechirganlardan edi. "...Siz va onangiz baxtiryor ekan, - deb yozadi Tojikiston respublikasining tog'li Badaxshonidan Xalima islml bir ona. Chunki onangizning suyanch, yupanch bo'ladigan el ardoqlagan sizday o'g'li bor... Mening esa yakka-yu yagona o'g'lim , isu chirog'imning egasi Azamatjonim afg'on urushida vafot etdi. Men uni yoshlikdan otasiz o'stirgan , xalokatga uchrab yosh ketgan otasidan yolg'iz

yodgorim sifatida ne-ne umidlar bilan voyaga etkizgan edim. Kelin olaman, nevara ko'raman degan orzu-umidlarim ham barbod bo'ldi. qodirjon, menga kim tasalli beradi, kim onajonim deb yupatadi, kim o'ligimga ega bo'ladi?..."

Bunday xatlar ko'p keldi. "Yig'lamagin, onajon" termasi haqidagi yolg'on bashoratlarni ko'p bo'ldi. Biz termanni ilmiy badiiy tahlil qilish niyatidan chekingan holda, uning qachon, qay vaziyatda, qaysi maqsadda yaratilgani haqida afsonalarga chek qo'yib, haqiqatni aytmoqchi edik xolos.

O'zbek dostonchiligida biror bir baxshi-shoir yo'qki, Vatan haqida jo'shib toshib kuylamagan, qo'shiq aytmagan bo'lsin. Qodir baxshi ham ana shunday Vatanini sajdagoh bilib, bor iste'dodi, iqtidori bilan kuylagan, uning muhabbatini qon qoniga singdirib yuborgan baxshilarimizdan bir edi. Qodir baxshi ilohiy tuyg'ular bilan Vatan, millat muhabbatini haqida qo'shiq boshladimi, qandaydir sehrli olamga kirardi, o'zini yon atrofidagi muxlislarni, borliqni unutardi... Ko'z oldingizga Vatanning jonli timsolini keltirardi, qo'yardi: osmon o'par tog'lar, hamisha uyg'oq qoyalar, bepoyon dashtu dalalar, qir-adirlar, ular bag'ridagi g'allazoru, sholizorlar, bog'i rog'lar, ufqi quyosh bilan tutashib ketgan yaylavlarda yayrab yashnab o'tlab yurgan qo'y-qo'zilar, bamisolli zaminni tashlab, osmonga uchmoqqa shay turgan ot-yilqilar, osmonu falakka emin-erkin parvoz qilib yurgan parrandayu darrandalar...zavq-shavq bilan kuylanardi.

Qodir baxshi uchun Vatan o'z oilasi, tug'ilib o'sgan Chalka, unga tutashib ketgan Sarg'ay ota tog'laridan boshlanar, so'ng Dehqonobod, qashqadaryoyu Surxondaryo, xatto butun O'zbekiston qadar kenglik, shu kenglikdagi zaminu osmon, shu oradagi eng kichik maysalardan ming yillik archalargacha, chunolidan sayroqi qushlaru hayvonot dunyosigacha bo'lib, bu hududning barchasi, shu xududdagi jonivorlaru yaratuvchi xalq aziz, qadrdon, e'zozli va tabarruk edi. Baxshi Vaatan deb anglagan shu muqaddas hududni alohida e'zozlar edi.

1976 yilning yozi. Biz folklorshunos M. Murodov, A. Ergashev bilan kunduzi Dehqonobod tumanidagi mehmonxonada bo'lib, baxshi bilan (o'zga baxshilar bilan ham) ishlar, dostonlar, termalar, qo'shiqlar, afsona va rivoaytlarni qog'ozga tushirar, kechqurunlari kunduzi shosha-pisha yozganlarimizni ko'chirish, guruhlash bilan band bo'lardik. Bir kuni Qodir baxshi ertalabdan birga bo'ldi. Yotoqda choy qilamiz desak, chuchuk suv tugab qolibdi. (O'sha vaqt Dehqonobod tumani markazida chuchuk suv oqmas, odamlar suvni uzoqdan keltirib, hovuzga quydirib ichardi). Shu bahona bo'ladi-yu, M. Murodov "Qodir baxshi, suv topilmagan bunday joyni bir tanqid qilib terma to'qing", deydi. Hamishagidek, baxshi xo'p deydiyu, birgalikda ishni davom ettiradi. Ammo ertasi kuni Qodir baxshi kelishi bilan: "Aytganlaringizni bajardim, Dehqonobod haqida terma to'qidim, aytaymi?" , deb aytishni boshladi:

Tilga olsam sening nomingni,
qalbim jo'shgan, Dehqonobodsan.
Ko'rganimda oy jamolingni,
Ilhom toshgan Dehqonobodsan.

Tarixingni aytsam bir doston,
Kundan kunga yashnagan bo'ston,
Bahor yozing doim guliston,
qadam bosgan Dehqonobodsan.

To'n yopganda qabatma qabat,
Dehqon seni qilganda obod,
Sharbatlaring misoli nabot,
Olg'a yurgan, Dehqonobodsan.

Bir gul o'zing bu ona erga,
quchoq ochib chiqqanday qirga,
Yulduzlardan taqqansan sirg'a,
Kuchi toshgan, Dehqonobodsan.

Bir tomonda bog'i rog'laring,
Bir tomonda yuksak tog'laring,
Tovlanadi ol chirog'laring,
Ko'z qamshgan, Dehqonobodsan.

Bulbul sayrar chenga she'r yozib,
Oltin topar eringni qazib,
Boyliklaring ko'ksingdan uzib,
Elga bergan Dehqonobodsan.

TArvuzlaring yal-yal yonadi,
Qovunlaring tilni yoradi,
Gullaringdan bolni oladi,
Sharbat toshgan, Dehqonobodsan.

Uzumlaring shoda misoldir,
Mevalaring qandu asaldir,
RA'no gullar yuzingda xoldir,
Chiroy ochgan, Dehqonobodsan.

Xavolaring dard davosiday,
Qo'yu qo'zing ko'k yulduziday,
Ma'rashganda shoir sozidan,
Kuyga to'lgan, Dehqonobodsan.

Kaklik sayrar keng tog'laringda,
Zilol suvlar buloqlaringda,
Mehnatdan gul yanoqlaringda,
Bahring ochgan , Dehqonobodsan.

qodir, senu jo'shib aytarman,
Zavqqa to'lib toshib aytarman,
Oydan nishon, quyoshdan orden,
Taqib olgan, Dehqonobodsan.

Bu shoirnig olimlar haziliga rosmana javobi edi. "Shoir o'z yurtini yomonlasa, shoir emas, u tug'ilgan joyini, o'sgan, kamol topgan elini olqIshlamasa, sharaflamasa, gunohi azimdir. Mening shunday go'zal, bebaho yurtim bor", deya g'urur bilan qo'shib qo'ydi baxshi. Bunga tan bermaslik, shoir baxshining vatanparvarligiga qoyil qolmaslik mumkin emas edi.

Qodir baxshi ning "qashqadaryo". "qarshi cho'li", "qashqadaryom", "O'zbekistonim", "Nurli O'zbekiston", "Vatanim" termalari aynan Vatanga qasida sifatida yuksak ovoz bilan ayng'raydi. Bu termalar matbuotda chop etildi, tinglovchilar qalbiga etib bordi. Ammo ularning barchasi ma;lum bir turtkidan so'ng doimo badiha yo'li bilan yaratilgan.

Qodir baxshi ning "qarshi cho'li" termasining yaratilishi haqida o'g'li Abdiqahhor baxshi quyidagi voqeani hikoya qilib berdi: "qashqadaryo viloyating sobiq rahbari Qodir baxshi ni juda ham hurmatlar, viloyat miqyosdagi yig'inlar, qurultoylarga olib keltirib, termalar, dostonlardan parchalar aytirardi. Uyiga Xorazmdan mehmonlar kelganda chorlatib, "Kuntug'mish" va "Go'ro'g'li" dostonlarini tinglashdan zavqlanardi. qashqadaryo viloyati 1980 yilgi paxta rejasining bajarilishiga bag'ishlangan yalpi yig'ilishga Qodir baxshi ni ham chaqirtiradi. Xuzuriga kirgan baxshiga: "qodirjon senga uch soat ruxsat,

mening “Volga”mda qarshi cho’lini imkoni boricha aylanib kel. Ta’surotlaringni yig’inda zo’r bir terma qilib aytasan”, deb baxshini mashina haydovchisiga tayinlab jo’natibdi. Kecha to’yda tongacha xizmat qilib charchagan qodir “Volga”ning orqa o’rindig’iga o’tirib, yumshoqqina joy emasmi, uyquga ketibdi. Xaydovchi ham oynadan bir ikki qarab, menga nima deb, cho’lning borgann joyiga borib, bormagan joyiga bormay, uch soatni o’tkazib qaytib kelibdi. qarasa baxshi hamon uxlab yotganmish. Haydovchi achchiqlanib : “Sizda o’zi insof bormi, tushing mashinadan, qaytib keldik”, deb siltab uyg’otibdi. Baxshi voqeani tushunib: “Raxmat og’am, zo’r kansiz, yashang”, deb do’mbirani ko’tarib kirib borsa, majlisxonada yozgan yozib, chizgan chizib yotganmish. Shunda minbar atrofida yurgan kishi “Keling, qodir aka, vaqtida keldingiz, yana besh minutdan so’ng oshlanadi”, deb tayyorgarlikni davom ettiribdi. Baxshi besh daqiqani eshitib, bir narsadan tilning tagiga tashlab olibdida o’rindiqqa o’tib, do’mbirani qo’lga ushlab “Nimalarni aytsam ekan?”, deb sozini sozlay boshlabdi. Shu vaqt rahbar birdan baxshiga navbat berdiribdi.

Qodir baxshi davraga chiqib, “qarshi cho’lin cho’l demanglar yoronlar” termasini boshlab yuboribdi:

Qarshi cho’lin cho’l demanglar yoronlar,
Bulut quchgan ko’llari bor bu cho’lning
Uyum-uyum qum demanglar yoronlar,
Quchoq-quchoq gullari bor bu cho’lning.

Bunday o’lka yotsang tushga kirmaydi,
Bir ko’rganning hech ketgisi kelmaydi,
Yulduzlar termular nari jilmaydi,
Koshonadan uylari bor bu cho’lning.

Yigitlari border Farxod misoli,

Qizlari bor go'zallarnig go'zali,
Paykalidan tomar qandu asali,
Shoxsuvorday sherlari bor bu cho'lining.

Bir yoqda sharbati, bir yoqqa shoni,
Bir yoqda oltinu bir yoqda doni,
Lazzatlarga makon, javohir koni,
Ko'zga surtar erlari bor bu cho'lining.

Yaratgan nazari tushgan bu cho'lga,
Dehqonning mehnati singan bu cho'lga,
Davlat qushi kelib qo'ngan bu cho'lga,
Dong'u ketgan dovrug'i bor bu cho'lining.

G'o'zasiga tuya so'yib osguday,
Bir chanog'i bir tonnani bosguday,
Xirmonidan o'tolmay osh shoshguday,
Jahon aro rekordi bor bu cho'lining.

Elboshidir bugun xalqning yo'ldoshi,
Porlay verar bunda tole quyoshi,
Shuningchun egilmas qodirning boshi,
Dostonlardan darg'asi bor bu cho'lining.

Qarshi cho'lini o'zlashtirish, bog'-bo'stonga aylantirishga xizmat singan viloyat rahbari qarshi cho'lini sharaflagan baxshidan, baxshini "yaxshilab" aylantirib kelgan haydovchisidan juda minnatdor bo'lib, qarsakni boshlabdi. Unga qo'shilib boshqalar ham baxshini rosa olqishlabdi. Baxshi ham o'z navbatida yig'indan chiqib miriqib dam oldirib kelgan haydovchiga duch

kelibdi-da: “yashang og’am, mehnatingiz behuda ketmadi”, deb tashakkur bildiribdi. Ana shu tariqa yangi bir terma yuzaga kelgan ekan.

Qashqadaryolik mashhur folklorshunos, Qodir baxshi ni ilk bor nashr etgan va ijodini teran tadqiq qilgan Abdimo’min qahhorov 1979 yilda baxshidan qashqadaryom termasini magnitafon tasmasiga yozib oladi va keyinroq gazeta ham chop ettiradi. Domla e’lon qilgan “qashqadaryom” matni quyidagicha.

Cho’llaring chiroy ochdi, kelinchakday shaylanib,
Oq oltindan xirmoning – turna o’tolmas aylanib.
Kemaganlar keb ko’rsa – barmoq tishlar o’ylanib,
Shoir aytsa aytguday, ming kechaga etguday.
Go’zal qashqadaryom, g’azal qashqadaryom!...
Bir tomonda qashqang bor- toblanar suluv qizday,
Qarshi bilan Shahrisabz kechasiyam kunduzday,
Kitob bilan G’uzoring – osmondagi yulduzday,
Shoir aytsa aytguday, ming kechaga etguday.
Go’zal qashqadaryom, g’azal qashqadaryom!...
Bir tomonda tog’laring, bir tomonda bog’laring,
Bir tomonda uylaring, bir tomonda sherlaring,
Bir tomonda qo’ylaring, bir tomonda yayloving,
Shoir aytsa aytguday, ming kechaga etguday.
Go’zal qashqadaryom, g’azal qashqadaryom!...

Oradan ikki yil o’tib, “Qashqadaryom” termasini yana bir marta quyidagi tarzda A. Ergashev yozib olishga to’g’ri kelgan:

Go’zal qashqadaryom,
Xushxol qashqadaryom,
Shoir aytsa aytguday,

G'azal qashqadaryom.

Bir tomonga qarasam,
Katta kata tog'laring,
Bir tomonga qarasam,
Shoda shod abog'laring.

Tog' boshida oppoq qor,
Tinmay sog'ar sutini,
Bir tomonda qashqang bor,
Qamchilaydi otini.

Bir tomonga qarasam,
Ko'm-ko'k bo'lgan dalalar.
Har go'shangda o'ynaydi,
Baxti kulgan bolalar.

Yigitlaring bahodir,
Tog' bag'rini bukadi,
Qizlaring shijoatkor,
Cho'ldan oltin to'kadi.

Jilov bilmas Jayxuning,
Cho'lga burding yo'lini,
Kelindayin yashnatding,
Qovjiragan cho'lini.

Qush ucholmas joylaring,
Rayxon gullar terasan,

Tushga kirmas yobondan,
Tog'day oltin uyan.

Tarvuzlaring uzganda,
O'n besh odam ortolmas,
Uch qovuning biriksa,
Bir traktro tortolmas.

Qabatingda do'stlaring,
Goh o'rgatib, o'rganar,
Yurtim tarovatingdan,
quyosh chiqmay tong otar.

Har kecha sho'xi navo,
Farzandlaring uyg'otar,
Shogirdi ustoziga,
Bu o'lkada o'rgatar.

Ko'rgan kishi ketolmas,
Bo'ston qashqadaryom,
Shoir yozsa yozguday,
Dston qashqadaryom.

Bu termaning qayta aytilishi va yozib olishga quyidagi voqea sabab bo'ldi:

1981 yil sentyabrning boshlari. qo'shni Tojikiston Respublikasida o'zbek adabiyoti va san'ati kunlarini o'tkazib qaytayotgan san'atkorlar, adiblar, shoirlar bir muddat Dehqonobodda to'xtab tushlik qilishini lozim topishadi. Ular safiada taniqli ijodkorlar: Sarvar Azimov, Zulfiya, Mirmuxsin, Erkin Vohidov,

Abdulla Oripov, Nazarmat va boshqalar bor edi. Adabiyot va san'at namoyondalarining Dehqonobodda to'xtashini bilgan tuman partiya o'mitasining ikkinchi kotibi Salim Alimov Qodir baxshi ni aytirib keltiradi. Davra ayni qizigan paytda Salim aka: "Sarvar Olimjonovich, bizda bir baxshi bor, eshitib ko'rmaysizlarmi?", deb Qodir baxshi ni tanishtirdi. Xalq og'zaki ijodining yaxshi bilimdoni. Bolaligida Fozil shoirdek dostonchilarni ko'p bor tinglagan taniqli adib, dramaturg va adabiyotshunos, o'sha vaqtda Respublika yozuvchilar uyushmasi raisi S. Azimov bu taklifni xursandchilik bilan ma'qullaydi. Davraning quyirog'ida o'tirgan Qodir baxshi do'birani qo'lga olib, mehmonlarga salom berib, bir sho'x kuyni ijro etgach, "qashqadaryo" termasini boshlaydi. Termaning uchinchi bandi o'ta ko'tarinkilik bilan ijro etilganda, davraning to'rida o'tirgan xalq shoirasi Zulfiya yana qaytarishni so'raydi:

Tog' boshida oppoq qor
Tnmay sog'ar sutini
Bir tomonda qashqang bor,
Qamchilaydi otini.

Barcha hayrat bilan qashqadaryo tarifini tinglagach, ZULfiya yuqoridagi satrlarni takrorlab: "qoyil baxshi, oltmish yil ijod qilib, bunday mukammal tasvirni uchratmagandim", deya yuksak baho berdi, yana baxshini aytirishaverdi. Ertasi kuni viloyat markazi qarshidagi Yozuvchilar uyushmasinig ko'chma majlisida hali hech qanday kitobi chiqmagan bo'lsa-da, o'sha vaqtdagi an'anaga zid holda Qodir baxshi Rahim o'g'li Yozuvchilar uyushmasi a'zoliciga qabul qilinadi. Uyushmaga a'zo bo'lish uchun esa Zulfiya, Mirmuxsin, nazarmat tavsiyanoma berishadi.

Folklorshunos A. Ergashev yozadi: "Biz esa ko'p vaqt Zulfiyadek zukko, iqtidorli xalq shoirasining Qodir baxshi ga uning "qashqadaryo" termasidagi to'rt satrga bergan bahosini uzoq o'yladik, uning sababini izladik. Axir su to'rt

satrda biz anglamagan ulug'lik, badiiyat boridiki, u Zulfiyadek shoiraning nazariga tushgan-da... Ha, mushohada qilib ko'rsak, baxshi mahorati namoyon bo'ladi. Tog'! Uning yon bag'ri ko'kalamzor, quyiyoqda hatto zafaronlik. Lekin cho'qqilarda oppoq qor. Cho'qqi bitta emas, bir nechta. Nigohimiz bir yo'la o'sha cho'qqining nechtasini ilg'aydi, ikkita, uchta, to'rtta, beshta. Lekin o'nda emas, o'sha cho'qqilardan qor erib, jilg'alardan soy hosil qiladi, shu jilg'alardan hosil bo'lgan soyni kuzatganmisiz? Kuzating, o'shanda suv rangsiz emasligi, toshdan toshga sakrab oqayotgan o'zga manzarani ko'z o'ngingizga keltiring. Ya'ni sog'in sigir, xayoldan sigirning elinini teskari qilib, tasavvurga erk beringchi? Endi sizga tanish tog' va uning to'rt cho'qqisi namoyon bo'layotirmi. Sigir elinidan sog'ilayotgan, ya'ni to'rt jilg'adan kelayotgan sutdan, uning chelakka quyilishidn soy hosil bo'lyapti. qiyoslashni davom etamiz. Sut hayot manbai, yashash omili. Suv ham tiriklikning asosi. Na suvsiz, na sutsiz inson yashay oladi. Sut emgan inson (hayvonlar) sog'lom, baquvvat bo'lib voyaga etadi. Toza suv ham insonga emas, dala dashtlarga, cho'l biyobonlarga, barcha jonli mavjudotlaru, o'simliklar dunyosiga hayot bag'ishlaydi. Qodir baxshi mahorati shundaki, aytaylik, u "tog'dagi qor tinmay, erib suv bo'lar" demay, "Tog' boshida oppoq qor, tinmay yog'ar sutini" deydi. Ammo bu jumla shundaygina fikrda jonlanavermaydi. Buning uchun baxshi xayolida o'zi ko'rgan voqealar, hodisalar yashin chaqnagandek jonlangan, umumlashgan va xulosaga olib kelgan. Biz ham keyin esladik, 1969 yil iyildagi folklor-etnografik ekspeditsiyasi davrida Tojikistonning Xo'ja Obigarim degan joyida toqqa chiqqan paytida baxshi bilan qorning erishini, jim-jim oqayotgan suvning soyga har jilg'adan quyilishini va suvning ko'piklanib oq rangda shiddat bilan ilg'arilishini kuzatgan edik. Ayni damda baxshi chorvador xalq orasida, tog' etagida yashaganidan endi erigan qorning oqishini ham, sigirning sog'ilishini ham kuzatgan. Kuzatgangina emas, yozgan jazirasida tog'dan erib tushayotgan suv bilan aytishgan, sirlashgan, asta sekin oqligini yo'qotib, rangsizlanganidan hayratlangani rost, ammo yoshligida qo'y ham, echki ham,

sigir ham soqqan. Xuddi shu xayolda mahkam o'rnashgan ikki holat bir fikr sifatida "Tog' boshida oppq qor, tinmay yog'ar sutini" tarzid ado'mbirani qo'lga olgach, momaqldiroqday guldirab, yashindek caqnab tilga quyilgan. Keyingi ikki satr – "Bir tomonda qashqang bor, qamchilaydi otini" ham dastlabki fikr davomi. O'sha shoshqin soylardan qashqadaryo hosil bo'ldi, daryo suvi yanada shiddatliroq. Yo'q suv emas, balki sut – u! U -hayot, u –najat, u – butun mavjudotning yashash asosi. Shu bois tez oqmasa, tezroq insonga , beadam qarshi cho'liga , qanchadan-qancha o'simligu giyohlarga, parrandayu darrandalarga xizmat qilmoq uchun "Otini qamchilamasa" bo'lmaydi. Yana bir eslab qo'yaylik, sog'ilgan sut saqlanadimi? Yo'q, uni ma'lum muddat saqlash uchun ham, istemol uchun ham tezroq pishirish kerak. Daryodagi suv sokin turaveradimi? Aslo! Achingan sut zararli va oqmagan suv. Bir joyga singavergna suvning ne oqibatga olib kelishini tasavvur qilish qiyin emas".

Ehtimol, dunyoga tanilgan shoira Zulfiya ongida ham bir yo'la biz aytgan , balki undan-da ko'proq, mazmunliroq o'y-kechinmalar o'tgandirki , shu satrlar uchun baxshini quchib, qutlagandir, o'z yurtining manzarasidagi birgina deatalni yuksak badiiylilikda ifodalay olgani bois uni YOzuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lish uchun fidoiylilik ko'rsatilgandir.

Biz Qodir baxshi yaratgan, ijro etgan uchta "qashqadaryo" teramsidan birining birgina bandi haqida to'xtaldik, xalos. Aslida u tug'ilgan qishlog'nini, tumanini ham , yashagan viloyatini, jonajon ona sutidek pokiza, ota tuzidek muqaddas, tabarruk O'zbekidtonning ham otashin kuychisi bo'lib har qaysisini jannatning bir obo'lagi deb bildi, jannatdek qadrladi, ulug'ladi. Butun umrini ertadan shomgacha, shomddan tonggacha shu yurtda yashovchilar uchun , xalq uchun bag'ishladi.

Baxshi zamonaviy termalarini huda-behuda to'qiyvermas, yuragi to'lib kelmasa , do'mbira ohanglarga solib hayqirmasdi. U "Toshkentim", "Samarqandim-qandimsan", "Mening Surxondaryom", "O'zbekistonimsan-Vatanim", "Oralasam bo'stonim-nurli O'zbekistonim" kabi termalarida yurt

go'zalligini, kelajagini yonib kuyladi. Zamon shunday ediki, asrlar silsilasida davrlar bo'ronidan o'tib kelgan an'anaviy termalar matbuotda choop etilmas , radio va oynai jahondan berilmasdi. Baxshining ijodi xalqqa tanilib boorish uchun sho'ro tuzumi mavzularidagi asarlarni yaratishga undash lozim edi. Biz shunday paytlarda Qodir baxshi dan vatanparvarlik ruhida termalarni undirib qOlganmiz. 1977 yilda "O'zbekistonimsan", 1982 yilda "Nurli O'zbekistonim" termalari yaratildi. Bu ikki terma ona diyorimiz haqida ikki madhiya sifatida xotira bo'lib qoldi.

Mana O'zbekistonimsan termasida yurtni sharaflash qanchalik tabiiyligiga , o'sha davr mafkurasidan xoli, samimiyligiga e'tibor bering.

Olamga tanilgan oltinistonsan,
O'zbekistonimsan sharafl-shonli.
Ona Vatanimda bir gulistonsan,
O'zbekistonimsan, bog'im-bahorim.

Ota-bobolarga rizq bergan Vatan,
Suv desa suv berding, non deganda non.
Boyliklar maskani bo'lgan ey maskan,
O'zbekistonimsan, baxtim, sururim.

Bo'stonlardan a'lo o'zing bir bo'ston,
Bir kunlik himmating bo'lar bir doston.
Osmonga tiralgan, oltinlarga kon,
O'zbekistonimsan, baxtim, g'ururim.

BAG'ringda pahlavon shunqorlaring bor,
BARisi bunyodkor, barisi zargar.
O'g'il-qizlaringga kamdir ming hunar,

O'zbekistonimsan, aziz padarim.

Bir yog'ingda Amu, bir yog'ingda Sir,
Tomchi suvlarida brdir mingta sir.
Toshkenting ko'ksingda oliy nishondir,
O'zbekistonimsan, ko'zim qarog'im.

Turlasam ming turdan oshar boyliging,
Sharqda mash'alliging, yorqin oyliging.
Mehnat shon-shuhrati, bu chiroyliging,
O'zbekistonimsan, bag'rim, makonim.

Cho'llaring uyqudan uyg'ondi bu kun,
Gul-u gulistonga aylandi durkun.
Atlasga o'ralgan tog'laring butun,
O'zbekistonimsan, bog'im, humorim.

Qoshingda saf tortgan do'stu yo'ldoshing,
Ozodlik nur bergan mangu quyoshing.
Shunigchun osmonga etgudek boshing,
O'zbekistonimsan, sherim, polvonim.

Shoirlar madhingga g'azal to'qiydi,
Baxshilar soz chalib doston to'qiydi.
Farzanding qodir ham seni olqiydi,
O'zbekistonimsan, manim bo'stonim.

Baxshi “olamga tanilgan oltiniston”, “bir kunlik himmati bo’lgan ming doston” yurtini -“ko’zim”, “qarog’im”, “bog’im-bahorim”, “aziz padarim”, “mangu bo’stonim”, deya faxr iftixor tuyg’usini yurakka tuyadi.

“Qo’lga olay sozimni, Hadya bo’lsin g’azalim. Tuproqlaring hildasam, hidi guldari mazali, onadek mehriboni, taqdiri azali” bo’lgan O’zbekistonni sevish, qadrlash, uning istiqlolini ko’ra bilish Qodir baxshi ning kishini hayratga soluvchi bashoratlaridan edi:

...Sher yurak o’g’lonlaring,
Qizlaring oy misoli,
MEhmon kelsa uyiga,
Suzgan oshi mazali.
Bog’larining mevasi,
Asallarning asali,
Oralasam bo’stonim,
Aytaversam dostonim,
Istiqloling muborak,
Mening O’zbekistonim.

Cho’llaring chiroy ochdi,
Kelinchakday shaylanib,
Oq oltindan xirmoning,
Qush o’tolmas aylanib.
Kelmaganlar keb ko’rsa,
Barmoq tishlar o’ylanib,
Oralasam bo’stonim,
Ayta versam dostonim,
Nurli kunlar muborak,
Mening O’zbekistonim.

Surxon bilan qashqang bor,
Tovlanar suluv qizday,
Andijonu Farg'onang,
Nurin sochgan yulduzday,
Samarqandu Buxoro,
Kechasi ham kunduzday,
Oralasam bo'stonim,
Aytaversam dostonim,
Istiqloling muborak,
Nurli O'zbekistonim.

Qavatingda qardoshlar,
Qadding tikka samoda,
Jahon seni biladi,
Noming doston dunyoda,
Ona yurtim, bo'stonim,
Yana ham bo'l ziyoda ,
Aytsam bitmas dostonim,
Sajdagoh gulistonim,
Nurli kunlar uborak,
Mening O'zbekistonim.

Ha, Qodir baxshi uchun O'zbekiston sajdagoh edi. Uning Chalka deb atalgan mo'jizgina qishlog'ining bir siqim tuprog'idan boshlab butun hududgacha baxshiga aziz va mukarram bo'lganiga u yaratgan termalar guvoh. Qodir baxshi dostonlarida , termalarida jannatmakon Vatanimizning kelajagi, buguni va ertasi o'ziga xos yuksak extiros bilan kuylandi.

O'zini tanitgan, mashhur qilgan ona yurtini, yaratuvchi xalqini kuylash umrining mag'zi, mazmuni bo'lib qoldi. Mo'jazgina Chalka qishlog'i ham kuychisi bilan buyuklashib, olamga tanila bordi. Bu ajab qishloq o'z kuychisi bois minglab mehmonlarni qabul qildi va mehr bilan kuzatdi.

Rivoyat. Dehqonobod tumanining Oqrabot qishlog'idan bir baxshi shaxrisabzlik do'mbirakashning do'mbirasi dovrug'ini eshitib, uni sotib olmoqchi bo'libdi. Bor bisotidagi qo'y va serkalarini pullab, Shahrissabzga boribdi. Do'mbirakash, do'mbirasini sotmay, agar chalishda undan o'tkazib yuborsa, do'mbirasini tekinga berishligini aytibdi.

Baxshi do'mbirani chunonam soz chalibdiki, uni shitib bog'lardagi qushlar ham sayrashdan to'xtab qolibdi. Do'mbirakash qoyil qolib:

-Qoyillatding, inim. Ol, do'mbira seniki bo'la qOlsin,-debdi. Baxshi do'mbirani olib o'z qishlog'iga qaytib kelibdi.

Qishloq chetidagi karvon yo'l bo'yida baland tepalik bor ekan. Baxshi qo'ylarini qirga yoyib, o'zi tepalikka chiqib, do'mbirani sayrata beribdi. Shu payt yonidan o'tayotgan tuyalar do'mbira kuyiga erib, birin-ketin yurshdan to'xtay boshlabdi. Karvonboshi o'z eshagi yurmay qOlgani ko'rib orqasiga qarasa, tuyalari asta-sekin cho'kkilayotgan emish. Karvonboshi hayron bo'libdi. Keyin "Shu baxshida bir gap bor-ku-ya", deb unga qarab qichqiribdi:

-Hoy baxshi, do'mbirangni to'xtat, tuyalarim yurmay cho'kkilab oldi! – Baxshi uni eshitmay chalishda davom etaveribdi. Karvonboshi yana qichqiribdi. Baxshining e'tibor bermay do'mbira chertishini ko'rib, karvonboshi: "quv yog'ochni quvratmay qo'llaring quvrab qolsin, ilohim!" deb qarg'abdi. Baxshining qo'llari shu zahotiyuq quvrab qolibdi.

Bu bir rivoyat. Ammo unda do'mbira ohanglarining sehrli kuchi ham, qarg'ishdagi yomon ruhiy qudrat ham aks etgan. Aytishlaricha tuyalarni to'xtatgan baxshi ham Qodir baxshi ajdodlaridan biri ekan.

O'zbek folklorshunosligida "Do'mbira" termasi eng ko'p yozib olingan va tahlil qilingan. Bir nombilan atalsada ularning har biri mustaqil asardir. Shu

bois fikrimizni Qodir baxshi ijodidan yozib olingan “Do’mbiram” termasiga qaratamiz.

Seni chertsam ko’nglim gulday yayraydi
Bulbuldayin sayrab chiqqin, do’mbiram.
Qo’shsha toring qO’shilganda sayraydi,
Ko’ksing ochib yayrab chiqqin, do’mbiram.

Qahramonni ko’rganingda maqtaysan,
Dangasaga duch kelganda to’xtaysan.
Ohanglarga, o’zing, kuylarga boysan,
Tovushingni soz chiqargin, do’mbiram.

Maqtay-maqtay qo’rqog’ini mard qilgan,
To’rtta-to’rtta eshagini ot qilgan.
Chertabersam el ko’nglini shod qilgan
Mayin tordan noz chiqargin, do’mbiram.

Qo’shsha toring bir-biriga eshilar,
Tovushingga qush bulbullar qo’shilar,
Suhbatlaring har kechada soz o’tar
Bo’lsa qishdan yoz chiqargin, do’mbiram.

Sozlar bilan sen hamisha barobar
Sen kirgan xonada suhbat, kulgi bor.
O’zing chertib, qodir bo’ldi baxtiyor,
Ozod yurtda qanot qoqqin , do’mbiram.

Bu Qodir baxshi ng boshqa baxshilar singari do'mbiraga yaxlit bergan ta;riifi. Aslida baxshilar har bir davrada do'mbiraga ozmi-ko'pmi murojaat qiladi, o'z sozi bilan kelishib, sirlashib oladi. Soz qo'lida ko'nglidagiday sayrab tursa ko'ngli yayrab aytadi. Ular hech qachon do'mbira ohanglarining taralishi mening ruhiyatimga bog'liq degan xulosaga kelmaydi, balki do'mbiraning nosozligi, chidamsizligi, yasalgan tur yog'ochning nopokligi, yoki xarrak (eshak) yoxud torning nosozligi kayfiyatimni buzdi, ilhomimni bug'di deb o'ylashadi. Bu sozni ilohiy deb bilishdan. Shu bois har qachon davralarda aytishishga kirishish epik asarni boshlash oldidan, albatta do'mbira bilan maslahatlashadi, kengashadi. Ammo afsuski, xali folklorshunoslarimiz "Do'mbira" termasini qanchalik ko'p o'rgangan bo'lsa, to'ylar tomoshalar, bayramlar, sayllar, davralardagi va ma'lum dostonlar qatidagi do'mbiarm termasini shu qadar o'rganib, tadqiq va tahlil etgan emas.

Qodir baxshi ham har bir davrada, har bir doston matnida do'mbiraga murojaat etardi. Shulardan ikkitasiga qisman to'xtalsak. Bu haqda M. Murodov va A. Ergashev fikrlarini tinglaylik: "1983 yil, aprel oyi. Dehqonobodning Oqmachit qishlog'ida Ismoil Mahmudov ismli chavandoz yigit to'yga bormoqda. Ko'pkarida besh yuzdan oshiq chavandoz ot surmoqda. Hamma chavandozlar mahoratiga maxliyo bo'lishgan. BIR payt davramizga kirib kelgan o'rta yashar odam so'rashib: "qodirjon, ko'pkari ham bo'laveradi. O'z oyog'ingiz bilan kelibsiz. Sizni to'yda bo'ladi, deb eshitib kecha Tojikistondan kelganman. Kechadan buyon kutypapman. Hozir bakovul Kenja Xoliqov ko'rsatdi. Bir ayting, ovozingizni o'zingizdan eshitib qaytayin", - dedi. Iltimosga yo'q demaydigan, hech kimning ko'nglini qoldirmaydigan Qodir baxshi : "Ha, mayli, sazangiz o'lmasin, mehmon ekansiz",-deb sozni qo'lga oldi. Avvalo "Ot haydash" termasini chertdi. Endi yonimizdan do'mbiradan otlar ovozi tarala boshladi. Ko'pkaridagi otlar dupuri do'mbiraga ko'chdimi, yo do'mbira ovozi otlarga? Baxshi odatdagidek an'anani buzmagan holda bir

o'qranib oldida, do'mbiraga murojaat qilish orqali to'yni, ko'pkarini, biz mehmonlarni ta'rif-tavsif qilishga o'tdi.

...Oq machitda sayrab kuyla, do'mbiram,
Ko'pkarini yayrab so'yla, do'mbiram,
To'y egasin maqtab-maqtab aytmasang,
Xafa bo'lar, o'zing o'yla, do'mbiram.

Sen deb kelgan Toshkentdan ko'p mehmonlar,
Malik Murod, Hojiakbar, Usmonlar,
Abdiolim, ham Muhammad Rahmonlar
Chori bakmir ko'nglin olgin, do'mbiram

Ko'pkariga qo'shib senday borimni,
Tarqatayin yuragimda cherimni,
G'animlardan olay doim orimni,
To'y egasin zotin olay, do'mbiram...

Keltirilgan parchaning ikkinchi bandida tilga olingan Malik Murod – mashhur folklorshunos Malik Murodov, Hojiakbar-o'zbek fantastikasining taniqli vakili Hojiakbar Shayxov, Usmon – faylasuf olim Usmon qoraboev, Abdiolim – shu satrlar muallifi, Muhammad Rahmon – taniqli shoir va Chori Bekmirov rassom. Biz ijodiy jamoa Qodir baxshi bilan besh kun birga bo'ldik. O'shanda Hojiakbar Shayxov Qodir baxshi ko'pkarini to'xtatib qo'yganiga guvoh bo'lib: “Bu mo'jiza oldida, do'mbira ohanglari va Qodir baxshi ning sehrli ovozi qarshisida nafaqat biz erliklar lolmiz, balki o'zga sayyoraliklar ham hayratga tushgan bo'lardi. Hatto ular bu sehr qarshisida o'z sayyorasidan voz kechib erda yashab qolardi”,-Odegan va shu taasurotlar natijasida yozgan

“Darxon qo’shig’i” va “El’falik mehmon” nomli fantastic asarlarini Toshkent va Moskvada chop ettirgandi”.

Do’mbiraga murojaat qilish, uni maqtash dostonlar matnida, voqealar bayonida ham baxshi mahoratiga ko’ra oz yoxud ko’p darajada davom etadi.

Masalan, Qodir baxshi dan yozib olingan “Kelinoy” (“Norguloy”) dostonida oshiq yigit Norguloyni o’ziga qaratishm unga erishtirish uchun do’mbiraga madh etib, murojaat qilib boradi:

Do’mbiram , seni boqayin,
Boshinga tupak taqayin,
Norguloyni bir qaratsang,
Ustinga baxmal yopayin.

Do’mbiram, so’yla hil bilan,
Bir maydon kelish til bilan
O’ynablar kulasam armon yo’q,
Norguljondayin gul bilan.

Do’mbiram so’yla or bilan,
Bo’ynigda quloqch tor bilan,
Ola olmasam Norgulni
Umrlar o’tar zor bilan.

Do’mbiram, so’yla chanoqdan,
Echki ham boqay chunoqdan..
Norgul qo’lidan sut ichsam,
Sog’dirib ko’kchil inakdan.

Do’mbiram, qoma qo’shiqdan.

Norguloy kirsa eshikdan,
Oq bubakalarni oldirsam,
Oltin soqali beshikdan.

Do'mbiram, so'zla soz bilan,
Uchganday o'rdak g'oz bilan,
Bir yostiqlarga bosh qo'ysam.
Norgulday sarvi noz bilan.

Do'mbiram, sensan pistadan,
Terdirsang gulni dastadan,
Belimga belbog' tikdirsam,
Norguljondayin ustadan.

Do'mbiram, seni boqtirsam,
Dastanga tilla qoqtirsam,
Hisor chekmon qildirib,
Oy Norguloyga tiktirsam.

Do'mbiram , sensan dastadan,
Poygada o'zgin darchadan.
Bir qaratmasang sindiray,
Norgulni anov darchadan.

Do'mbiram, sensan zardoli,
O'zing sozlarning bo'ydori,
Shuncha yigitning ichida,
Menman Norgulning xardori.

Torginang ko'zi ishakdan,
Dami o'tkirday pichoqdan,
Oy Norguljonning farqi yo'q,
Bahorda guli chechakdan.

Eshaging yo'ndim bodomdan,
Oshiqlik o'tib tanamdan,
Xudoyim meni ayrima,
Oy Norguljonday sanamdan.

qulog'ing oldim zarangdan,
qarg'alar uchar qorangdan,
Oy Norguloyning jelagi,
Xitoyi gulli parangdan.

Aaaaaaaaachanog'ing asl tolgina,
Kuylaring totli bolgina,
Meni kuydirar Norgulning,
O'ng yuzidagi xolgina.

Do'mbiram, tanangdi(r) tutdan,
Kuylaring o'tkirdi(r) o'tdan,
Oy Norguloyning kiygani,
Burama gulli oq chitdan.

Do'mbiraga murojaat, an'anaviy tarzda boshlangan. Ammo har bandda dastlabki ikki misra do'mbirani maqtash bo'lsa , so'ngi ikki misra Sultoq chekayotgan ishq Azobini , uning Norguloyga muhabbatini bayon etishga

bag'ishlangan. Shu tarzda o'n olti bandda Do'mbira va Norguloy parallel qo'yilgan holda go'zal tasvirlanadi.

Agar bandlardagi dastlab ikki misrani Do'mbira, so'ngi ikki misrani Norguloy ta'rifida ajratib jamlasak, ikkita mustaqil terma hosil bo'ladi. Bu Qodir baxshi mahorai. Mahorat bu bilan cheklanmaydi, balki har bandda, banddagi ma'noda, siqqlikda, badiiylikda namoyon bo'ladi. Do'mbiraning po'pai, tori, chanog'i, eshagi, dastasi, pistadan, zardolidan, bodomdan, toldan, tutdan yasalishi qo'shiqqa, so'zga oshnoligi, Norguloyning gulday nozikligi, go'zalligi, sarvinozligi, sut sog'Ishi, kashtado'zligi, chevarligi, yuzdagi xoli, xitoyi parang jelagi, Burma gulli ko'ylagini ta'riflayotgan yigit har ikkisiga, kuyga va zebo sanamga oshiq.

Oshiq do'mbiradan bo'ynidagi tordanor bilan so'ylashni so'rar ekan, ayni damda Norgulga etisholmasa zor bila umri o'tishini aytmoqda. Ishq, ishqqa vafo yigitga oriyat, nomus. Soz ovozi bir quloq tor chiqarmoqda. Torning ikkinchi ma'nosi aybdorlarni, goh Mansur Halloj yoki Mashrabdek gunohsiz, ishqqa muhtalolarni osuvchi, qalok etuvdi jazo quroli ham. Yor vasliga erisholmaganlarning umri zor bilan o'tishi barchaga ayon. Do'mbir orni, ishq dardini or bilan so'zlayotgan ekan, buy or dilida etib borishi, oshiq hijronda zor yig'lab o'tmasligi lozim.

Oshiq ikkilanib tursada vasldan umidvor. Uning umidini soz va so'zning sehrli sadolari ro'yobga chiqarishi lozim. "Do'mbiram qolma qo'shiqdan birinchi birinchi ilinj. Shu qo'shiq ta'sirida, ta'ni oshiqning ishq bayonida "Norguloy kirsam eshikdan, demakki kelin bo'lib tushsa, ikkinchi umid. Inson umidi, orzusi esa ko'p. Endi oshiqning yana bir asosiy istagi "Oq bubaklarni oltin soqoli beshikdan oldirish, ya'ni farzand ko'rish. Qodir baxshi ning bir mahorati shundaki, u na termalarda, na eposda qo'pl, yoqimsiz, dilga ozo'r beruvchi, uyat so'zlarni ishlatmaydi, balki eng nozik tuyg'u, his munosabatlarni ham pardalab, samimiy ifodalay oladi. Bu holatni yuqorida parcada ham ko'rish mumkin.

Qodir baxshi do'mbira haqida ma'no-mazmunli, badiiy yuksak termalar , misralar yaratib qolmay bu sozning qadimiyligi, yasalishi, undan taraladigan kuylarning insonga ruhiy ta'siri haqida o'nlab rivoyatlar va afsonalarni bizga etkazib kelgan talent egasi ham edi.

O'zbek profetsional baxshilarining barcasida bu terma bor. U baxshining repertuar boyligini ko'rsatuvchi , kuychining auditoriya (tinglovchilar) bilan aloqasini bog'lovchi maxsus bir folkloriy janr. "Nima aytay?" termasining ko'plab na'munalari ustoz folklorshunoslar tomonidan yozib olingan, tahlil qilingan.

Qodir baxshi ham ustozlari kabi "Nima aytay?" teramsini ko'p bor ijro etgan. Ammo jonli ijrodagi ijrolarvaqt taqazosi hamda auditoriya talabidan kelib chiqib bir oz shiddatliroq, biro z qIsqa bo'lgani rost. Ustoz Malik Murodov qodir abxshi bilan o'tgan asrning 70-yillarida yozgandi: "...Qodir baxshi dan qancha doston bilishingni so'rab qoldim. BAxshi o'ylamay-netmay: "Istaganingizni istaganingizcha aytib beraman",-deb javob qaytardi va : "Dostonlarga kelsak, ustozlar va kitoblardan o'rganganim yuzga yaqin. "Alpomish", "Rustamxon", "Kuntug'mish", "Yusuf-Ahmad", "Bobo Ravshan", "Yusuf va Zulayho", "Vomiq va Uzro" va birgina "Go'ro'g'li" turkumiga yaqIn oltmishga yaqinini bilaman va el orasida aytaman",-dedi. Men ham bo'sh kelmadim: "qani, nomma-nom aytginchi",-dedim. Qodir baxshi qo'liga do'mbirasini oldi-da, biro z o'ylab turgach, uni tingirlata boshladi. Keyin yaim hazil, yarim chin aralash do'mbirasiga murojaat qIldi. - qani, tulporim, bag'ringdagi go'ro'g'li dostonlarini sana-chi, gapimiz to'g'i chiqarmikan yo o'trik?",-dedi-da, do'mbirasini bir chertib, bir dostonning nomini aytdi. Din-ding, xo'p, "Go'ro'g'lining tug'ilishi"; ding-ding, xo'p, "Go'ro'g'lining bolaligi". Shunday qilib do'mbira bir-ikki chertilar, baxshi esa dostonini birma bir sanar, men bo'lsa ularni yozardim. "Chambil", "Zaydinoy", "Oy Yunus", "Misqol pari", "Uzumko'z", "qirq qiz bilan qirq yigit", "Hasankulbar..." Professor Malik Murodov shu tarzda oltmish dostonning nomini ketiradi.

Baxshidan “Nima aytay?” termasini yozib olishdan avval A. Ergashev repertuaridagi dostonlarning ro’yxatini tuzib chiqadi. Boshqa bir kuni “Nima aytay?” termasini imkon boricha to’liqroq aytishini tayinlaydi. Baxshi bu haqda o’ylab, fikrlab olgandan so’ng yakkama-yakka o’tirgan holda, hech kim, hech narsa xalaqit bermaydigan sharoitda, baxshi do’mbirasini qo’lga olib , asta chalgan holda, ijro tempini sekinlatib ayta boshlaydi. Biz tavsiya etayotgan “Nima aytay?” termasinining variant 1982 yil shunday yaratilgan.

Sumbul sozim kuyla bugun eshilib,
Qo’shsha toring ohanglari qo’shilib,
El dardini o’ksib-o’ksib so’ylagin,
Chanoqlaring uch joyidan teshilib.

Kel, do’mbiram so’zga so’zni qo’sh endi,
Baxshi ovozigga mos bo’b tush endi,
Tinglamoqqa kebdi muna xaloyiq,
Menga ilhom berib, qani jo’sh endi.

Botirlar haydaydi maydonga otdi,
Elga- el qo’shilsa baxtdi(r), davlatdi(r).
O’n sakkiz yoshimda do’mbira berib,
Ustozlarim qo’shiq ayt deb o’rgatdi.

Quloq soling davradagi xaloyiq,
Dostonlarni bir-bir qator qilaylik,
Yaxshisini qochirmayin ushlanglar,
Ko’payishib, xo’p aytishib ko’raylik.

Yomon doston kuylab, yaxshi qolmasin,

Tinglovchilar bo'lmaydi deb turmasin,
Ko'payishib bittasini ushlanglar,
Botir bo'lsin aslo qo'rqqoq bo'lmasin.

Safda turar mana "Shirin va Shakar",
Ot ustida qilich sermar "Gulkovsar",
Oshiq bo'lib oh deb o'tdi jahonda,
Mohna bilan etisholmay "Oysavsar".

"Bastam" o'tdi ikki ko'zi ko'r bo'lib,
"Rustam" o'tdi bu dunyoda zo'r bo'lib,
Yo aytaymi qo'ng'irotning Sheridan,
Dushmanini sermab otdi nor bo'lib.

Aytayinmi "Xolbeka"day oshiqdan,
"Tohir-Zuhra" gul uzatgan beshikdan.
"Yusuf-Zulayho" ham o'tgan oh urib,
"Layli-Majnun" zior yig'lagan yoshlikdan.

"Go'ro'g'li"ning o'zi o'ttizta doston,
O'n besh doston bo'lib yurar "Avazxon",
Ikki oyda etolmagan ustozlar,
Aytganda ham qolib ketgan "Gulnozxon".

"Xasanxon"dan so'ylayinmi "Ravshan"dan,
Yo "Nurali" kezgan bog'i gulshanddan.
"Kuntug'mish"mi yoxud "Oychinor" bo'lsin,
Yo davrimiz qozongan dovrug'i shondan?

Dostonlar safida turar “Zaydinoy”,
Undan qolishmaydi aslo “rubbonoy”.
Barchasidan go’zallikda Benazir,
Nafosatli, nazokatli, “Kelinoy”.

Botir bilmas yursa tovning o’rini,
Qo’ng’irotning “Alpomish”day zo’rini,
“Barchin bekach” o’I bitta dostondir,
Yo aytaymi “Yodgor”jonday sherini.

Alloh dedim men qo’limni quvshirdim,
Temur haqda dostonimni yashirdim,
“Olchinbek” u “Yozi-Zebo” dardlarin,
Kuylay-kuylay shogirdlarga oshirdim.

Gohi davralarda jo’shib kuyladim,
Inson dardin bor vujuddan so’yladim.
Qayg’u-g’amlar qolgan bugun orqada,
Oling zamon haqda doston tayladim.

“Otibaqd polvon”dan eshiting shu tob,
Erku baxt haqida qilinar xitob,
“Davramiz farzandi” yangi bir doston,
Va uning mazmuni- ona yurt, oftob.

Kechasida yonar uyda chirog’i,
Ham kunduzi bbo’son bo’lar bir yog’i
Ulug’lardan aytayinmi bir maydon,
Odamzotning suyanchig’i, yuragi.

“Oysha” o’tdi g’animlardan o’ch olib,
Omon o’tdi majnuntolday irg’alib,
“Eshqoraman-Do’s tqora”dan ayatymi,
Olishganda chiqqan dushmandan g’olib.

Ertaklar ham oshar ikki bor izdan,
Termalaru qo’shiqlar ham yuz-yuzdan.
Topishmoq maqollar sanog’i yo’qdir
Qaysidan aytay deb so’rayman sizdan.

Quyosh eritadi tovning qorini,
Sizga aytdim bisotimda borini.
Qaysisini ushlab ma’qul desangiz,
Maqtay maqtay aytay o’sha zo’rini.

Qodir baxshi bu dam jo’shib boraman,
Aytay deyman selday toshib boraman.
Do’mbiramdan shod nag’malar keltirib,
Ohangga ma’noni qo’shib boraman.

Bandlarga raqamlarni biz qo’ydik. Chunki ushbu terma “Dunyoga tengdosh xazina”(-T: Yozuvchi1994), “Baxshilar sardori” (qarshi Nasaf) risolalarida : “qodir aka, umuman nechta doston bilasiz, deb so’raganimizda, u kishi do’mbirasini qo’liga olib “Nima aytay?” termasini to’qib tashlagandi”,- deya yozadi-da terma matnini keltiradi. Biroq biz keltirgan matndagi 1-, 2-, 13-, 15-, 16-, 17-bandlarini tushirib qoldiradi. Buning boisi baxshilar, xususan Qodir baxshi avval do’mbiraga murojaat etmay bu termani aytmashligini mualliflar

yoddan chiqargan bo'lsa(1-2- band), 13-band dastlabki ikki misrasi, qolgan uch band zamonaviy dostonlar aks etgani uchun qisqartirilgan.

Shuningdek, “Alpomishnoma”(T: Mehnat. 1999) kitobining birinchisida biz termaning o'n ikki bandini keltirganmiz. Ammo , to'liq variantidagi 13-banddan so'ng qo'lyozmada bo'lmagan quyidagi ikki band qo'shilib qolgan.

Islom dining mehvari,
Tasavvufning sarvari,
Turkistonning quyoshi,
Ahmad bobomdan aytaymi?

Turkman elining asl farzandi,
Turk dunyosining buyuk shoiri,
Elga yoqqan aytgan ash'ori.
Maxtumqulidan aytaymi.

Bu bandlar mantiq jihatdan, she'riy vazn jihatdan ham, badiiylik jihatdan matnga singishmayotgani oddiy kitobxon ham anglab etadi.

Bu fikrlarni dadil aytishim sababi shuki, avvalgi ikki kitob mualliflari ham asli matnning ko'chirmasini bizdan olgan edi va so'ngi kitob mualliflaridan biri o'zimman. Qodir baxshi har bir ijro etgan an'anaviy va zamonaviy termada kutilmagan ko'chimlar, o'xshatish va iboralar, badiiy tasviriy vositalar o'ta did, bilimdonlik, xalqchillik nuqtai nazaridan yoritilishi bilan yuksak ilmiy va badiiy qimmatga ega. Ularni har taraflama o'rganish esa novbatdagi tadqiqotlar zimmasiga tushadi.

III BOB. “ZAYDINOY” DOSTONIDA AHLOQ-ODOB TALQINI.

Hozirgi vaqtda Qarshi Davlat universitetining folklor laboratoriyasi arxivida qo'lyozma holda saqlanayotgan “Zaydinoy” dostonidagi nasihatlarining har birini bir saboq tarzida sharhlashga harakat qildik. Chunki bunday sharhlash kam vaqtni oladi va undan istagan dars (adabiyot, folklor, ona tili, tarix, huquqshunoslik, odobnoma va hatto aniq fanlarda ham)da foydalanish mumkin. Darsning kirish yoki xulosa qismida, zaruriyat tug'ilganda yangi materialni o'tishda 4-5 daqiqa vaqtni ajratib bir to'rtlikni yod aytish yoki o'qib izohlash mumkin. To'rtlikni sharhlashni o'quvchilardan so'rash esa, ularning faolligini, qiziqishini oshiradi.

1-SABOQ

Dostonda ish Go'ro'g'liga aytilgan ilk o'git olamning abadiyligi, inson umrining o'tkinchiligi haqida:

Tiriklikda bilgin davri davronsan,
Oqibatda bir jonzodga makonsan.
Bu jahonda sanog'i yo'q insonsan,
Shuni bilgin bir-biringga mexmonsan.

Epik qahramonga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, og'ir damlarda raxnamolik qiluvchi, qo'llab-quvvatlovchi, madad bo'luvchi homiy dastlabki nasihatda hayot va o'lim, fono (o'tkinchilik) va baqo (adabiylik) tushunchasiga diqqatni jalb etadi. Ya'ni tiriklikdagi davru davron o'tkinchi. U qancha umr ko'rib, nechog'lik davru davron surib yashamasin, oxir oqibatda hayotni, yorug' olamni tark etadi. Avaylab parvarishlagan, e'zozlagan vujudimiz, jismimiz qachondir tuproqqa qo'yiladi. Ruhdan ajralgan tana (vujud)ga qaysidir jonivor egalik qiladi: «Oqibatda bir jonzodga makonsan». Inson avvalo shu achchiq, haqiqatni anglashi, boyliq mol-dunyo, mansab, mavqe, maishatga berilmay, ezguliq ruhiy poklik uchun kurashmog'i, ruhiyat yo'qsaqligini o'ylab yashamog'i, yashash jarayonida boqiy hayotga, Alloh mehriga sazovar bo'lishga tayyorlanmog'i lozim. Alloh mehriga erishish yo'li esa ilohiy homiylar, ko'p umr ko'rib, ko'pni bilgan keksa qariyalar pand-nasihatiga amal qilishda, sanog'i yo'q insonning har qaysi bir-biriga va yorug' dunyoga mexmonligini his etsa, qadr-qimmat, izzat-hurmat kuchayadi. Chunki xalqimiz mehmondorchilik qadriyatlarini, mehmonni e'zozlashni chuqur biladi. Shu sababli yon-atrofdagi har bir keksa-yu yoshga mehmondek izzat-ikrom ko'rsatish lozim.

2-SABOQ

Bug'doyni qaragin o'rtasi tilik
Chiroqni yondirib bo'lmas bepiliq

Ming yil qilgan ibodatdan yaxshidir,
Qila olsang bir insonga yaxshiliq

Rizq nasibamiz bo'lgan bug'doy donasining shaqlini, gapgini, qadrini hamma biladi. Ammo, diqqat uning o'rtasi tilikligiga jalb etilmoqda. Xuddi shu xususiyat uni ajratib turadi. Bug'doysiz yashash mumkin emas, uning ta'rifi so'z yo'q. Ammo insonga yashash uchun faqat moddiy ne'mat kamlik qiladi. Yog'du ham zarur. Yog'duni esa chiroq taratadi. Biroq chiroq bo'lsa-yu, pilik bo'lmasa, u qimmatga ega emas. O'rtasi tilik bug'doy va pilikli chiroq asosiy o'gitni yoddan chiqmaydigan tarzda tushuntirish vositasi. Xudoni sevis, undan madat so'rash, undagina najot kutish, baxt-iqbol, uzoq umr so'rab iltijo etish, doimo nomini yodda tutib ibodat qilish yaxshi saodat. Ammo faqat o'z saodatini o'ylab, manfaati doirasida ibodat etib, yon atrofdagi insonlarga foydasi tegmay, yaxshilik qilmay yashash befoyda. Avval inson o'zgalarga ko'maqlashmog'i, yon-atrofdagilarga yaxshilik qilmog'i lozim. Hazrat Navoiy ham aytadilarki:

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo'q el g'amidin gami.

Ajdodlarimiz farzandlarga vasiyatida, muqaddas dinimiz ta'limotida ham, hadislardagi muborak o'gitlarda ham: avvalo dilga yaxshilikni jo qilib, odatga aylantirib olgan holda musulmonchilik farzlarini bajarish uqtiriladi.

Bir yetim boshini silasa ummat,
Tul ayolga qilsa beminnat xizmat.
Miskinning holidan ololsa xabar.

Ro'za ibodatdan har biri qimmat

Baxshi ta'kidlaganideq odam bir insonga yaxshilik qilmay, ibodatga o'tirsa, uning bu ishi piliksiz chiroqdek foydasiz. Chunki unga elning duo olqishi ham, yaratganning shafqati ham, Rasulning qarami ham bo'lmaydi.

3-SABOQ

Dostonlar, xususan «Zaydinoy»da ham yaxshilik qilish zarurligini uqtiriladi. Xo'sh yaxshilik nima? Uni qanday bilish mumkin? Bu yorug' olamda har bir narsa ikkinchisi bilan qiyos qilayotganda, boshqa qarama-qarshi voqea-hodisa, holat, narsa, harakter bilan taqqoslanganda ongimizga mustahkam o'rnashadi. Ezgulikni yovuzliksiz, diyonatni xiyonatsiz, adolatni zulmsiz, yog'duni zulmatsiz tasavvur qilish qiyin. Shu ma'noda yaxshilik ham omonlik bilan ziddiyatda to'la namoyon bo'ladi.

Yomonning kasodi tegar har joyda,
Yaxshining yordami tegar tang joyda,
Yomonning makoni doim tor bo'lar,
Yaxshining makoni bordir har joyda.

Homiylar-chiltonlar dastlab umumiy tarzda yomon va yaxshi odam haqida tushuncha bermoqda. Ya'ni yomon har joyda yon-atrofdagilarga ziyon yetkazadi, zarar keltiradi. Yaxshi odam esa o'zining ahvoli og'ir bo'lsa ham, qiynalgan, tang ahvolga tushib qolgan kishiga ko'maqlashadi, uni qiyin vaziyatdan qutqazadi. Shu sababdan yomonlik qilib nafratga yo'liqqanning makoni tor. Chunki uning qilmishlaridan xabardor kishilar shodon qarshilamaydi, undan uzoqlashishga, xonadoniga yaqinlashtirmaslikka intilsa, yaxshilar hamisha izzat-hurmatga sazovor, yorug' yo'z bilan qarshi olinadi.

Odamning fe'lu atvoridagi qaysi xususiyatlar, harakatlar yaxshi-yu, qay birlari yomon, inson nima qilsa obru-e'tibor topib yashaydi-yu, qachon yomon degan isnodga qoladi, nafratga duchor bo'ladi. Pandnomalarning keyingilarida shular izchil bayon etiladi.

4-SABOQ

Nasihatlarining har biri garchi umumbashariy bo'lsa-da, yaratilgan davr mafko'rasi, xalqning milliy qadriyatlarini, e'tiqodi, qarashlaridan kelib chiqib aytiladi. Ma'lumki, o'zbek xalq dostonlarining asosiy qismi o'rta asrlarda xalq islom dini ilgari so'rgan axloqiy qarashlarni o'z e'tiqodiga aylantirgan paytda shaqllangan. Shu bois ularda shu mafko'ra, shu e'tiqod o'z aksini topgan. Xalq nazarida yaxshi so'zdan qudratli narsa yo'q- Chunki olam «Bo'l!» degan so'zdan yaralgan. Zero, yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar, deb bejiz aytilmagan. Insonga til berilgan, qudratli so'z berilgan ekan, u so'zning kuchini, dillarga ochkich bo'lgan salomning qimmatini anglamog'i shart. Yaxshi va yomon tushunchasi avvalo shu so'zni bilishda:

Xudoyim beribdi insonga kalom,
Bemavrid ish qilib tortmagin alam.
Yaxshi ham, yomon ham shundan bilinar,
Kim bo'lsa oldidan utma besalom.

Kundalik turmushda muqaddas tushunchaga aylangan, o'zaro insoniy munosabatlarning, muomalaning, tanishishning asosi bo'lgan salomlashish qoidalarini yaratilgan bo'lib, hadislarida: «Ot mingan kishi piyodaga salom beradi, ozchilik ko'pchilikka salom beradi, tashqaridan kelgan kishi ichkaridagiga salom beradi», -deb ko'rsatiladi. Yana bir o'rinda odamning kimligi, aql-idroqi,

fikr tushunchasi, harakter xususiyati salomda ayon bo'lgani sababli shunday deyiladi.

Salomning ham salmoqlisi bo'ladi,
Kinoyali, ilmoqlisi bo'ladi.
Salomni bilganga kelmaydi ofat,
U Allohning bir belgisi bo'ladi.

Demak salom Allohning belgisi, kalomi bo'lgani uchun u har qachon samimiy, odob qoidalariga rioya qilingan holda bo'lishi lozim.

5-SABOQ

Hech vaqtda teng bo'lmas oltin bilan zar,
Bilaman demagin bilimdonlar bor.
Odamzod odamdan o'rganar doim,
Mo'ysafid gapini bo'lmagin zinhor.

Har bir to'rtlik yuqoridagidek bir, chilton tomonidan aytilsa ham, uning qatida bir emas bir nechta pand-nasihat mujassamlashib kelgan holatlar ko'p uchraydi. Oltin bilan zar birdek yaltiroq, bo'lsa-da, har birining o'z bahosi, qadr-qimmatlari bor. Shu sabab tashqi tovlanishiga ko'ra o'xshasa ham, zarni oltinga tenglashtirib bo'lmaydi. Xuddi shunday tashqi jihatdan o'xshash kishilarning harakter xususiyati, aqli, axloqi, bilimi turlichadir. Biri diyonatli, insofli «bilaman demagin bilimdonlar bor» gapini uqiganda «Qur'oni karim»ning «Kahf» surasining 63-84-oyatlarida keltirilgan Muso payg'ambar va Xizir haqidagi rivoyat yodga tushadi. «Kalimulloh» - «Alloh taolo bilan bevosita so'zlashuvchi» Musodek ulug' zot o'zlaricha ko'ngillarida dunyoda mendan ham ilmliroq, odam bormikan deganda, Xizir bilan duch keladi. Ammo

Xizirning kemani teshishi, bolani o'ldirishi, yiqilayotgan devorni tiklashi boisini bilmay so'raganlarida, Xizir: «Kema bechoraxol kishilarning tirikchilik o'tkazish vositasi edi. Men uni teshib qo'ymag'animda, ular kelayotgan joydagi zolim podsho kemadagilarni talon-taroj qilib, bor-yo'g'ini tortib olardi. Bolani o'ldirmag'animda, ulg'ayib kufr yo'liga tushardi va ota-onasini ham kufrga boshlardi. Haq taolo amri bilan uni o'ldirdim, toki keyincha ularga solih, farzand nasib qilsin, Bo'zilgan devorni ta'mir qilg'anim boisi uning ostida ikki yetimga tegishli xazina bor edi. Agar devor bo'zilib ketsa, xazina fosh bo'lib, yetimlar undan benasib qolardi. Parvardigorning rahmat-shafqati bilan xazina bolalarga atalgan edi. Men bu ishlarning birontasini o'z-o'zimcha qilg'anim yo'q,», -dedi. Bu rivoyat Allohning «Har bir bilim sohibi ustida undanda bilimdonroq birov bordir» oyatining isbotidir. Shu sababi inson: «Men bilaman», -deb o'ziga bino qo'ymasligi lozim. Hamma narsani bilguvchi faqat yaratganning o'zidir. Odamzod esa doimo odamdan (bir-biridan) o'rganib kamolot sari intiladi. Shu yo'lda hayot mashaqqatlarini boshdan kechirgan, turmush tajribalaridan saboq chiqargan mo'ysafid-keksaning gapini zinhor bo'lmay tinglash, aytilganlariga amal qilish lozim. Mo'ysafid gapini bo'lish hurmatsizlik odobsizlikkina emas, balki bilimlardan bexabar qolish hamdir.

6-SABOQ

Xalq hamisha dilga ozor beruvchilarni qoralagan, manmanlikdan hazar qilgan. Yomonliklar ko'p va ular doimo avvalo boshqalarga kulfat keltirish bilan chegaralanmay, shu salbiy hislatga ega kishini ham g'am-qayg'uga duchor qiladi. g'iybat va manmanlik shunday xususiyatlarda bo'lgani bois yoshlar undan ogoh bo'lmog'i lozim:

G'iybat ko'p yomondir yurakni doElar,
To'g'rilik yaxshidir dillarni bog'lar.

Qilmasin odamzod aslo manmanliq
Manmanlik qilganning makoni yiElar.

Halol va to'g'ri odamni g'iybat qilish, unga yo'q ayblarni qo'yib Qoralash, behuda gap so'z insonning yuragini doElaydi, soEligiga putur yetkazadi. Ayni damda g'iybatchining o'zi ham siri fosh bo'lib nazardan qoladi, eldan ajraydi. Yashashning yaxshi yo'li to'g'rilikdir. So'zi, ishi haq kishilar faqat o'zlari e'tibor topib qolmay, odamlar ko'nglini, o'yini, maqsadini ham bog'laydi, ittifoqlikni yuzaga keltiradi. Shu sababli to'g'ri bo'lish, g'iybatchilarga yaqinlashmaslik lozim. Zero, hadislarda ham g'iybatchilar bu dunyodagina emas, balki u dunyoda ham muqarrar jazoga duchor bo'lishi ta'kidlanadi:

Nolima g'iybatchi jazo olmas deb,
Ikki yuzlamaga hech gap bo'lmas deb,
Qilgan g'iybatlari uchun alarga,
Mahsharda olovdan ikki tildir zeb.

Chiltonlar o'gitining so'nggi ikki misrasi odamning kamtarlikni odat qilishi, qaysi holatda, qaysi davrda, qanday ishda bo'lsa ham manmanlikni odat qilmasligi haqida. Kimki manman bo'lsa, o'zgalar oldida imkoniyatlariga ortiqcha baho berib maqtansa, oqibati voy. Manmanlik qilgan kishining o'zi g'amga duchor bo'lib qolmaydi, balki uning makoni ham yiElaydi. Xalqda esa makonning yiElashi juda og'ir qayg'uli tushuncha. Ya'ni manmanlik kishiga o'lim olib keladi, o'lim esa uning yaqinlari ko'z yoshiga sabab bo'ladi, xonadonda-makonda yig'i chiqaradi. Yanada daxshatlirog'i shuki, manman odam o'limidan so'ng ham yaxshilik bilan yodlanmaydi, avlodi ham ko'pchilik diqqat e'tiboridan qoladi. Shu sababli g'iybat va manmanlikdan yiroq bo'lib, to'g'rilik va kamtarlikni odat qilish baxt-saodat omilidir.

7-SABOQ

Bir soʻz bilan buzilar shoh qalasi,
Ingranib chiqadi goʻdak nolasi,
Oʻt balosi, suv balosi yomondir,
Undan yomon, bilgin Tuhmat balosi.

Soʻzning qudrati ulugʻ. Yaratish ham, vayron qilish ham, sevish ham, judolik ham, hayot ham, oʻlim ham soʻz orqali ifoda etiladi. Bir shirin kalom yashashga ishonch, muhabbat uygʻotsa, yomon bir soʻz hayotdan bezdiradi, haloqatga olib keladi. Soʻz oʻzining kim tomonidan aytilayotgani, soʻzlovchining kasbi, yoshi, jinsi, mavqei, mansabi, harakter xususiyati, dunyoni anglashi, xis etishiga qarab ezgulik yoki yovuzliklarni, adolat yoxud zulmlarni boshlab keluvchi sexrli kuch-qudratga, quvvatga ega. Uzoq moziydan «..., urush» degan bir soʻz bilan urugʻlar, qabilalar qirilib ketgani, shohlar qalasi qulaganiga koʻplab misollar keltirishi mumkin. Bu soʻz kattalargagina ozor yetkazgan emas, goʻdaklar boshiga ham kulfat keltirgan. Shu sabab xatto ular yielay olmay, ingraydigan boʻlib qolgan. Ingrab ovoz chiqarish ogʻir xastaliq dard chekishdir. Demaq bir soʻz bilan boshlangan faloqat murgʻak gudaklarni-da cheksiz gʻam-alamga duch etadi.

Xalqning nazarida insonlar boshiga yogʻiladigan uch balo-ofat bor. Boʻlar oʻt balosi, suv balosi va Tuhmat balosidir. Dastlabki, ikkitasi inson izmidan tashqarida tabiat hodisasi sifatida sodir boʻlsa, uchinchi Tuhmat insonning soʻzi orqali yuzaga keladi. Tuhmat inson boshiga hadsiz kulfat yogʻdiradi, avvalo ruhan, soʻng jisman majruh etadi. Dastlabki ikki balo tabiat hodisasi sifatida, kutilmagan faloqat tarzida roʻy bersa, uchinchi qasddan, yovoʻz niyatni oʻylaganlar tomonidan eʼtiqodli, imonli, axloqli, diyonatli kishini

mahv etish uchun amalga oshiriladi. Shuning uchun dastlabki ikkisidan ko'ra yomonroqdir. Darvoqe, hadislarda tuhmatchiga jazo muqarrarlighi ta'kidlanadi:

Tuhmatdan dillarga berguvchi ozor,
Yovo'z qilmishini qo'ymasa zinhor,
Sajdaga qanchalik boshin qo'ysa ham,
Yaratgan egamning qahriga duchor.

8-SABOQ

Hayotda har bir kishi biron maqsad, ezgu niyat bilan yashashi, o'tkinchi umrini behuda orzu havaslar bilan o'tkazmasligi lozim. Ammo atrofdagi odamlarga nazar tashlasaq kimdir tinim bilmay, fursatni qo'ldan bermay yurtining obodligi, zaminning gullab yashnashi, odamlarning baxtli, tinch yashashi uchun o'zini fido qilib yashashi va ishlashini, o'zga birovning esa tug'ilgandan to o'lguncha aql-hushini yig'olmasligini ko'ramiz.

Birovning bir kunda qilgan ishini,
Birov qilolmaydi yashab yoshini,
Birov bir kunida ming yil yashaydi,
Birov ming kunda ham yig'mas esini.

Bularni chiltonlarning biri Vatani, xalqi uchun yonib yashovchi, shular yo'lida o'z manfaatlarini aslo o'ylamay xizmat qiluvchi epik qahramonga aytayapti, pand-nasihat qilayapti. Ha, inson hayotini, umrini qay tarzda o'tkazishning bu jihatlarini kuzatib, fikrlab xulosa chiqarishi lozim. Chunki u yigit bo'lib davralarga kirmoqchi, o'zining va elining niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurashmoqchi ekan, xar kunida bajargan ulug'vor ishlari bilan uzoq-uzoq yillar, asrlar yashash yo'lini topmog'i darkor.

9-SABOQ

Tabiatda hamma narsa juft-juft yaratilgan. Shu juftlik abadiyatni, davomiylikni ta'minlaydi. Inson farzandi ham ma'lum yoshga yetgach, o'z juftini topishi lozim. Balog'atga yetgandan keyingi hayotdagi baxtiyorlik yo baxtsizlik omad yo omadsizlik sahovat yoki bahilliq quvonch yoki g'am, mehr yo qahr osoyishtalik yoxud notinchlik topgan juftiga, uning aqli, idroli, axloqi, ruhiyatiga bog'liq. Shu sababli juft tanlash o'ta og'ir, nihoyatda jiddiy vazifa. Mard yigitning dili vafoni, sadoqatni istaydi. Agar tanlangan juft bevafo chiqsa, bundan ortiq jabru jafo, zulmu alam, dardu sitam yo'q. Vafosiz bilan yashaguncha bo'ydoq, o'tgan ma'qul.

Yigit dili ochiladi vafodan,
Bo'ydoq yurgan yaxshi jabru jafodan.
Yaxshi xotin tengsiz shahri azimdir,
Yomon xotin battar teshik kapadan.

Shahri azimning tengsizligi uning go'zalligi, bag'ri kengligidir. Shahar obod bo'lganidan bag'rida ko'plab odamlar baxtiyor yashaydi. U yaxshi xotinga qiyos. Yaxshi xotinlar hamisha bo'lganidek yomonlari ham doimo uchrab turadi. Yomonlar teshik kapaga o'xshaydi. Chunki teshiq kapada huzur-halovat bilan yashab bo'lmaydi. Usha teshikdan kirgan chang-g'ubor, shamollar, yog'in-sochin kapada yashovchilarga orom bermaganidek yomon xotin ham ruzg'or osoyishtaligini buzadi, turmush o'rtog'i qalbidagi quvonch, orzu-umid, intilishlarni so'ndiradi, hayotdan bezdiradi. Baxshilar kuylaganidek:

Ruzg'origa fayz kirmoqni,
Aqli raso yor keltirar.

Yorning ori bo'lmaganda,
Oilaga zor keltirar.

Darvoqe, hadislarda ham vafodor, oriyatli, iboli, hayoli yor uluElanib, har bir yigit uylanishi va Muhammad ummatlarini ko'paytirishi ta'kidlangan holda, yigitga baxtsizlik keltiradigan uch narsaning biri yomon xotin ekanligi uqtiriladi. Demaq sadoqatli yor topish yigitning baxt-saodatidir.

10-SABOQ

Inson umrining har bir fasli abadiyat qarshisida ko'z ilg'amas lahzalargina bo'lsa ham, umrning har bir davri, lahzasi o'ziga xos xususiyatga ega. Bolalik yuksak hayollar, orzu-umidlar, sho'xliklar davri bo'lsa, yigitlik kuch-qudratga, g'ayrat va jasoratga to'lgan payt.

Erib-erib ado bo'lar bo'ktar qor,
Bir yilda bir marta keladi bahor,
Yigitlikni bilgin toshqin daryodir,
Suvini toshloqqa burmagin zinhor.

Asosiy fikr yigitlik davrida inson eng to'lishgan, baquvvat, bardam, epchil bo'lishini va shu fursatni qadrlay olishini uqtirishda. Ammo, yigitlik eng zo'r davr deb kuya qolish hech qanday zavq bermaydi, tuyg'ularga ta'sir qilmaydi. Baxshi tasvirni uzoqdan boshlaydi. Ya'ni tog' boshida tuganmas bo'lib ko'ringan uyum-uyum qorlar ham asta-sekin erib-erib tugaydi. Usha bo'ktar qorni bir yilda keladigan bahor erita boshlaydi. Tasvirga bahor kirib keladi. U ham doimiy emas, vaqtincha, yiliga bir marta keladi. Ammo hech qaysi bahor bir-birini aynan takrorlamaydi. Odam ham bir bor dunyoga keladi, u ham abadiy emas, o'tkinchi. Odam nasli ham bahor fasli misol qaytalayveradi.

Biroq hech bir avlod o'z ajdodini takrorlamagani kabi, tog boshidagi uyum-uyum qorning bahordaga iliqlikdan erishi tufayli daryodagi suvlar ko'payadi, toshqin daryolar hosil bo'ladi. Inson ham go'daklikdan yigitlik pallasiga yetganda toshqin daryodek shiddatkor qudrat sohibiga aylanadi, ammo o'zi buni bilmaydi. Shuning uchun uning ko'z o'ngida toshqin daryo gavdalandiriladi. To'lib toshgan daryo suvi bog'u bo'stonlar, gulu guliston nasiba undirishga, yorug' olamdagi jamiki jonli jonzodlarning, o'simligu giyohlarning yashashiga, chanqog'ini qondirishga xizmat qilishi lozim. Insoniyat suvdan shu yo'lda foydalanishi darkor. Daryo suvini toshloqqa burish, isrofgarchilik behuda sarf qilishdir. Yigitlik ham suvday o'tkinchi, suvday qadrli, e'zozli. Shu sabab bu davrdagi kuch-qudratni befoyda ishlarga sarflamay, el-yurt manfaati, qarindosh- urug , do'st-yorlar xizmatiga yo'naltirish lozim. Tog' boshidagi qor daryodagi toshqin suv va inson umridagi yigitlik davri barchasi ma'lum fursatliq abadiy emas. Usha fursatda ulariing kuch-quvvatidan ezgu ishlar uchun unumli foydalanish kerak

11-SABOQ

Yigitlik inson umrining balog'at davri bo'lgani sababli bu davrda bajariladigan ishlar ko'p.

Mol dunyong berolmaydi savlatdi,
Odamzodning suyanchig'i farzandi(r),
Ham beling quvvati, ham ko'zing nuri,
Har bittasi ado bo'lmas davlatdi (r).

Yigit aqli, kuch-qudrati, mehnati bilan istagancha mol-dunyo, boylik to'plashi mumkin. U qanchalik behisob boylik to'plamasin, naqadar

dang'illama, fusunkor imoratlar qurmasin, xilma-xil shohona kiyimlar kiymasin, bularning hech qaysi yigitga savlat, ko'rq chiroy bo'la olmaydi, to'la ma'noda baxt keltirmaydi. Baxtning bekamligi, el orasida savlat to'kib yurishining asosi farzanddir. Odamning baxt saodati, oilaning quvonchi ug'il-qizlar. Kimki odobli, aqlli, o'ylovli farzand tarbiyalasa, usha farzandlar suyanch, tayanch bo'ladi. Keksayib beldan quvvat ketganda, ko'z nuri xira tortganda, barcha tanish-bilishlar, oshna-og'aynilar, qarindosh-urug'lar o'z tashvishi bilan bo'lganda, faqat o'g'ilu qizlar ota-onaning beliga darmon, ko'ziga nur, izidan izdosh bo'lib qo'llab-quvvatlaydi. Har bir farzand shunday davlatki, uning bahosi yo'q. Bu davlat mol-dunyo kabi tugab qolmaydi, balki kuch-qudrati tugayotgan ota-onaga ham moddiy, ham ma'naviy, ham ruhiy madadkor sifatida xizmat qiladi. Shu bois yigitmi, qizmi oila ko'rgandan so'ng farzand ko'rishni, farzandlarni komil inson qilib tarbiyalashni, har qanday va har qancha boylik farzandning tirnog'iga ham arzimastligini yodda saqlashi lozim. Shu sababli xalqimiz kishining boyligani o'g'il-qizlarining ko'pligi bilan baholaydi. Ko'p bolalilik bolaparvarlik esa qon-qonimizga singib ketgan.

12-SABOQ

Xalqning asrlar davomida to'plagan tarbiyaviy tajribasi shu qadar mukammal va o'zaro chambarchas bog'langanki, xalq dahosiga qoyil qolmay iloj yo'q. Bu biz fikr yuritayotgan o'gitlarda ham o'z mujassamini topgan. Epik homiylar epik qahramon yosh Go'ro'g'liga insonning inson degan tabarruk nomga munosib bo'lishini uqtirib borar ekan izchilikka, davomiylikka e'tibor beradi. Yuqoridagi to'rtliklarda yigitning uylanishi, farzand ko'rishining ahamiyati uqtirildi. Har bir yigitning aqlli bo'lishi, kuch-qudratini foydali ishlarga sarflashga intilishi, sadoqatli yorga uylanishi va ug'illar, qizlar ko'rib, ularni tarbiyalashi mukammal baxt-saodat, to'liq shodonlik va quvonchda yashashga imkon bermaydi. Chunki har bir odam ma'lum jamiyatning a'zosi

sifatida o'zgalar bilan, oilasidan tashqaridagilar bilan doimiy aloqada yashaydi. Shu ijtimoiy muhit unga albatta ta'sir qiladi. Hayot esa shunday yaralganki, har bir shaxsning o'z dunyoqarashi, aql-idroki, harakter xususiyati bor. Hayot shu turli tuman fe'l-atvorli kishilarning o'zaro aloqada, kelishib yashashidir. Har kim buni anglashi va ko'proq munosabatda bo'ladigan odamlarni sinchiklab o'rganishi, bilishi kerak O'zbeklar uchun esa eng ko'p aloqada, munosabatda bo'ladigan kishilar hamsoya (qo'shni)lardir. Demaq yigit oila ko'rib, uy-joy solar ekan, hamsoyasi (qo'shnisi)kimligini albatta bilishi darkor.

Har kim g'ubor topar osmonda oydan,
Birov kalta, birov ortiqdir bo'ydan,
Mardni nomard qilar bilgin hamsoya,
Bilmay imoratni qurma har joydan.

Xalq bejiz «Hovli olma qo'shni ol», «Qo'shning yaxshi bo'lsa berdi xudo, yomon bo'lsa urdi xudo», «Yon qo'shnim-jon qo'shnim» demagan. Yaxshi qo'shni qo'shnisining yomonini eldan yashirib, yaxshisini oshirib, inoqlik ittifoqlikda yashaydi. Ammo yomon qo'shni o'zining malomatu g'iybatlari bilan yaxshini yomon, mardni nomard, diyonatlini diyonatsiz deb elga yoyishi hech gap emas. Yomon hamsoya faqat qo'shni oiladagi yoshi kattalarga emas, uning farzandlari baxtiga ham zomin bo'ladi. Xalq, tilida aytiladigan:

O'tdayin qo'ymas edim, kuydirdi-da yon qo'shnim,
Guldayin so'lmas edim, so'ldirdi-da yon-qo'shnim,
O'g'lim, qizim baxtidan ayirdi-da yon qo'shnim.

kabi misralarda yomon, oqibatsiz qo'shni yetkazgan ozori kuylanadi. Zero, balog'atga yetgan qiz yoki yigitni kelin yoki kuyov qilishni

mo'ljallaganda, dastlab qo'shnilardan so'ragan. Yomon qo'shni esa o'shanday paytda qo'shnisining farzandlarini Qoralab baxtdan judo qilgan. Shunday qo'shniga yaqin bo'lmaslik hamsoyaning kimligini bilmay imoratni har joydan solmaslik lozim. Oyda g'ubor borligini hamma biladi, chunki u ko'rinib turadi. Bir odamiing kalta, o'zgasining uzun bo'yli ekanligini ham har bir nigoh anglay oladi. Ammo qo'shnining ichki dunyosini, ruhiyatini bilish mushkul ish. U oyning g'ubori yoki bo'ynining uzun-kaltaligiday ko'zga taishlanib turmaydi. Bu esa qo'shnini tanlash mushkul vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Ha, qo'shni tanlay olish, qo'shni bilan mustahkam yaqin aloqada yashay olish xalqona qadriyatlardan biridir.

13-SABOQ

Kimki yashar ekan, ko'rgan bilganlarini, dardu quvonchlarini, bu cheksiz chegarasiz olamdan olgan taassurotlarini kimgadir aytishni, dilidagini to'kib sochishni, sirlashishni istaydi. Bu dunyodagi siru sinoatlarni, ajoyib g'aroyibotlarni, ulardan tug'ilgan o'y-fikrlarni o'zga bilan baham ko'rish, mushkul ishlarni uddalash uchun yordamga ehtiyoj sezish do'st, o'rtoq topishni taqazo qiladi. Ko'ngil-ko'ngilga mos keladigan sirdosh topish esa g'oyat mushkul. Do'stingman deyish, do'stlik haqida baland parvoz gaplarni istagancha aytish mumkin. Ammo do'stga sodiklik do'stlik udumlariga rioya qilish og'ir. Xalqimiz do'stlikni shuning uchun ham e'zozlaydiki, u Allohning sifatlaridan biri ham. Demak do'stni aldash, yaratgan egamni aldash, do'stga xiyonat xudoga xiyonatdir. Yigitning mardligi, mard yigitning kuch-qudrati do'stlarining ko'pligida, shu do'stlarga xizmat qilish, ulardan bor narsani ayamaslikda:

Nor tuyalar nori bo'lsa toyama,
Oq narsani Qora qilib bo'yama,

Mard yigitga mingta do'st ham kam bo'lar,
Do'stdan aslo bor narsangni ayama.

Nor tuya haqiqatdan kuchga to'lgan, chinakam nor bo'lsa, ustiga yuk ortilgan bilan yo'lda toymaydi, egasini og'ir ahvolda qoldirmaydi. Nor tuyalar toymagani kabi, chinakam inson ezgulikni qabohat, sadoqatni xiyonat tarzida baholamaydi. Sobit turgan mard yigitning do'stlari ko'p bo'lgani holda, shu do'stlardan bor narsasini ayamasi, o'rtalikda baham ko'rishi, sahoatdan chekinmasligi zarur. Nor tuya yo'qni ko'tarib, toymay, munkimay, qoqilmay yo'l tortgani misol do'stining yaxshi-yomon fazilatlarini bilgan yigit do'stning boridan quvonib, yo'g'ida ko'maklashib yashasa iqboli baland bo'ladi.

14-SABOQ

Mensimaslik keltiradi adovat,
YiElolmagan qilolmaydi sahoat,
Gadoni ko'rganda kulmagin zinhor,
Bolani ko'rsangda aylagin hurmat.

Inson tug'ilib kamolotga erishib borar ekan, oiladagilariyu qo'ni-qo'shnilari, o'qishdagi yo ishdagi o'nlab, yuzlab kishilarni ko'radi, kuzatadi. Birovning aqlililigiga, o'zgasining esa ozroq aqlsizligiga, kimningdir chiroyliligiga, boshqasining xunukligiga guvoh bo'ladi. Ammo inson qay holatda, qay vazifada, kasbda bo'lmasin o'zi kabi Allohning bandasiga mensimaslik past nazar bilan qarashi gunoh. O'zgalarga mensimay munosabatda bo'lish adovatga, adovat dushmanlikka, dushmanlik esa baxtsizlikka, xatto umrning qisqarishiga olib keladi. Ko'nglida adovat bo'lmagan, hammaga hurmat bilan qaraydigan odam sahoatli bo'ladi.

Sahovat har kimning qo'ldan kelmaydi, hamma beva-bechora, yetim-yesir, moddiy qiynalganlarga ko'maklashavermaydi. O'zgalarga berish uchun ishning ko'zini, tejamkorlikni bilib yig'ish ham kerak Yig'ilgan, to'plangan, peshona teri, tadbirkorlik bilan topilgandan sahovat ko'rsatish uchun dil sahovatli, mehrli, shafqatli bo'lmog'i lozim. Dili yuksak insonga muhabbatli, kuchli kishigina gadoni ko'rganda, ular holidan kulmaydi, o'zi ega bo'lgan mol-mulki uchun Allohga shukrona aytgan holda muhtojlarga yordam beradi, yosh bolani ham ertangi kunning egasi sifatida hurmatlab, izzatini joyiga qo'yadi.

15-SABOQ

Uzoq asrlar silsilasida ot yigitning yo'ldoshi, uzog'ini yaqin qiluvchi ulov, ishini osonlashtirgan yordamchi bo'lib xizmat qilgan. Otning insonga beminnat yordami, fazilati, el osoyishtaligi, yurt obodligi sohasidagi xizmatlari haqida o'nlab dostonlar, yuzlab afsona va rivoyatlar, minglab qo'shiklar va masallar yaratilganki, hech qaysi hayvon ot kadar madh qilinmagan, qadrlanmagan. Sharqda faqat o'g'illar, yigitlarga emas, xotin-qizlar ham ot minishni, chavandozlikni, otda jang qilishni mukammal bilganlar. Tulpor otlarni minib, el orasida o'z xizmati bilan obru-e'tibor topish sharaf bo'lgan.

Bedovga mindingmi tushasan shunday,
El bilan bir bo'lsin kechang ham kunday,
Amalga mindingmi chiqma osmonga,
Osmondan tushguncha bo'lasan qumday.

Oddiy, sodda tuyulgan ushbu misralarda xalqona ma'nodorlil hayotiylik mujassam. Kimki bedov otga minmoqchi ekan, avvalo undan tushishni ham o'ylashi kerak Tushishni bilmaslik halokatga eltishi mumkin. Tulporga minmoq va tushmoqning hadisini olgan kishi o'zi mansub elni qadrlamasa,

hurmatlamasa, dardi bilan qiziqmasa e'tibordan chetda qoladi. Har kimga tunning kunday yog'duli bo'lishi el bilan birgalikda, elning orzu-umidi, istak va intilishini anglashida. Chunki shu el quvonchli va g'amgin lahzalarda unga hamdard bo'ladi, qayg'usiga sheriklik bilan diliga yog'du bag'ishlaydi. Ammo hali bu asosiy fikr faqat otga minib tushishni nazarda tutib uqtirilayotgani yo'q. Asosiysi, odamning amalga, mansabga minib, o'tirib eldan ajralib qolish fojeasini ta'kidlashda, eslatishdi. Mansabga minib dimog'i ko'tarilgan, oddiy mehnatkash kishilarni nazarga ilmay qo'ygan, o'zini osmonda sezgan odam otdan tushishini bilmay unga mingan kabidir. Otdan tushish qanchalik shart bo'lsa, amaldan ayrilish ham shunday muqarrar. Mansabdagi inson xalqni unutib, davolanib ketgan ekan, oqibati ham ayon. U mansab ko'kidan tushguncha qumday maydalanib, ezg'alanib, bo'laklanib ketadi. Chunki amaldagi fe'l-atvori, xulqi, el-yurtga e'tiborsiz bo'lgani uchun obru-e'tiborini yo'qotgan, xalqda o'ziga nisbatan nafrat uyg'otgan. Darvoqe, bu xalqona xulosa naqadar to'g'riligini bugungi kunimizdagi ba'zi amaldorlar qismatida ham ko'rish qiyin emas. Qanchadan qancha katta-kichik amaldor ma'lum payt mansab kibr-havosi bilan zamindan uzilib, osmonda bo'lgani bois ishdan ketgach, ayanchli ahvolga tushib qolmoqda.

16-SABOQ

Odamiylik qonun-qoidalari nihoyatda ko'p va xilma xil. Inson o'ziga berilgan qisqa umrda ularni izchil o'zlashtirib borish va qat'iy amal qilish orqaligina mazmunli hayot kechiradi. Shu sababli chiltonlar yosh yigitni xalq odobnomasidan ogoh, etishda davom etadi:

Birovning molini olma omonat,
Xizimating o'zingga bo'ladi tuhmat,
Kishining kiyimi turmas ustingda,

Odamsan odamga qilma xiyonat.

Har neki bo'lsa o'zingniki bo'lgani yaxshi. O'zgalardan omonatga mol olish yaxshi emas. Chunki birov molini so'raguncha qadding bir egiladi. Yalinasan, yolvorasan, ishlatib bo'lgach, qaytarishga va'da berasan. Ammo shunda ham mol egasi bermasa, kaddingning bukilgani qoladi. Ruhing tushib ketadi. Bordi-yu mol egasi ilojsizlikdan senga molini qoldirib ketganda ham, qaytib olarda ishonchsizlik bilan qaraydi. Semiz moli oriqlashganday, yaxshi moli eskirganday tuyuladi. Go'yo sen uni ishlatgan, undan foydalanganday ko'rinadi. Bu munosabat kayfiyatingni tushiradi, soEligingga ta'sir qiladi. xizmat qilib tuhmatga qoldimmi, deb ruhan ezilasan. Omonat mol birovga vafo qilmaganidek o'zganing kiyimini kiyish ham durust emas. Axir kiyim egasi kiyimini qachon talab qilib olishini yoxud qaerdadir minnat qilishini bilmaysanku. Bordi-yu omonatga mol olgan, o'zganing kiyimini ustingga kiygan bo'lsang ham, usha odamga, u kim bo'lishidan qat'iy nazar, xiyonat qilma. Ko'z ochib yumguncha o'tadigan, biron lahzasi qaytmaydigan hayotda insonga xiyonat qilish gunohi azim. Xiyonat tufayli do'stlar dushmanga aylanadi, el xor, yurt harob bo'ladi, oila buziladi, umr rishtalari uziladi. Xiyonat hech qaysi zamonda, hech qaysi xalqda ma'qullanmagan va xiyonatkor hech qachon saodatga erishgan emas.

17-SABOQ

Baxshining, demakki xalqning dono o'gitini tinglayotgan yosh qahramon o'z elining shodligi, baxti, yurtining osoyishtaligi uchun jasur va fidoyi kurashchi bo'lib yetishuvi ayon. U yurti ozod va obod, urush-janjallardan xoli asrash uchun safarbar etilgan ekan, o'ta ziyraklik aql-idrok bilan kishilar ruzg'orini buzishni emas, tuzishni o'ylashi lozim:

Bir daraxt ustida har xil meva bor,
Yeb ko'rsam barining ta'mi barobar,
Birov ruzg'orin buzmayin tuzsang,
Ikki jahonda ham bo'lmagaysan xor.

Daraxtdagi mevalar xajmi va rangi jihatdan farqlanishi tabiiy, ammo mazasi, ta'mi bir xilda. Surat har xilu siyrat, mohiyat o'xshash. Bu eyrda oddiy meva haqida gap borayotgani yo'q. Gap yigitning axloqi haqida, o'zgalarning jufti haloliga ko'z tikmaslik to'g'risida mashxur «Bibixonim va usta» rivoyatidagi turli gapgdagi tuxumning mazasi bir xilligi haqidagi xulosa, misrada ham jam. Muborak hadislarida ham begona ayolga yomon niyat bilan nazar tashlash qattiq Qoralanadi. Uchinchi-to'rtinchi misrada fikr yanada aniqroq ifodalanadi, ya'ni o'zganing oilasini mustahkamlashga hissa qo'shgan kishigina bu yorug' dunyoda xam, ul boqiy olamda ham xor bo'lmaydi. Baxshi aytilmoqchi bo'lgan fikrni nihoyatda noziklik ibo-hayo chegarasida bayon qiladi. Dastlabki ikki satrdagi mazmun bilan so'nggi misralardagi fikrni jamlasak xotin-qizlar bir jins, ya'ni bir daraxtdir. Ularning yoshi, qiyinishi, qaddi-qomati, xusni jamoli urtasidagi farqlar daraxtning turli shakldagi mevasi kabidir. Mevalar va ayollar suratidagi farqlar mohiyat birligini yo'qota olmaydi.

18 va 19-SABOQ

Dunyo yaralibdiki, uning muammolari butunlay xal bo'lmaydi. Inson uzoq asrlar silsilasida ezgulik va qabohat, boylik yo'lidagi kurash va mol-dunyo yetkazgan kulfatlarni xal etishga intilib kelmoqda. Bu ko'hna olamda nafs balosi insonlarni ne kuylarga solmadi, qanday pastkashlik munofiqlik yovuzliklarga qo'l urdirmadi. Butun yer yuzi bir shohga ham yetmay, yer osti boyliklariga ko'z olaytirdi, fazoga qo'lini uzattirdi va oqibat ko'zi bir siqim tuproqdan

to'yguncha dunyo boyliklaridan to'ymadi. Chiltonlar Go'ro'g'liga yana bir bor ushbu o'gitni uqtirib, bu hikmatni anglashga undadi:

Nafsingdan keladi vahmi qiyomat,
Yeyolmay ketganlar kimga qilar dod,
Tuproqdan boshqaga to'ymas bu ko'zlar.
Insof ham odamga katta bir ziynat.

Insofni ziynat deb bilganlar nafsini tiya oladi. Nafsini jilovlash esa juda og'ir va aqlga, fahm-farosatga, didga, donishmandlikka, iroda-idrokka bog'liq. Donishmand kishilar yana shuni anglaydilarki, inson qanchalik aqlli bo'lmasin xato qiladi. Axir Odam Atodek dastlabki ajdodimiz ham shayton vasvasasiga uchib, nafs balosi tufayli jannatdan quvilgan ekan, uning avlodlarini yaratgan Allohgina beayb, bexato. Donishmand kishi xato qilib qo'yganda, uni anglab yetishi, tuzatishi, qayta bunday holga yo'l qo'ymasligi, xatolarni mehnat bilan yuvishi lozim. Kimki astoydil mehnat qilsa, iqtisodiy yo'qlik, qashshoqlik azobini chekmaydi. Darvoqe, Alloh, ham sendan harakat, mendan barakat degan. Ayni damda o'z mehnati tufayli to'plangan boylik goxo kichik bir xato sababli kul kiri misol ketib qolishi mumkin. O'shanday damda boy berilgan mol-dunyo uchun qayg'urish, afsuslanish, gado bo'lib qolganda ham boylik uchun ezilish, so'Eligini yo'qotish aqlli kishining ishi emas.

Donishmand bo'lsa ham bo'lar xatosi
Ishlagan bo'lmaydi yo'qlik adosi
Molni der: - Qo'l kiri, goh kelib ketar,
Odamzod bo'lmasin farzand gadosi.

Ha, inson o'tkinchi davlatdan ayrilishi emas, birgina farzand gadosi bo'lishdek baxtsizlikdan saqlanmog'i darkor. Yo'qolgan boylik topiladi, gadolar

shohlikka erishishi, shohlar gadoga aylanishi mumkin. Biroq, farzandsizlik dog'i, alami har qanday yigitning qaddini dol, umrini zavol qiladi, hadsiz qayg'u - hasrat keltiradi.

20 –SABOQ

Osmonga tosh otsang boshingga tushar,
O'limtik qo'shni ko'r mosliqni tishlar.
Bir mardning izidan kulib kamsitma,
Qo'lingdan kelarmi u qilgan ishlar.

Qodir baxshining mahorati, ulkan iste'dodi, o'ziga xosligi shundaki, chiltonlar-homiylar tomonidan aytilayotgan har bir o'gitni yodda muxrlanadigan tarzda, real hayotdagi, odamlarga tanish voqea, hodisa yoxud tabiatdagi biror jonvor yo o'simliklar bilan chambarchas bog'liq holda uqtiradi. Yuqoridagi to'rtlikda ham buni ko'rish mumkin. Kimki behudaga osmonga tosh otar ekan, oqibat u boshiga tushib, unga ozor yetkazishi tabiiy. Avvalo osmonga behuda tosh otish aqlsizlik oqibatni o'ylamaslikdir. Shu aqlsizligi tufayli o'zi otgan toshdan o'zi zarba yeydi. Ikkinchi misrada o'limtik qushga e'tibor qaratiladi. Ko'pchilik qushlar, xususan, burgut yoki lochin och qolganda o'zi ov qilib, o'zi qo'lga kiritgan o'ljasini halol esa, shu oilaga mansub g'ajir o'limtikni boshqalar xizmati bilan yoxud o'zi o'lib, sasib ketgan go'shtni, mosliqni yeydi. Ana shu ikki hayotiy xulosa - osmonga otilgan toshning otgan kishi boshiga tushishi va g'ajirning sasigan go'sht yeyishi asosiy fikrni aytishga zamin hozirlaydi. Odam o'zini bilmay, anglamay, bir mardning izidan kulmasligi, kamsitmasligi kerak. Kimki o'zgani kamsitsa, uning ustidan kulsa, osmonga tosh otib boshi yorilgan kishi yoki sasigan go'shtni yeydigan, o'lamsaxo'r g'ajirdan farqi yo'q. Chunki behuda kamsitilgani, kalaka qilingani uchun o'sha mardning o'zi yo boshqa birov qasd olishi mumkin. Ammo o'zgani kamsitayotgan kishi aqli

yetmaganidan, oqibatini o'ylab ko'rishdan, fikrlashdan maxrumligidan shu xatoga yo'l qo'yadi. Darvoqe, hayotda hamon o'zining aqlsizligi, uquvsizligi, qobiliyatsizligini sezmagan holda halol, mehnatsevar, dono, axloqli kishilar ustidan kuluvchilar mavjudligi ulardan ehtiyot bo'lmoqlikni talab etadi. Kishilarni behuda ayblash, kamsitish bilan hech kim hali muvaffaqiyat qozongan, baxtga erishgan emas.

21-SABOQ

Tabiatning sarvari bo'lgan inson o'z aqli, taffakkuri, tili bilan jamiki jonli mavjudotlaru jonsiz narsalardan ustun turadi. U hayot yo'lidagi xavf-xatarlarni sezishga va yengishga qodir. O'sha mavjudotlarning hech qaysi odamni yengolmaydi. Faqat bir xavf borki, u hamisha yaxshi insonlarni badnom qilishga, umrini zavol etishga xizmat etadi. Odamdan odamga keladi bu xatar.

Odamdan odamga kelar xavf-xatar,
Sut bilan kirgan so'z jon bilan ketar,
G'iybatchi insonni qo'shma insonga,
Ul murdor zaharli ilondan battar.

Bu xavf yaqin kishisi, hamkasbi, qarindoshi, do'stu o'rtog'ining yutuqlarini ko'rolmaslik orqali to'qilgan g'iybat, malomat, bo'xtondan boshlanadi. G'iybatchi boshni ham yormaydi, pichoqlamaydi ham, otmaydi, osmaydi, kaltaklamaydi ham. U jismoniy kuch ishlatib tanga jarohat yetkazmaydi, balki turli malomatlar bilan miyaga, yurakka hujum qiladi. Qilmagan ishlarni qildi deb elga yoyishi, g'iybatchining mish-mishi insonni ruhan ezadi. Ruhiy iztirob yurakni ishdan chiqaradi, miya hujayralarini o'ldiradi va oqibat inson hayotiga zomin bo'ladi. Shu bois g'iybatchilar qotillar, jallodlardan yomon. Ularning ilondan battarligi shundaki, ilonning

dushmanligini, zahar solishini inson biladi va chaqtirmaslikka harakat qiladi. G'iybatchi esa odam shaklida sen bilan yonma-yon yashaydi, xatto hamkorlikda ishlaydi, birga ziyofatlarda qatnashadi: ishonchingni qozonib yaqin kishingga aylanadi va kutilmaganda zimdan zaxrini sochishni boshlaydi. U g'iybat qilayotgan kishini obro'sizlantirish, xastalantirish, vazifasidan oldirish bilan lazzatlanadi, g'iybatchilar ham osmondan tushmagan yoki besabab g'iybatchi bo'lib qolmagan. Bu kasallik unga naslidan o'tgan: «sut bilan kirgan so'z jon bilan ketar». Demak oila muhitida u g'iybatu malomatga o'rgangan. Shu bois ularni tuzatish qiyin. Xalq. shunday murdorlardan «Yo qochda qutul, yo tinda qutul» deydi. Hamma zamonlardagidek bugungi kunda ham ularning urug'i serob. Xatto professional (kasb qilib olgan) g'iybatchilar ham uchraydi. Ularga duch kelmaslik g'iybatining ob'ekti bo'lib qolmaslik faqat omad keltiradi.

22-SABOQ

Dunyo yaralibdiki, yaxshilik va yomonlil ezgulik va yovuzlik adolat va zulm, diyonat va xiyonat, hayo va behayolik ma'rifat va jaholat yonma-yon, bir-biri bilan kurashib yashaydi. Ularning boshida turadigan ham, boshqaradigan ham, shu abadiy jangning mangu qurboni ham odamzod. Dastlab kimdir kimni Kamsitadi, qilgan ishidan xato topadi, so'ngra g'iybatu mish-mishlarga o'tadi va oqibat bir-birini yiqitish bilan zavqlanadi.

Ko'z ochib yumguncha o'tadi davron,
O'tgan kun qaytmaydi bu shunday zamon,
Axmoqlar bir-birin aslo ko'rolmas,
Odamzod odamni yiqitar hamon.

Aslida bunaqa odamlar odam deyishga arzimaydi. Ular o'z umrining o'tkinchilipshgini, yashash ko'z ochib yumguncha o'tadigan fursat ekanligini

o'ylab ezgulikka intilmaydilar. Besh kunlik dunyoda goh boylik goh shon-shuhrat deb bir-birining poyini qirqish, tagiga suv quyish, yiqitish bilan shodlanadiganlarni faqat axmoklar deb baholash mumkin. Eng yomoni axmoqlardan aqllilar, donolar va yurt manfaatini himoya qiluvchilar, rahmdil va shafqatli kishilar ozor chekadi.

23-SABOQ.

Biz negadir odamlardagi yaxshi jihatlarni ham, yomon xususiyatlarni ham hayvonlar yoxud o'simliklarga qiyoslaymiz. Sherday dovyurak yoki tulkiday ayyor tarzida atrofimizdagalarga baho beramiz. Bu ularning xatti-harakati, yashash tarziga ko'ra aytiladi va shubxasiz hamisha inson barcha jonlilardan ustun degan xulosaga kelamiz. Shu bois hech qaysi hayvonni odamga qiyoslamaymiz.

Hayvonni hayvon deb bilmoqlik darkor,
Odamlar ichida hayvonsifat bor.
Aqli hech bo'lmagan axmoq do'stingdan,
Kamchilab ursangda iting vafodor.

Hayvon hayvon bo'lganidan uning qiliqlari. xatti-harakatlaridan hech kim xafa bo'lmaydi. It qopishi, eshak yiqitishi, sigar adashib ketishi va h. k. bo'lishi mumkin. Ammo odam odam bo'lib, odam qilmaydigan qiliqlarni qilsa, ya'ni masalan, kulda ag'nab yotsa, og'ziga kelganini qaytarmay sayrayversa (valdirasa), it qopganday malomat bilan dilingizni jarohatlasa, ilonday zaxrini sochsa va h.k. da uning insonligi qoladimi, shu tabarruk nomga loyiqmi? Bunday kimsalarning shakli-shamoyilini inobatga olmasa hayvondan battar. O'z oilasiga, qarindosh-urug'iga, do'stu-birodarlariga, el-yurtiga oddiy itchalik sadoqat ko'rsata bilmagan, kimning foydasi tegsa shunga sajda qilib, alqab,

olqishlab, ozgina ranjitsang, yo yordaming tegmasa, yoxud xato-kamchiligini aytsang o'zini chetga olgan, senga dushmanga aylangan kishidan odamgarchilik kutish mumkinmi? Aslo! Boyliging, mansabing, mavqeing bo'lganda parvona misol yoningda turgan do'stlar, do'st bo'lib ko'ringanlar boshingga ish tushganda qochib ketadi. Unday aqlsiz, sadoqatsiz do'stlardan kaltaklab, quvalab ursangda, bergan tuzingni qadrlab, umri bo'yi sadoqatlik bilan xizmat qilgan vafodor it afzal emasmi? Albatta afzal. Buni hamma bilavermaydi-da.

24-SABOQ.

Mard odam shul, gapni aytsa yuziga,
Yo'lbars yurib hech qaytmagan iziga.
Gapga uchish bilgin ko'rlik belgisi,
Ko'zi borlar uchmas birov so'ziga.

Xalq to'g'ri so'zni qadrlaydi va hamisha achchiq bo'lsa-da, haqiqatni gapirishni yaxshi ko'radi. Ayni damda har qanday achchiq, haqiqatni, fojeali holatlarni ham muloyim holda, asabga tegmaydigan, so'zga salbiy ta'sir qilmaydigan tarzda ifodalashni ham. Masalan, hech kim boshqa bir kishiga «Palonchi o'libdi» demaydi, balki shu ma'noni «ketibdi», «o'tibdi», «omonatini topshiribdi», «bu dunyo azobidan qutilibdi» va hakozo tarzida yetkazadi. Xalq, «Yerni suv buzar, elni so'z buzar» deganda, yolg'on-yashiq mish-mishlar, dedidilar, malomatlarning odamga ta'sirini nazarda tutadi. Xalq, nazarida ilohiy qudratga ega bo'lgan so'zga mas'ul turish, hamisha rost gapirish, kishining aybini yuziga aytish va to'g'rilikka, aybdan, gunohdan, xatodan xoli bo'lishga undash mardlik jasorat belgisidir. Mardni yo'lbarsga qiyoslaymiz. Demak yigit jasurlikda yo'lbarsdek ekan, u o'z atrofidagi kishilar aybini ko'rganda ham tap tortmay yuziga aytsin. Aqlli odam ko'zi bilan ko'rmay, yuzma-yuz turib quloq bilan eshitmay birovlarining mish-mishiga ishonmaydi. Agar u har xil dedi-

dedilarga ishonib, haqiqatni aniqlamasdan ish tutsa, qalban va ruhan ko'rdir. Turli ig'volarni toquvchi, birovga tegishli sirni, gapni uydirmalar bilan o'zgaga yetkazuvchilardan saklanish, ularning gap-so'ziga ishonib gap quvishdan asralish lozim. Chunki xalq aytadi: «Gap quvgan baloga yo'liqadi».

25 va 26-SABOQ.

Muqaddas ilohiy kitobimiz «Qur'oni karim» suralarining 6 tasidagi 9 oyatda ota-onalarning ulu'g'ligi, ularni qadrlash takror-takror uqtiriladi. Jumladan, «Al-isro» surasining 23-24-oyatlarida quyidagi muqaddas so'zlar nozil etilgan: «Parvardigoringiz, yolg'iz uning o'ziga ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab «uf» tortma va ularning (so'zlarini) qaytarma. Ularga (doimo) yaxshi so'z ayt! Ular uchun mehribonlik bilan xorlik qanoatini past tut-xokisor bo'l va: Parvadigorim, meni (ular) go'daklik chog'imdan tarbiyalab-o'stirganlaridek sen ham ularga rahm-shafqat qilgin», deb (haqlariga duo qil)!».

Shu oyatlardan ayon bo'lmoqdaki, insonning birinchi vazifasi Allohga ibodat qilish bo'lsa, ikkinchi vazifasi, burchi ota-onaga yaxshilik qilishdir. Ota-ona qaysi dinga, millatga mansubligidan qat'iy nazar, farzand ularga nisbatan hurmatda bo'lishi, so'zlarini qaytarmasligi, ularga nisbatan yaxshi niyatda bo'lishlari shart. Chunki shu ulug' zotlar farzandning bu yorug' olamni ko'rishlari, yashashlari sababchisidir. Ota-onaga bo'lgan cheksiz muhabbat xalqimizning eng go'zal qadriyatlaridan biri darajasiga ko'tarilgan va asrlar davomida qon-qonimizga singgan. Har bir avlod ota-ona va farzandlar orasidagi ilohiy muhabbatni o'gitlar tarzida, shaxsiy namuna ko'rsatish asosida, badiiy ijod vositasida so'nggi avlodga singdirgan.

Ota bilan yashar ushbu basharyat,

Farzand uchun ota oltin imorat.
Yomon bo'lsa hamki ota ulug'dir,
Ketgan bo'lsa qil qabrin ziyorat,

deya chiltonlar yosh Go'ro'g'liga otaning ulug' insonligini, uni qadrlash, e'zozlash lozimligini uqtiradiki, to'rtlikdagi ma'no muqaddas kitobdagi ma'noga yaqin turadi, Zero, otalar bo'lmasa, bashariyat bo'lmaydi. Har bir farzand o'z otasini tengsiz xazina bilmog'i, uni zarracha xafa qilmasligi, ko'nglini qoldirmasligiga burchlidir. Garchi ota o'zgalar nazarida yomon bo'lsa-da, farzand uni hamisha yaxshi deb bilmog'i, hurmatini joyiga qo'ymog'i shartdir. Chunki o'zganing yaxshi otasi emas o'zining yomon otasi dunyoga kelishiga unib-o'sishiga, xayotdan zavqlanishiga sabab bo'lgan. Xalqda: «Otang cho'chqa bo'lsa bog'lab boq»-degan ancha qo'polroq naql bor. Albatta, hech vaqt ota cho'chqa bo'lmaydi, ammo cho'chqa tabiat bo'lishi mumkin, aqlli ug'il yoki qiz otasining, yomon fe'l-atvorini aytib jar solishi, yoxud noo'rin xatti harakatlari sabab rad etishi, tan. olmasligi gunohdir. Balki farzand sifatida otaning xatolarini kechirib, kamchiliklarini yashirib, rozi qilish farzu qarzdur. Behudaga ota rozi-xudo rozi deyishmaydi.

Farzand uchun ota qanchalar ulug' bo'lsa, vujudida o'stirib dunyoga keltirgan, oq sut berib tarbiyalagan ona yanada buyukdir, e'zozga loyiqdir. Shu tabarruk zotning mehri, muhabbati, fidoiyligi, qanchadan-qancha uyqusiz tunlarda tortgan cheksiz tashvishlari evaziga farzand kamolotga erishadi:

Ona ko'rsatadi jahon yuzini,
Olinga bit har bir aytgan so'zini,
Birisi oy bo'lsa, biridir quyosh,
Tavob ayla bosib ketgan izini.

Ota-ona haqida bu quyma misralar ulug' bobomiz hazrati Alisher Navoiy fikrlariga hamohangdir. Ammo xalqda davomiylik kuchliroq. Ya'ni farzandning ota-ona oldidagi burchi ularni tiriklik paytidagina e'zozlash emas, balki vafotidan so'ng ham har qachon bosgan izlarini tavob aylab, qabrini tez-tez ziyorat qilib, duo bilan yodlab turmoq shart.

27-SABOQ

Inson shunday yaralganki, uning har bir a'zosi yashash omili bo'lish, ma'lum belgilangan vazifani bajarish, o'zaro aloqalarni, ijtimoiy munosabatlarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Fan har kim o'z a'zolarini aql-idrok bilan ishlatishida. Aql-idrok, qobiliyat, talant faqat irsiy xususiyat bo'lmay, olingan tarbiyaga ham bog'liqdir. Go'daklikdan to'g'ri tarbiya olgan inson, xalq, ma'qullaydigan axloqiy fazilatlarga ega bo'ladi, el yurt manfaati uchun xizmat qiladi.

Odamzodga bergan xudo ko'zu qosh,
O'ylab gapir, deb beribdi yana bosh,
Yolg'iz otning changi chiqmas hech qachon.
Har joydan orttirgan oshno, qarindosh.

Akli raso odamlar behuda imkoni yo'q orzu havasga, berilmaydi, qo'lidan kelmaydigan ishga o'rinmaydi. Chunki har bir ishning bajarilishini puxta o'ylaydi ko'z bilan chamalab ko'radi. Ayni damda katta ishlarga kirishishdan oldin o'zgalar bilan maslahatlashadi, yaqinlarining yordamiga suyanadi, xalq ma'qullamagan ishlarni bajarishga behuda harakat qilmaydi. Yolg'iz otning qancha yugursa ham changi chiqmasligi, dovrug'i taralmasligi ayon. Shu sababli odam qanday ezgu ishga qo'l ursa, safar qilib qayerga yursa,

odamlar bilan o'ylab munosabatda bo'lish, shirin til bilan muomala qilish, har ishda, har joyda oshna, do'st topish faqat omad keltiradi.

28-SABOQ

Ko'rmayin bir ishning bo'lma shaydosi,
Katta bilgin bo'lsa dushman maydasi,
Balodan qutul deb bergan yolg'ondi,
Boshqaga yolg'onning yo'qdir foydasi.

Inson farzandi o'smirlik va yigitlik davrida har. ishga qiziquvchi, o'zini har ishni bajarishga qodir deb biladi. O'zi bajarmoqchi bo'lgan vazifaning kasbning mashaqqatli tomonlarini ko'pam o'ylab ko'rmaydi. El nazarida har bir ishning murakkabliklarini anglash, shu qiyinchiliklarni yengish yo'llarini bilish lozim. Tashtqi tomonga qarab shaydo bo'lish oqibati yaxshi bo'lmaydi. Xuddi shunday dushmanni kuchsiz bilib, uning har qadamda zarba berishini unutish ham kulfatni, g'am-qayg'uni oshiradi. Dushmanning mayda kattasi bo'lmaydi. U hamisha, har joyda dushmandir. Dushman har kimning yo'lidagi ofat, balodir Yaxshilar o'z raqibidan saqlanish, unga zarba berish, uni maElub etish yo'llarini bilmog'i shart. Dushmandan qutulish, balodan omon qolish uchun yolg'on gapirish ham mumkin, chunki yolg'on balodan qutulish uchungina berilgan. Ammo boshqa paytda yolg'on aytish, qarindosh-urug'', do'st-og'ayni, umuman odamlarni aldash katta gunoh. Darvoqe, yolg'onlar bir kunii albatta fosh bo'ladi va yolg'on so'zlovchi og'ir iztirobga, uyatga qoladi. Yon atrofimizda yolg'onchilar qanday e'tibordan qolganini ko'rsatuvchi misollarni istagancha keltirish mumkin. Shu o'rinda birgina Hazrati Alisher Navoiyning «Sher bilan Durroj» xikoyasini eslash kifoya.

29-SABOQ

Dostonlarda yurtsevarlik yurt ozodligi va obodligi mavzusi asosiy o'rinda turadi. Darvoqe har bir epik kahramonning alohida xizmati, obrue'tibori, uni yuksaklikka ko'targan holat ham vatanparvarlikdir. Hamisha yaratuvchi, ijodkor xalqning o'zi vatanni sevganidan, uning o'zi yashagan zaminni gullab yashnashini ko'rish istagidan dushmanga mavx bo'lmaydigan, yurt tinchligi va obodligi uchun kurashlarda badaniga o'q o'tmaydigan, qilich kesmaydigan, nayza teshmaydigan, o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan qahramonlar obrazini yaratadi. Islomgacha va islom dini qabul qilingandan so'nggi davrlarda ham yurtning har qarich yeri, har, siqim tuprog'i muqaddas sanalgan va shu qutlug' zaminda yashaydigan qarindosh-urug'', tanish-bilish, ya'ni yurtdoshlar el bo'lib Vatanga, oilaga mehr qo'yib, sevib, ardoqlab, o'z bunyodkorlik mehnati-la gullatib yashnatganlar. Kindik qoni tomgan, unib-o'sgan yer, ya'ni Vatan tavob qilishga arziydi va xalq mehru muhabbatiga loyiq o'z xalqi, o'z yurti uchun peshona terini to'kish, butun ongli hayotini sarflab xizmat qilish yigitning muqaddas burchidir. Ammo taqdiri azal shundayki, inson o'z yurti va elidan ayri tushishi, musofirlik mashaqqatlarini boshdan kechirishi ham mumkin. O'shanday lahzalarda begonalar orasida yurtu xalq sog'inchi dillarni o'rtaydi. O'zga yurt, o'zga elda musofirlikdagi hijron azoblarini yengib, qiyinchiliklarga bardosh berib, begonalarga o'zining, elu yurtining sir-asrorini sezdirmay ehtiyotkorlik bilan yashash darkor.

Tavob qilgin o'ynab-o'sgan yeringni, .
O'z xalqingga tukkin manglay teringni,
Har narsadan musofirlik yomondir,
O'zga elda do'stga aytma siringni.

30-SABOQ.

Bu hayot shunday yaralganki, hech kim o'zicha odamlardan, hayvonotu qushlar, o'simliklar dunyosidan ayri yashay olmaydi. Kim bo'lishidan qat'iy nazar yon-atrofdagi kishilar bilan aloqa qilib, ulardan nimadir olib, evaziga nimanidir berib, nimanidir o'rganib, nimanidir o'rgatib, tabiatdan oziqlanib umrini o'tkazadi. Shunday xollarda ham aql-zakovat zarur bo'lib, oldi-berdilar insonni o'z imon-e'tiqodidan ayirmasligi, nokas oldida mute, itoatkor qilib qo'ymasligi darkor.

Oldi-berdi bog'lamasin qo'lingni,
Bo'ydoq bilmas ahvolingni holingni,
Ochdan o'lsang qarz olma nokasdan,
Qarz bersang ber deb aytma molingni.

Oldi-berdi qo'lnigina bog'lab qo'ymaydi, dilni ham bog'laydi. Dilning oldi-berdiga bog'lanishi esa odamnigina emas, jamiyatni ham izdan chiqaradi. Chunki hamma oldi-berdisiz ish bajarmay qolsa, o'sha jamiyat izdan chiqadi. Bordi-yu oldi-berdi qilganda ham odam o'z tengini topishi lozim. Har bir shaxs o'z uyi, aqli, axloqi, fahm-farosati, didi, iqtidori, ruhiyati iqtisodiy, ma'naviy-maishiy yashash tarziga egaki, ruzg'orli ruzg'orsizning, boy kambag'alning, bola kattalarning tashvishli dunyosini anglayvermaydi. Bir rivoyatda aytilishicha bir kishi xotiniga «Bo'ydoq mexmonga kelganda butun non qo'y!»-deb buyuribdi. Xotin buning sababini so'raganda, er shunday deb javob kaytaribdi. «Oilali, ro'zg'orli odam yetishmovchilikni, ro'zg'orda hamma narsa to'la-to'kis bo'lmasligini biladi va uyida ham shunday holatlar bo'lib turgani uchun sir saqlab, qanoat qilib hech kimga gapirmaydi. Bo'ydoq esa oiladagi kamchiliklarni anglamagani, bilmaganidan «Siniq (bo'laklangan)» non qo'ydi deb malomat qiladi». Darvoqe, ro'zg'orda nimadir yetishmay turganda insonlar bir-biridan yordam oladi. Shulardan biri qarz olishdir. Qarz olish, qarz so'rash og'ir. Avvalo inson majbur bo'lganidan, ilojsizlikdan qarz so'raydi. Ikkinchidan,

qarz so'rovchi qarz so'raguncha ming xil o'yga boradi, ruhan eziladi, qiynaladi, tikka qaddini dol qilib borganda, o'zida bor odam qarz bersa-ku yaxshi, yo'q deb qaytarsa qanchalar og'ir.

Shu sabab qarzni ham nokaslardan emas, mardlardan so'rashni bilish kerak Nokasdan qarz olsang har joyda minnat qiladi yoki qaytarguningcha so'rab holi-joningga qo'ymaydi. Hadisi sharifda sadaqaga bir savob yozilsa, qarz berganga ikki savob yozilishi aytilgan. Chunki sadaqa boridan ixtiyoriy beriladi, qarz esa ilojisiz kishiga beriladi. Garchi savob bo'lsa ham nokasga qarz berilmagani ma'qul. Sababi u olgan qarzini qaytarib bermaydi. Islom mafkurasida qarz olib bermaslik qarz olgan kishidan vaqtida qaytarishni so'ramaslik qattiq Qoralanadi. Behudaga biron kishi vafot etganda, janozadan oldin marxumning kimdan qarzi borligi yoxud kimga qarz bergani so'ralib rozilashilmaydi. Inson u dunyoga qarzdor bo'lib ketmasligi, bu dunyoda berilmay qolgan qarzi ham qolmasligi lozim.

31-SABOQ

Odamzodda ado bo'lmas hislat bor,
Bilsa zardir, bilmaganlar xoru zor.
Shirin ham til, achchiq ham til, bilib ol,
Til bilan toshni ham eritsa bo'lar.

Alloh insonni ulug' qilib yaratgan, u bu yorug' olamning sarvari, gultoji bo'lib, ming bir hislatga egadir. Dunyodagi jami go'zallik inson uchun. Ammo bu tengsiz go'zallikdan qanday bahra oladi, hisobsiz rizq-nasibasidan qanday foydalanadi, tabiatdagi hayvonot, o'simliklar dunyosiga, narsa-predmetlarga qanday munosabatda bo'ladi? Endi bu uning aqliga, intilishiga, sezgirligiga, zukkoligiga, idrokiga, irodasiga, fikrlashiga, tiliga, o'zini tuta bilishiga, tafakkuriga bog'liq. Har ne ishni, maqsadni orzu qilib, yaxshi-yomonni, past-

balandni, oq-qoarni farqlab bosiqlik o'ylov bilan harakat qilsa niyatiga yetadi. Fe'li kenglik bosiqlik shoshmaslik behuda tajang bo'lavermay yetti o'lchab bir kesgan holda ishga kirishishi muvaffaqiyatlar asosidir. O'zini ham o'zgalarning ham yaxshi-yomon hislatlarini sinchiklab o'rganish, zargarona mahoratni talab qiladi. Ammo odamni anglash, yaxshi fazilatlarini kashf etish, tashvishlarni yengish lozim. Yon-atrofimizdagi kishilar harakterini o'rganib muomalaga kirishsak fikrimizni shirin til, samimiyat bilan hurmatni joyiga qo'ygan holda tushuntira bilsak har qanday mushg'ulot hal bo'ladi, qanchalik qiyin bo'lmasin rejshtashtirgan ishimiz amalga oshadi. Shirin so'z toshlarni, tosh qalblarni ham eritishga qodir va aksincha qo'rslik qo'pollik achchiq so'z esa bitadigan ishni bitkarmaydi, dilga jarohat soladi, dushmanlikni yuzaga keltiradi. Dushmanlik esa urushlarga, urushlar chek-chegarasiz falokatlar, g'am-g'ussalarga duchor qiladi. Shu sababli ezgulik baxtiyorlik omad istagan har kim avvalo tilga e'tibor bermog'i lozim.

32-SABOQ

Xalqda: «Kengga keng dunyo, torga tor dunyo» degan maqol bor. Ya'ni bu aqli teran, dunyoqarashi, fikri keng odam dunyoni atroflicha, har tomonlama to'kis anglaydi. Ichi Qora, fe'li tor, ko'ngli nopok odamga bu cheksiz olam juda siqiq tor bo'ladi, degani.

Fe'li tor odamga bu dunyong ham tor,
Donolar g'oyibdan oladi xabar.
Podsholar shoshmaydi, hukm aytishda,
Gunohsiz bechora bo'lmas gunohkor.

Har bir odam fe'lini keng qilishi, bo'lar-bo'lmas voqea-hodisa, narsadan siqilavermasligi kerak. Siqilish odamning ko'ziga go'zal olamni fayzsiz, zavqsiz

qilib quyadi va yashaydigan uyi, mahallasi, yurti, bu ulkan zamin, cheksiz koinot ko'ziga tor ko'rinaveradi. U shu ruhiy holat tufayli o'z yaqinlari, qarindosh-urug'lari, tanish bilishlarining ham diliga ozor yetkazadi. Fe'li kenglik oddiy kishi uchun qanchalik lozim bo'lsa, amaldorlar, to'ralar, hokimlar, podsholarga undan ming marta ziyoda keraklidir. Chunki hukmdor butun bir yurtning, xalqning obodligi, baxtiyorligi uchun mas'uldir. Mamlakatdagi osoyishtalik adolat, elning to'kin-sochinligi hukmdorga bog'liq. Shu boisdan podsho davlatning barcha ishlarida, xususan, hukm, farmon chiqarishda har qachon o'ylovli, mulohazali bo'lishi, shoshmasligi lozim. O'shanda gunohsizlarni behuda, nohaq jazolash, adolatsizlikka yo'l quyish, qilgan ishidan pushaymon chekish bo'lmaydi. Bu hislat hozirgi har bir katta-kichik rahbarda ham bo'lishi shart. Zero, qanday jamoa bo'lmasin uning yutuqlari, shon-shuhrati rahbarning keng fe'lliligi, jamoa a'zolariga nisbatan adolatli, samimiy muomalasiga bog'liqdir.

33-SABOQ.

Xalqda «Nazar tegmay bek bo'lmas» deyilsa, hadislarda «Adolatli shoh Allohga yaqindir» deyiladi. Zotan, shohlik hukmdorlik martabasiga erishish nihoyatda sharaflil bo'lib, komillikni, og'ir mashaqqatni, sabr va bardoshni ham talab qiladi.

Chunki: Shohlikda bo'ladi behisob davlat,
Davlati qaytgansan beshik saltanat,
O'z xalqi, o'z eli farzand misoli,
Agar qila olsa yurtda adolat.

Har bir shoh qaysi mamlakatga ega bo'lmasin uning behisob davlati bo'ladi. Davlat-bu o'sha hududning aholisi, yer osti va usti boyliklari. Yurti

osoyishta saqlash, xalqning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'la qondirish, aholi o'rtasidagi mehr-oqibat, imon-e'tiqodni mustahkamlash shohning zimmasidagi vazifadir. Bularga hukmdor adolati, qat'iyati, mardligi, zukkoligi bilan erishadi. Darvoqe, yaxshi xulq ham odamning bebaho davlatidir. Bordi-yu, podsho adolatni unutsa, davlat qaytadi. Davlatning qaytishi osoyishtalikning buzilishi, xalqning noroziligi va norozilik adolatsizlik tufayli har kishining o'z ishini bajarmasligi qashshoqlikka olib keladi. Bunday bo'lishini istamagan shoh adolatni mustahkam ushlashi kerak. Qul ostidagi odamlarga o'z farzandidek g'amxurlik qilishi, mehribonlik ko'rsatishi lozim. Shunda xalq ham hukmdorini ota deb qabul qiladi, qadrlaydi.

34-SABOQ

O'z yurtini sevgan, xalqiga otalardek g'amxo'r bo'lgan adolatli shoh saltanat, shon-shuhrat abadiy emasligini anglab yetadi. Bu esa g'arazgo'y bo'lishga yo'l qo'ymaydi. G'arazgo'ylik ko'rolmaslik be'manilikdir:

Abadiy turmaydi odamning joni,
G'arazgo'y bo'lmoqlik o'zi bema'ni,
Podsholar podshoga qadimdan dushman,
Dushmanni do'st qilar aql sultoni.

Odam qanchalik izzat-hurmat, obru-e'tiborga erishib boraversa, g'anamlari, shuhrat-shonini ko'rolmaydigan dushmanlari ham shu qadar ko'payib boradi. Gadoning dushmani gado bo'ladi deganlaridek podshoning g'animi podsho bo'ladi. Podsholarning g'animligi esa urushlarga olib keladi. Shu sababli aqli hukmdor dushmanni do'st qilish, shu bilan balo-ofatlarning oldini olish choralarini izlab topishi kerak. Aql sultoni bo'lgan har kim birov bilan janjallashishdan, o'ziga dushman orttirishdan saqlanmog'i lozim.

Yoshning ham, keksaning ham do'sti qancha ko'p bo'lsa, do'stni qanchalik ko'paytirsa shodu xurram, baxtiyor yashaydi.

35-SABOQ.

Yer yuzida podsholiklar ko'p bo'lgan. Tarixda bir hukmdorning nomi adolat timsoli sifatida shon-shuhratga burkanib qolgan bo'lsa, o'zgasi zolim va qonxo'r sifatida qarg'ishlarga ko'milgan. Hamisha tinchlik va osoyishtalikni yaxshi ko'rgan Alloh, adolatli shohlarni o'ziga yaqin olib, zolimlarga bu dunyodayoq jazo berganiga misollar ko'p. Kimki yurtga hukmdor bo'lar ekan bu haqiqatni yoddan chiqarmasligi shart. Shod fahm-farosatsiz, boylikka o'ch, el-yurtga bee'tibor bo'lganda ocharchilik xonavayronlik ro'y beradi. O'z yurtidagi boylikka qanoat qilmay o'zga hududlarga urush qilgan, shahar va qishloqlarni kunpayakun etgan, begunohlar qonini to'kkan podsholar lanatga loyiqdir.

Bir elga urushni qilma ixtiyor,
O'lganlar soniga bo'larsan xundor,
Yurtingga kirganni aslo ayama,
O'zi qilgan ishga o'zi javobgar.

Yovuz niyatda qo'lda qurol bilan o'zga yurtlarga bostirib kirish, keksayu yosh, erkagu ayolning joniga zomin bo'lish nechog'lik katta gunoh bo'lsa, o'z elingga hujum qilgan, yurtingni talamoqchi, xalqingni qul qilmoqchi bo'lgan bosqinchilarga qarshi mardona jang qilmoq qahramonlik ko'rsatmoq shu qadar savob, sharaf va burchdir. Inson muqaddas tuprog'iga murdor qadamini qo'ygan dushmanga qarshi kurashi bilan o'zining haqiqiy yurtsevar, elparvar ekanini ko'rsatadi. Dushman boshini yanchish gunoh emas. Chunki u o'zi urushni, o'limni ixtiyor etdi va qabih niyatiga yarasha jazo olishi shart.

36-SABOQ

Yaxshidan, yomondan birday nom qolar.

Har kim qilganiga haqini olar.

Yomonga la'natdir, yaxshiga rahmat.

Yaxshini bu olam ardoqlab kelar.

Aytishlaricha, bu dunyo sinov maydoni ekan. Odamning tug'ilib, unib-o'sib qilgan ishlari, Alloh bergan umrni nimalarga sarf etgani shu yorug' dunyoda kechirgan hayoti orqali hisob-kitob qilinarkan. Ammo sodda, jaydari va aniq tushuncha shuki, barcha kishilarni ikkiga-yaxshi va yomonga ajratib baxolashga o'rganganmiz. Inson farzandi haqida hukmimiz shu ikki so'zda jamlangan. Hayotlik paytida kimki yaxshi sifatida qadrlansa yoxud yomon deb qaralsa, vafot etganidan so'ng ham shu hislatlari bilan xotirlanadi. Tiriklik paytida bajargan ezgu amallari yoxud qabixliklari avlodlar tomonidan e'tirof etiladi. Buni har kim anglab yetishi lozim. Yomon odamning faqat o'zi yovuz kirdikorlari azobini tortmaydi, balki farzandlari ham yomon ota yoki ona tufayli g'am-alamga duchor bo'ladi, ajdodlari qilgan yomonlik uchun qaddi egiladi. Yaxshilarni esa odamlar hurmat-izzat bilan eslaydilar, ezgu ishlarini targ'ib etib, o'g'il-qizlariga ham mehr-oqibat ko'rsatadi. Asrlar mobaynida yaxshilarning fazilati, xalqi va yurtiga qilgan savob ishlari tildan-tilga, avloddan-avlodga o'tib yashayveradi. Ezgu amallar juda ko'p va xilma-xil bo'lib, asosiysi insonni qadrlash, beva-bechora, yetim-yesir, qashshoqlarga yaxshilik qilish, muxtojga yordam berish, katta-kichikning ko'nglini qoldirmaslikdir.

37-SABOQ

Hayotda yaxshi nom qoldirish uchun shoh yo amaldor bo'lish, yuksak qasrlar qurish shart emas. Har kim o'zining ko'pchilik manfaatiga xizmat qiladigan kichik bir ishi, to'g'rilikka boshlaydigan bir og'iz shirin so'zi bilan ham olqish olishi, nomini abadiyatga qoldirishi mumkin. Bog'bonning yaxshiligi undan qolgan bog'da, ustozning yaxshiliga munosib shogird tayyorlashda, tabibning yaxshiligi kishilar dardiga darmon bo'lishda namoyon bo'ladi:

Bog'bonning ustasi guldan bilinar,
Shohlikning shavkati yo'ldan bilinar,
Odamzod bir daraxt ekib ketsa ham,
Qalbining pokligi shundan bilinar.

Usta, o'z kasbini yaxshi bilgan bog'bon xilma-xil gullarni o'stirib, kishilarga zavq-shavq bag'ishlasa, elni, yurtni o'ylagan shohlar yo'lni yaxshilaydi. Chunki yo'l barchaning yuradigan joyi. Yo'llar manzillarni manzillargagina bog'lamaydi, dillarni, ellarni ham bog'laydi. Yo'llar qanchalik ravon bo'lsa, qatnov shu qadar ko'payadi, aloqalar mustahkamlanadi va shohlikning shon-shavkatini yoyadi, shohning e'tiborligini, xalqparvarligini, yurtni obod qilishdagi xizmatlarini ko'rsatadi. Ikkinchi misradagi ikkinchi ma'no shundaki, shohdik ya'ni hukumat, davlat o'z yo'lini to'g'ri tanlay olsa, adolat asosida ish tutsa dovrug'i oshadi deyilmoqchi. Inson farzandining dili pokligi, abadiyatga yaxshi nom qoldirishi u ekkan oddiy bir daraxt, yoki kichiq bir ko'prik barpo etish kabilarda namoyon bo'ladi. Har bir kasbda, bashariyatga bag'ishlangan har bir savob ishda, ezgu fazilatda inson o'zligini namoyon eta olishi mumkin.

38-SABOQ

Jamiyatning rivojlanishi, har bir mamlakatning taraqqiyoti va qudrati, xalqning to'kin-sochinligi, baxtiyor yashashi ilmu ma'rifatga e'tibor bilan belgilanadi. Qayerdagi ilm qadrlansa, ilm egalariga yetarli shart-sharoit yaratilsa o'sish, taraqqiyot bo'ladi. Ma'rifat yuksalsa, jaholat chekinadi, ulug' kashfiyotlar qiladigan olimlar yetishib chiqadi.

Bilimi bor joyning bo'lar olimi,
Olimi bor joyning bo'lar ta'limi,
Tartib ham, odob ham shundan bilinar,
Bulari yo'q joyning ko'pdir zolimi.

Zero, odamlarda ilm bo'lmasa, qayerdan olim chiqsin. Olimlik fanning biror sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lishdir, ma'lum sohani mukammal bilishga intilish va shu jabhadagi nazariy qarashlarni amaliyotga qo'llab, hayotiy xulosalar chiqarishdir. Tabiat va jamiyatni mukammal bilishda fanni, fanning tarqqiyotiga hissa qo'shish olimlikni yuzaga keltiradi. Olimlar qayerda ko'p bo'lsa, ular samarali izlanishlar olib borib, kashfiyotlar qilsa, o'sha yerda ta'lim ham, tarbiya ham bo'ladi. Ta'limning yaxshi yo'lga qo'yilishi tarbiyani yanada mukammallashtiradi. Bu odamlarni tartibga, odobga olib keladi. A'zolari ilmi, axloqli, intizomli bo'lgan davlat esa hamisha qudratlidir.

39-SABOQ

Alloh, Odam Atoni yaratgandan buyon bir balo borki, u hamisha insonni yo'ldan ozdiradi. Oddiy kishilargina emas, ne shohu ne donolar, ne paxlavonu bahodirlar ham shu baloga duch kelib qon qaqshagan, zor-zor yiElagan va ikki olamda ham xorlik topganlar. Bu nafs balosi:

Ikki nafs olamda bo'lmaydi barbod,

Kimlardir bundan shod, kimlardir noshod.

Hech nafs balosiga qo'yma o'zingni,

Azaldan to'ymagan, to'ymas ochko'z zot.

Shu nafs balosi Odam Ato va Momo Havoni jannatda yashashdan benasib qilgan edi. Qancha zamonlar va asrlar o'tsa ham shayton domiga tushgan odamzod shu nafs balosidan jabr tortmoqda. Bu nafsning biri mol-dunyoga to'ymaslik bo'lsa, ikkinchisi hirsiiy nafsdur. Uning qaysiga inson duchor bo'lsa ham zavol topadi. Nafsga berilgan zulm qilishdan, har qanday pastkashligu razillikdan qaytmaydi. Chunki nafs ko'zni ko'r, quloqni kar, ongni karaxt qilib qo'yadi, xis-tuyg'ularni jilovlashdan, o'zini idrok etishdan judo aylaydi.

Kimki nafsga qul bo'lsa, u qanchalik boylik to'plamasin, obru-e'tibor topmaydi, balki bor izzat-hurmatini ham yo'qotadi, odamlar nafratiga, g'azabiga, qarg'ishiga duchor bo'ladi. Ayni damda ochko'zlik bilan zulm, riyokorlik va qabixlik bilan yig'ilgan mol-dunyo ham unga nasib etmaydi. Shu sababli insonning nafs balosidan o'zini saklay olishi eng katta mardlik jasoratdir. Nafsini jilovlay olish inson kamolotining bir muhim belgisi.

40-SABOQ

Ilohiy qahramonning ilohiy homiylari (aslida farzandga uning otasi, bobosi, ustozlari) o'ttiz to'qqiz nasihatda odamning dunyoga kelishi va ketishi boisini, bu besh kunlik o'tar dunyoda nimalarni qilish va qilmaslik qanday kishilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va kimlarga yondoshmaslik qay fazilatlarni uluElash va qaysi birlarini la'natlash haqidagi fikrlar, odob-axloq qoidalari bayon etilgach, oxirgi qirqinchi chilton aytilganlarga yakun yasab deydi:

Urush ko'rmaganning elati to'qdir,
Insonlar shodligin ko'rish zo'r baxtdir,
Osmonda yulduzlar qara sanoqsiz,
Hay attang, bir oycha yorug'i yo'qdir.

Zaminda yurtlar, elatlar ko'p, ammo ulardak eng farovoni, obodi, xalqi baxtiyori urush ko'rmagani. Osoyishta, urushni boshdan kechirmagan, bilmagan mamlakat aholisi to'q, shodu xurram yashaydi. Bu olamda quvonchu shodlik qayg'u-yu g'am ham mo'l-ko'l. Ammo ulardan eng og'iri insonlar chekkan sitamni, jabrni ko'rish bo'lsa, eng yaxshisi odamlar o'yin- kulgisi, quvonchu zavqiga guvohlikdir. Osmonda yulduzlar nechog'lik hisobsiz bo'lmasin, birgina oychalik yorug'lik bera olmaydi. Epik qahramon, urushga qarshi adolatli shoh sonsiz yulduzlar-insonlar orasida tanho oydek, oy bo'lib o'z nurlaridan elni bahramand etishi lozim. Bu ideal qahramon haqida, eng odil hukmdor to'g'risidagi xalq orzu-umidi. Yuqoridagi fazilatlarni o'zida jamuljam eta olgan inson komil insondir.

Albatta yuqoridagi qisqagina izohlar orqali ularda aks etgan xalq, etnopedagogikasining barcha xususiyatlarini ko'rsatish mumkin emas. Aslida mavzuga chuqurroq, nazar tashlasak 40 nasihat - duoning qadimiy ildizlarini, boshqa folkloriy janrlar, xususan, maqollar, naqlar, rivoyatlar va hadislar bilan o'zaro munosabatini ham tahlil qilish zarur bo'ladi. Har bir nasihatning ruboiy shaklda berilib borishi yoxud yozma adabiyot vakillari ijodidagi ayrim hikmatlar bilan aloqasini kuzatish ham yangi ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Biz uchun ushbu risolada yoritilishi lozim bo'lgan mavzu xalq qadriyatlari, xalq pedagogikasining qamrovi nihoyatda kengligi, unga tugal rioya etish komil inson bo'lib yetishishining asosi ekanligini ta'kidlashdadir. Garchi u birgina yosh qahramonga aytilgan shunchaki maslahatlar, pandu-nasihatlar bo'lib tuyulsada, aslida avlodlarimiz tomonidan necha ming yillar davomida ishlab

chiqilgan, hayotiy tajribalar, ruhiy va milliy xususiyatlarni o'zida jamlagan Odoynom, Ibratnoma, Hikmatnoma saboqaridir.

Shu qirq chiltonning epik qahramonga qirq nasihati, bergan qirq duosi Go'ro'g'lining Go'ro'g'li bo'lib yer yuzida, ko'kda va yer ostida beqiyos shuhrat, obro'u-e'tibor, shon-sharaf topganiga asos bo'lganini ta'kidlash kerak Go'ro'g'li silsilasiga kiruvchi mustaqil syujet va kompozitsiyaga ega bo'lgan yuzdan ortiq dostonlarda xalq qahramonining ezgulik uchun kurashi, jasorat va fidoiylilik ko'rsatib g'alabaga erishuvining asosi, yurtda adolat o'rnatib osoyishtalikni ta'minlashi, elning baxtiyor yashashiga sabab bo'lishining asosi xuddi shu nasihatlariga amal qilishidadir, 40 nasihat va butun doston davomidagi voqealar bayoniga kiritilgan odob-axloq, haqidagi o'gitlar qahramonni balo-ofatlardan asraydi, ulug'vor maqsadlar sari ilhomlantiradi. Qahramon qachonki, shu o'gitlardan birortasini yoddan chiqarsa, albatta, qayg'u-kulfatga duch keladi, boshiga balo yog'iladi, g'am-alam chekadi. Go'ro'g'liga aytilgan pandlar uning shajarasidan yetishib chiqqan, boshqacha aytganda asrandi bo'lsa-da, uning farzandlari, nevara-chevaralari hisoblangan Avazxonga, Hasanxonga,

Ravshanga, Nuraliga, Sheraliga, Jaxongirga birdek tegishli. Zero, bugina emas, bu hayot tajribasidan kelib chiqqan pandnomalar butun xalqqa, insonlarga xususan yoshlarga tegishli.

«Zaydinoy» dostonida pand-nasihatlari, ya'ni xalq odobnomasi faqatgina qirq nasihatda chiltonlarning qirq duosidagina aks etmagan. Biz sharhlagan o'rin faqat ma'lum bir qismda jamlangan, dasturnoma sifatida bayon qilingan. Dostonning butun voqealari, qahramonlarning o'zaro munosabatlari, hatti-harakatlari, tabiatdagi jonli va jonsiz mavjudotlar, predmetlar bilan aloqasini yoritish jarayonida xalq, axloqiy qarashlari ham ta'kidlab ko'rsatib boriladi. Masalan, Go'ro'g'li mansub Takali turkman urug'ini dushmanlar talayvergach, urug' ahli maslahatlashganda, yosh Go'ro'g'li deydi:

Qurt teshadi doim yog'och bo'shini,

Toshni teshar tushsa ko'kning yashini,
Biriktirsa cho'pni sindirib bo'lmas,
Biriktirmoq kerak elning boshini.

Ko'rinib turibdiki, urug'' a'zolarini ahillikka, bir yoqadan bosh chiqarib ish yuritishga, birikkan elning qudrati yashinday toshni teshishga qodir bo'lishiga undash aks etmokda. .

Darvoqe, birlik yaqlilik barcha yutuqlarning, yaxshi turmush kechirishning, farovonlikning asosidir. Xalq e'tiqodicha, birikkan kuchni yengish mumkin emas.

O'zbek xalq dostonlarida odob-axloq mavzuiga, yoshlar tarbiyasiga shu darajada e'tibor berilganki, u epik o'rin darajasiga ko'tarilgan va har bir an'anaviy dostondan mustahkam o'rin egallagan. Safarga otlanayotgan yoki mustaqil holda biron ish qilishga kirishish, bellashuv, ko'pkari, poyga, chavandozlik kabi milliy o'yinlar, musobaqalar, tortishuvlarga qatnashish oldidan, shuningdek jangu jadalga bel bog'lagan qahramonga duo fotihalar berish, xayrlashish, biron ezgu maqsad sari otlanish arafasida pandu nasihatlar qilish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, pok niyatlar bildirish umumo'zbek dostonlari uchun asosiy xususiyatlardan bo'lsa-da, bu mavzu Janubiy O'zbekiston dostonchiligida yanada mukammalroq, yanada kengroq o'rin egallaydi. Epik kahramonning duogo'ylari, maslahat beruvchilari: ota-ona, aka-uqa, opa-singil, tog'a-amaki, pir, Xujai Xidir, chiltonlar, shayxlar, ustoz murabbiylar, elning oqsoqollaridir.

«Zaydinoy» Go'ro'g'li biografik turkumining dastlabki dostonlaridan bo'lgani, epik qahramonning bolaligi tasvirlangani sababli, qahramonga nasihat qilish, yo'l ko'rsatish, duo berish, balo-ofatlardan asrash Xizir va chiltonlar zimmasiga tushadiki, bu Go'ro'g'lining ota-onasizlik motivi bilan izohdanadi. Ilk tarbiyachilar-ota-onadan ayrilish, ular bajaradigan ishni ham homiylar zimmasiga qo'yadi. Qirq nasihatdan so'nggi dialoglarda, monologlarda yoki

voqealar bayonida berilgan o'gitlar dastlabkilarga hamohang va ularni to'ldiradi, komil inson bo'lishning aytilmagan jihatlari haqida tushuncha beradi:

Mehat bilan topgan moling qilar mas(t)
Kishi moli yuqmas bilsang bir nafas,
Boshing eson, davlatingni kam dema,
Xizmat qilgan rohat ko'rmagan emas.

Bu mehnatga, halollikka, o'zgalar haqiga ko'z tutmaslikka undovchi, umid uyg'otuvchi, astoydil ter to'kkanni rohat ko'rishga ishontiruvchi pandnoma Go'ro'g'liga yillab sarson-sargardon holda g'irotni izlab, oxir-oqibatga unga erishgan bir paytda aytilmoqda. Janubiy O'zbekistonlik buyuk san'atkor baxshi Qodir Rahim uEliga xos talant bilan xizmat qilgan oxiri rohat ko'rishi, bir yo'qlikning bir borligi, gadolikning bekligi bo'lishi yosh qahramon ongiga quyilaveradi.

Bir yo'qlikning bir kun to'qligi bordir,
Bir g'amlikning bir kun shodligi bordir,
Xizmat qilgan rohat ko'rmagan emas,
Gadolikning bir kun bekligi bordir.

Bu dunyoda, bolam, bordir toshi tarozi,
Nasib qilsin, bo'lmas molning ko'p ozi,
Gadolikning bir kun bekligi bordir,
Xizmat qilgan bo'lmagan hech norozi.

Baxshi mahorati shundaki, dastlabki to'rtlik (band)dagi to'rtinchi misra «Xizmat qilgan rohat ko'rmagan emas») keyingi bandning uchinchi misrasi bo'lib keladi-da, to'rtinchi misrada yana bir muhim xulosa, aniqrog'i bashorat

ilgari suriladi. Gadolikning bir kun bekligi borligi uqtirilib, yana ta'kidlanib «Xizmat qilgan bo'lmagan hech norozi»ga urg'u berilganda, yaratgan insonning yaxshi-yomon ishlarini Alloh biladi, har ishning hisob-kitobi bor, xizmat etganlarni norozi qilmaydi, degan islomiy falsafiy hukm, xulosa bor. Ayni damda sag'irlikdan, azob-uqubatdan, gadolikdan qutulayapsan, beklikka erishayapsan, hukmdorlikda xizmat qilganlarni norozi qilma, degan purma'no o'git ham mujassam.

Tarbiyaviy nasihatlar, duolar, hikmatlar faqat homiylar-chiltonlar, Xizir tilidangina bayon qilinmaydi. Balki dostonida ishtirokq etuvchi har bir personaj nutqida, voqea xodisalar bayonida, ot va tabiat tasvirida donishmandlik bilan aytilgan odob-axloq, haqida fikrlar shu darajada mo'лки, ular birma-bir tahlil qilinsa, tematik jihatdan guruhlashtirilsa, yaxlit Odobnoma darsligi yuzaga keladi. Inson harakatidagi ijobiy yo salbiy jihatlar, ruhiy dunyo, yoshga, jinsga xos hislatlar, xatti-harakatlar xususiyatlar atrof-muhitdagi voqealarga, o'simlik va hayvonot olamiga muqoyasa qilingan holda berilishi obrazlilikni ta'minlaydi, estetik idealni kuchaytiradi, ma'lum milliy urf-odatlar rasm-rusumlar bilan bog'lanib ketadi. Go'ro'g'lining tog'asi Ahmad Sardorga deganlarini eslaylik.

Ot turmas qoziqda, biya chopgansan,
Sovliqlar nozlanar qo'chqor topgansan,
Hamir ham taboqda turmas ko'pgansan,
Gapim olmas checham bir oy o'tgansan.
Ne aytsang qilayin obket chechamdi...

Dardliga yoqmaydi tovning havosi,
Tishing og'rigansan ombir davosi,
Daraxtlar tinchlanar bo'lsa mevasi
Ayoldir erkakning orzu-havasi,
Bir dardga qolmayin obket chechamdi...

Bulbullar sayrasa gullar yozilar,
Sayramasa gul boldog'i uzilar,
Ko'ngil istagansan niyat buzilar,
Qoshlar ko'tarilib ko'zlar suzilar,
Dardisar qilmayin obket chechamdi...

Savdo ishi bilan uzoq muddatlik safarga ketayotgan tog'asining mulki, ming biyasini, minglab qo'y-qo'zisini boqishga Go'ro'g'li rozi-yu, faqat uning xotiniga qarashni zimmasiga olmaydi. Chunki chechasining sadoqatiga ishonchi yo'q. Ayni vaqtda ersiz qolgan ayollarga o'zga erkaklarning munosabati hamisha yaxshi emas. Yaxshilar orasida yomonlar, poklar orasida nopoklar ko'p. Musulmonchilikda esa axloqning eng birinchi sharti poklik va halollik oilada er-xotinning o'zaro sadoqati. Ko'p gunohlarni kechirish, ko'p xatolarni tuzatish mumkin, biroq ayolning xiyonati, erning bevafoligi kechirilmaydigan eng katta gunoh. Bu gunohga yo'l qo'yganni qatl etgan taqdirda ham islom shariatlari yuzasidan qotilni jazolamaydilar. Ayollarning oddiy bir xatti-harakati ham isnoti gap bo'lib ketishidan, bu inson sha'ni, ornomusi bilan bo'lganidan yosh Go'ro'g'li tog'asidan xotini Xoljuvonni tashlab ketmaslikni iltijo qiladi. Bu o'tinchda, iltijoda oila nomusi masalasi mujassam. Yuqoridagi uch band hech qanday sharxlarsiz ham tushunarlidir. Hech qaysi beshlikda checham yaxshi yoxud yomon demaydi. Ammo har bandedagi dastlabki uch misradagi go'yo mavzuga aloqasizdek tuyulgan fikr, xulosa orqali so'zlovchi nima demoqchi ekanligi anglashilaveradi: Biya kuyikka kelsa, ot qoziqda turmay qoladi; suruvga qo'chqor qo'shilsa, sovliqlar ham nozlanadi; hamir ko'psa (achisa) taboqdan toshib to'kiladi. Tulpor biyani ko'rib qoziqda, sovliq qo'chqorni ko'rib suruvda turolmaganidek yoki achigan hamir taboqdan toshgani kabi Xoljuvon ham eri ketgandan so'ng oylar o'tib, boshqa erkakni ko'rganda ko'ngli buzilmasligiga kim kafolat beradi. Hech kim, albatta.

Tog'ning havosi hamisha davo emas. Ayniqsa qon bosimi, yurak xastaligi bor dardlilarga tog' havosi yoqmasligi ko'pchilikka ayon. Ikkinchi misrada tish og'riqdan qutilish davosi ombir ekanligi to'g'risidagi haqiqat bor. Uchinchi misra daraxtning mevasi bo'lsa tinch o'sishi, mevali daraxt kesilmasligini ta'kidlaydi. So'nggi ikki misra «Ayoldir erkakning orzu havasi. Bir dardga qolmayin obket chechamdi» mantiqan dastlabki uch satrning davomi va xulosasidir. Ayol ersiz qolsa, mevali daraxtday o'zgalar uni tinchlantirmaydi.

Yomon, isnoti gap chiqmasligiga uchun er ayolni o'zi olib yurishi, nazoratsiz qoldirmasligiga lozim. Tog' havosi ko'p dardga shifo bo'lgani holda, aytilgandek ayrim kasallarga yoqmaydi, ayol sadoqatni saqlayman desa ham ko'ngli buzuvchi o'zgalar uni yo'ldan urishga intilishi yoki malomat gaplar bilan yomon otliq qilish mumkin. Bu gap-so'zlardan qutulishning yagona yo'li, har kim qo'shgani bilan birga bo'lishi:

Xotinni erkakka qo'shgan xudoyim,
Erkagi bo'lgansan xotin muloyim,
Bir kecha ayirma uni iloyim,
Tog'ajon, yetmasmi shuncha gunoyim,
Tentak bo'b qolmayin obket chechamni.

Qahramon qanchalik o'tinmasin Ahmad Sardor xotinini uzoq safarga olib ketmaydi, balki yosh Go'ro'g'liga maslahat-o'git berib, qanday asrash zarurligini uqtiradi. Endi keksa tog'a so'zlarida kattalarning hayot tajribasidan kelib chiqqan saboq mujassam:

Yomon hayollarni boshdan o'chirgin,
Dono bo'b axmoqning so'zin kechirgin,
Chechangni buzilsa ko'ngli ham o'yi,
Bir joydan ikkinchi joyga ko'chirgin.

Dard bergan xudoyim darmonin bersin,
Insofi ketganni qo'ymayin olsin.
Ko'chganda xona tort biya ustiga,
Minganda biyasi jo'rtaqi bo'lsin.

Qimizni so'rasa suvni keltirgin,
Novotni so'rasa muzni oldirgin,
Ko'pkan non yedirma zinhor, Go'ro'g'li,
Xamirni iylatib patir yedirgin,-

Va hakoza tarzda o'n ikki bandda ersiz qolayotgan ayolni qanday gap-so'z bo'lmay yashashini nazorat qilish yo'l-yo'riqlari bayon qilinadi.

Ahmad Sardor so'zlarining yana bir harakterli jihati shundaki, ayoldagi jinsiy mayl, istakni so'ndirish yo'llari ta'kidlanadi. O'z-o'zidan ayonki, yetti yoshli Go'ro'g'li tog'asi bilgan bu yo'l-yo'riqlardan xabarsiz edi.

Dostonlarda bunday hayotiy axloqiy o'rinlar juda ko'p. Qodir baxshi iqtidorining, o'ziga xos talantining bir qirrasi yana shundaki, she'riy matnlarning asosiy qismida dastlabki ikki misra, ba'zan uch misra pandu nasihat, ya'ni sof axloqiy mavzuda yoki hayotiy tajribalar natijasida chiqarilgan hikmatli hukm tarzida bo'lib, so'nggi ikki yoki bir misra bevosita tasvirlanayotgan shaxs yoxud predmet tug'risidadir. Masalan, Qambar bobo Go'ro'g'lidan kimligini (bilib turib sinash uchun) so'rar ekan, deydi:

Bir hunar yigitning bo'lsa odobi,
Yomonga zeb bermas dono kitobi,
Tarzingga qarasam falak oftobi,
Zulmatda yorug'im, senga yo'l bo'lsin...

Keng jahonni anglamassan yurmasang,
O'zi kelmas do'lanani termasang,
Ishim bo'lmas edi salom bermasang
Odobli qo'rg'onim, senga yo'l bo'lsin.

Bu erda tasdiq ham, qiyos ham, hunarni uluElash, dunyoni kezib yaxshiyomonni anglashga chaqiriq mehnat mashaqqatlarini chidam bilan yengish zaruriyatini uqtirish ham, odoblini sharaflash ham mujassam. Bordi-yu, bunday bandlardan dastlabki ikki, goho uch misrani ajratib olsak axloqiy mavzudagi quyidagi kabi hikmat durdonalariga duch kelamiz.

Ko'p chumoli har kimsani shoshirar,
Botmon donni olti tovdan oshirar,
Bir odamning aqli otcha bo'ladi,
Ko'p odamning aqli tovcha bo'ladi.

Mehnat qilib topgan moling moy bo'lar,
Ug'irlikning bir kun xoli voy bo'lar.
Qiz bolaning avval bo'lsin ibosi,
Ibosi bo'lmasning yo'qdir zebosi.

Birgina shu doston matnidagi bunday purma'noli hikmatlar besh yuzdan oshadi. Albatta gap ularning sonida emas, balki har birida ma'lum bir turmush tajribasidan kelib chiqqan va yoshlarga ibrat bo'larli saboqlarning singdirilganida hamda ular asar voqealari ruhiga moslashib yaxlitlik kasb etganidadir.

O'zbek xalq og'zaki ijodiga xos usul-badiiy parallelizmlar vositasida hikmatlar ifodalanayotgan voqea, hodisaga, epik tasvirga qo'shilib ketadi va emotsionallikni oshiradi. Jumladan, qor yoqqandan so'ng shamol tursa, qorlarni

uchirib chuqur joylarga, soyga tiqishi aniq voqea. Buni o'quvchi ko'z oldiga keltira oladi:

Shamol tursa uchirar tov qorini,
Soyga tiqar shu qorlarning barini,
Davlatningdi shilib olar qizilbosh,
Ayamaydi yoshi bilan qarini.

Shamol soyga, jarlikka o'rnashib qolgan qorni tashqariga chiqarib socha olmaydi. Aksincha, tepaliklardagi, cho'qqilardagi, tekislikdagi qorlarning barini uchirib chuqurliklarga kiritadi. Epik yurt-Chambilga (boshqa istagan joyga ham) bostirib kelgan dushman-qizilbosh go'yoki shamol. U shamol qorlarni soyga tiqqandek elning yalinishi, ko'z-yoshlariga e'tiborsiz, rahmsizlik bilan mol-mulkini shilib, to'dalab olib ketadi. Shamol qorni soyga, dushman talab olingan boylikni o'z oilasiga, xonadoniga tiqadi. Ushbu bandda dastlabki ikki misra badiiylikni, ta'sirchanlikni, emotsionallikni falokatning darajasini, oqibatini namoyon qiladi, yuzaga chiqaradi...

Ahmad Sardorning yuqoridagi gapiga javoban yosh qahramon:

Bir yo'lbarsga mingta iting teng bo'lmas,
Noqirsga ikki jahon keng bo'lmas,
Jondan qo'rqmas botir chiqsa elingdan,
Turkmaningning aslo holi tang bo'lmas, -

deydiki, yana hammaga ma'lum haqiqatni-it yo'lbarsga teng bo'lmasligini, noqirs (nokas) uchun ikki dunyo ham torligini ta'kidlab, dushmandan saqlanish uchun har elning botirlari, el-yurt osoyishtaligi uchun kurashchi mardlari bo'lish lozimligini uqtiradi.

Xullas, xalq odobnomasining bu kabi teran mazmunli serma'no hikmatlari xalq insonni tarbiyalash, kamolga yetkazishga, hamisha diqqat-e'tiborda bo'lganligini ko'rsatadi. Ularda inson aniq xalqona soddalik bilan yaxshi va yomonga ajratiladi. So'ngra hamma xususiyatlar, Xatti-harakatlar, munosabatlar shu ikki tushuncha atrofida guruhlashtiriladi. Natijada, falsafa fanida uqtirib kelingan qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni hosil bo'ladi. Xalq, qadriyatlarida, uning uchun qarama-qarshiliklar birligi va kurashi degan o'ta murakkab, tushunilishi qiyin ta'rif va talqin yo'q. Xalq uchun yaxshilik va yomonlik kurashi bor. Yaxshilik va yomonlik insonlarning bir-biriga munosabatidagina emas, hayvonlar, qushlar dunyosidan oddiygina maysagacha bo'lgan predmetlar, narsalarga munosabatda namoyon bo'ladi. Bu yorug' dunyoda yashashdan maqsad shuki:

Yaxshilik ziyosi yursin yuzingda,
Yomonlik kulfati qolsin izingda.

Yuzi yaxshidan to'ngilma, deydi. Xalq yuzida yaxshilik nur balqib tursa, inson baxtiyor, shodon yashaydi. Yaxshilarga kim yomonlik kulfat keltiraman, ziyon yetkazaman, deb chopsa ham, izda (orqada) qolib ketaversin, yeta olmasin.

Yaxshi insonni, ya'ni e'tiqodli, imonli, sadoqatli, o'zgalarga g'amxo'r, qahramon yigitlar, mardona barno qizlarni tarbiyalab yetkazish muammosi xalq qadriyatlari, xususan pedagogikasining asriy va azaliy mavzusi bo'lib, bu mavzu epik asarlarda ham atroflicha yoritilgan.

XULOSA

Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, dostonlarda nasihatlar, nasihat duolar, nasihat olqishlar epik o'rin darajasiga ko'tarilgan va syujet rivojining asosini belgilaydi. Biz yuzlab nasihatlardan bir nechasini- tahlil qilishga intildik. Bu nasihatlar o'zbek xalq didaktikasining chinakam mag'zi bo'lib, insonning inson sifatida buyukligi, uning aqliy, jismoniy, ruhiy, axloqiy kamolotga erishuvida nimalarga rioya qilish zarurligini asoslab ko'rsatuvchi yo'l-yo'riq va dasturdir. Xalq o'z o'gitlarini, pandlarini chiltonlar nomidan bayon qiladi. O'zbek xalq dostonchilarining ko'pchiligida odob axloq haqida qarashlar Qodir baxshidagidek yig'ma, tushunarli, falsafiy teran va badiiy mukammal tarzda bir joyda berilmagan.

Bitiruv malakaviy ishimizdan shunday xulosaga kelish mumkin:

- 1.Xalq dostonlarida xalq odobnomasi keng talqin etilgan
- 2.Biz ko'rgan "Zaydinoy" dostonidagi va ayrim termalardagi odob-ahloqqa doir qoidalar an'ana darajasiga ko'tarilgan.

3.Dostonlardagi odob ahloqqa doir fikr-mulohazalarni:

a)darslarda;

b)sinf dan tashqari o'qishlarda;

v)qo'shimcha mashg'ulotlarda;

g)to'garaklarda o'rganish foydalidir.

4.Bilim muassasasida xalq ijodidagi axloqiy mavzuni yoritilishini o'rganish tizimini ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.I. Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" – T:Ma'naviyat, 2008

2.Jirmunskiy V. M., Zrifov X. T. Uzbekskiy narodniy gerocheskiy epos.
M:1947

3.Mirzaev T. O'zbek baxshilarining epik repertuari. – T:Fan.1979

4. Mirzaev T. G'pos I skazitel' – T:2008

5.Murodov M., Ergashev A. "Alpomishnoma" 1-kitob. – T:Mehnat.
1999

6. Murodov M., Ergashev A. "Alpomishnoma" 2-kitob. – T:Mehnat.
2000

7. Murodov M., Ergashev A. "Qadriyatnoma" 1-kitob. – T:Mehnat. 2001

8.Zarifov. X. O'zbek folkloristikasi tarixidan // O'zbek folklori
masalalari. – T:Fan. 1970

- 9.Madaev O., Sobitova. “Xalq og’zaki badiiy ijodi” – T: O’qituvchi
2003
- 10.O’zbek xalq pedagogikasi. – T:1996
- 11.Ergashev A. “Xalq Temurnomasi” - Qarshi:Nasaf 2004
12. Ergashev [A.Qashqadaryo](#) va Surxondaryo dostonchiligi. – T:Fan.
2008
13. Ergashev A.Xalq ijodining xazinadori - Qarshi:Nasaf. 2006
14. Ergashev [A.Qora](#) baxshi Umirov mahorati. – T:2006
15. Ergashev A.Xushmurodova I. Folklor va istiqlol. – T:2006
16. Ergashev A., Uzoqov B. Dostonlar-odobnoma darsligi. - Qarshi:
Nasaf. 2004
17. Ergashev A., Jumanazarova D. Xalq dostonlari tarbiya qomusi.
Jizzax. 2006
- 18.Zaydinoy, doston, qo’lyozma. Qarshi DU folklor arxivi.
19. Qahhorov A. Yangi dostonlar T.:FAN, 1985
20. Murodov M. Sarchashmadan tomchilar T.:1982
21. Murodov M. Ergashev A. “Alpomishnoma” 1-kitob T-1999
22. Murodov M. Ergashev A. “Alpomishnoma ”2- kitob T-2000
23. Murodov M. Hakimov N. Ergashev A “Qqadriyatnoma” 1-kitob T-
2001
24. Ergashev A Janubiy Uzbekiston baxshilari badiiy mahorati:
QQarshi, Nasaf 1998
25. Ergashev A. Alpomishni alp bilar, Qarshi Nasaf 1998
26. Ergashev A. Omonova G. Dostonlarda urf odatlar va ayrim
qadriyatlar “Nasaf”, 2000
27. Ergashev A. Uzoqov B. Dostonlar odobnoma darsligi “Nasaf” 2004
28. Ergashev A. Xalq ijodining xazinadori, T:-2006
29. Ergashev A.Jumanazarova D. Xalq dostonlari tarbiya qomusi Jizzax
2006

30. Ergashev A. Xalilova D. Yozi bilan Zebo ish dostoni, “Nasaf”, 2000
31. Ergashev A. Jumanazarav U. Xalq pedagogikasi va qadriyatlari. Jizzax 2007
32. Ergashev A. El ardoqlagan baxshi “Nasaf” -2012
33. Ergashev A. Qodir baxshi o'tdi denglar “Nasaf”-2012
34. Ergashev A, Qahhorov Janubiy O'zbekiston dotonchilar shajarasi “Nasaf”-2011
35. Ergashev A. Qashqadaryo Surxandaryo dotonchiligi T.: FAN-2008
36. Utaev O'. Otayor. Dunyoga tengdosh xazina. T. 1975
37. Utaev U “Baxshilar sardori ” “Nasaf”, 1998
38. Yuldoshev B. Nasaf nafasi “Nasaf” 1992
39. Ergashev A. Qora baxshi Umirov mahorati T-2008
40. Ergashev A. Ochilov K . Shunqor bolam, huy-yo huy “Nasaf”, 2003
41. Ergashev A. “Xalq Temurnomasi ”, “Nasaf”, 2004
42. Ochilov N. “Xalq eposida zamonaviylik” “Nasaf”-2010
43. Ergashev A. “Qodir baxshi termalari” “Nasaf” 2012
44. Ergashev A. Rahimova D. “Qodir baxshi o'gitlari” “Nasaf” 2012
45. Ergashev A. Jumayeva F. “Qodir baxshi Rahimov” “Nasaf” 2012